1. Dushanba – “Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar” (*bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi*).

2. Seshanba – “Odob axloq qoidalari” (*bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘ri so‘zlik, kamtarlik va b.q.*);

3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik” (*bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi*).

4. Payshanba – “Yo‘l harakati qoidalari” (*bolalar ishtirokidagi yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo‘lovchi”, “Sветофор” kabi mavzularda suhbat olib boriladi*).

Harakatli o‘yin – jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan o‘rgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, asosan 1 ta harakatli o‘yin rejalashtiriladi va qayd etiladi.

Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg‘itish, turli usullarda yurishda kamchiliklar bo‘lgan bolalar bilan olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo‘lsa o‘sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Ixtiyoriy o‘yinlar – bolalarning hoxish-istaklariga ko‘ra deb qayd etiladi.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish

(taxminan 13:00 dan 15:00gacha, takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarda bolalarning uyqusiz vaqtida).

To‘garak ishlari – (MTTning Kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra turli to‘garaklar kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladi.

Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko‘ra tanlanadi.

Pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo‘yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o‘zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo‘yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbatlari o‘tilgan mavzu taxlil (refleksiya)– ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko‘nikma va malakalari (*bola kompetensiyasi*) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma’lumot beradi (*refleksiya*).

Kechki soat

(taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli MTT uchun) **Ikkinchi sayrda** – ixtiyoriy o‘yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi (*tarbiyalanuvchining o‘zlashtirishi, ta’lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi,*

bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indekatori bo'yicha (bola shaxsiga tegishli ma'lumot yakka holatda o'tkaziladi) mavzularda).

Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir nechta ixtiyoriy o'yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to'ldiriladi.

05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar):

Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlari umumiy bitta bo'lishi yoki 3 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi quyidagicha:

Bolalar davomatini qayd etish daftari yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot direktori oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, oy yakunida imzo va muhr qo'yadi.

Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Filtr daftari tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftarida tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi

(pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnoma natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi.

Bola uch kun kelmagan takdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning tashkilotga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Patronaj daftari - ushbu daftarni yuritish tashkilot xamshirasiga yuklatildi. Lekin tarbiyachi hamshira bilan hamkorlikda ishlashi va tarbiyalanuvchining kelmaslik sabablarini o'z vaqtida aniqlashda yordam berishi zarur xisoblanadi.

Ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot

Bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq (o'quv yili o'rtasida) va yakuniy (o'quv yili yakunida).

Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha *erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari* aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (+) bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan

natijalar) “ishlamasa”, pedagog (tarbiyachi) “Pedagog izohi” ustunida eslatma yozishi lozim.

Bolaning rivojlanish darajasi quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti harakatlari kam yoki umuman namoyon qilmaydi).

B – ba’zida kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari tasodifiy yoki ma’lum vaziyatlarda).

T – tez-tez kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikma / xatti-harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi).

D – doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi).

Oraliq kuzatish shu tartibga binoan o‘tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri (dekabr, yanvar) da o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni o‘tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to‘g‘riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalariga ko‘ra, pedagog, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug‘ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O‘quv yili oxirida (odatda may oyida) pedagog yakuniy kuzatishni o‘tkazadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo‘yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko‘zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatishni o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatish bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatish kamida ikki hafta (yoki bir oy) mobaynida olib boriladi.

- pedagog bola to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.

- pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozim.

3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko'ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi.

6-7 yoshdagi bolalar uchun (MTT bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan so'ng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to'ldiriladi.

4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi, ismi: _____ yoshi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi: _____ (O'g'il /qiz)

Pedagog _____

Kuzda to'ldirilgan sana: _____

Qishda to'ldirilgan sana: _____

Bahorda to'ldirilgan sana: _____

Yillik hisobot quyidagi shakl asosida o'quv yili yakunida yoziladi. **Ushbu shaklda hisobotni defektolog, psixolog, musiqa rahbarlari ham yozib,** metodistga o'quv yili yakunida topshiradi va metodist MTT bo'yicha hisobotni umumlashtirib, natijalar bo'yicha keyingi o'quv yiliga MTT asosiy vazifalarini belgilaydi va Pedagogik kengashga taqdim etadi.

Namuna

Pedagogning o'quv yili yakunida yozadigan Yillik hisoboti shakli (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari)

I. MTT (guruh)ning umumiy tavsifi:

4. MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Ulardan: o'g'il bolalar _____ va qiz bolalar _____.

Joriy o'quv yilining maqsad va vazifalari. Ushbu bo'limda siz maktabgacha ta'lim tashkilotining rejasida o'quv yili uchun belgilangan asosiy vazifalarni ko'rsatib o'tishingiz kerak, shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq bolalar bilan tashkil etilgan faoliyat turlarini, o'tkazilgan tibbiy va pedagogik ko'riklari natijalarini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar pedagog

ta'limning yangi shakllaridan foydalangan bo'lsa, ishini tavsiflaydi, masalan, "kviling" texnologiyasi, "Tanlash huquqi" texnologiyasi (bu yerda bola o'z xohishiga ko'ra rivojlanish markazini tanlaydi), agar boshqa texnologiyalar bo'lsa, uni ko'rsatib o'tadi.

O'quv yiliga asosiy vazifalar:

Tibbiy ko'riklar o'tkazildi (MTTda tarbiyalanuvchilar qaysi turdagi tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan, masalan, tor doirali mutaxassislarning qaysi toifadagi mutaxassislari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik amalga oshirilganligini ko'rsatish lozim.

III. O'tkazilagan tadbirlar tavsifi (bu bo'limda MTT (guruh)da nechta tadbir va ertaliklar o'tkazganligini bayon etiladi.

IV. Tarbiyalanuvchilarning tanlov va boshqa musobaqalardagi ishtiroki bo'yicha natijalar (bu bo'limda tanlov yoki musobaqaning nomi (turi)ni ko'rsatib, bolaning familiyasi va ismini yoziladi va natijalari bo'yicha izoh beriladi)

V. Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari (bu bo'limda ota-onalar ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar, majlislar, mavzuli uchrashuvlar, konsultatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumot va xabarlar bo'yicha bo'lib o'tgan muhokamalar yoziladi)

VI. Rivojlantiruvchi muhitni yangilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar (bu bo'limda pedagog rivojlantiruvchi markazlar bilan amalga oshirgan ishlarini ko'rsatib o'tadi: qaysi o'yin va o'yinchoqlarni almashtirgan; qanday didaktik

o‘yinlar va tarqatma materiallar bilan boyitilgan va ularning bolalarda bilim va ko‘inkmalarni shakllantirishdagi o‘rni. Shuningdek, rivojlantirish markazlarning yangilanishi va boyitilganligi bolani rivojlanish sohalari bo‘yicha rivojlanishida qanday natijalar berganligini ham ko‘rsatib o‘tish lozim.

VII. O‘quv yili yakuniga “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijalari (bu yerda pedagog bolaning har bir rivojlanish sohasini o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatib, bolalarning rivojlanish xaritalarini tahlil qiladi va quyida keltirilgan jadval asosida ko‘rsatkichlarni umumlashtiradi).

MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Rivojlanish sohasi	Bolalarning rivojlanish xususiyatlarining namoyon bo‘lish darajasi			
	K (kuzatilmaydi yoki kamdankam kuzatiladi) bola soni ko‘rsatiladi	B (ba’zida kuzatiladi) bola soni ko‘rsatiladi	T (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko‘rsatiladi	D (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko‘rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi				
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari				
Bilish jarayonining rivojlanishi				
Ijodiy rivojlanish				

VIII. O‘quv yili yakuniga “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijalari – (bu yerda pedagog (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari) majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolaning har bir rivojlanish sohasini o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatib, bolalarning

rivojlanish xaritalarini tahlil qiladi va quyida keltirilgan jadval asosida ko'rsatkichlarni umumlashtiradi).

MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Rivojlanish sohalari kompetensiyalari	Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarning shakllanishi			
	K (kuzatilmaydi yoki kamdankam kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	B (ba'zida kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	T (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	D (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi				
O'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi				
Turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				
Turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi				
O'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi				
Shaxsiy gigiena ko'nikmalarini qo'llaydi				
Hayot xavfsizligi asoslari qoidalariga rioya qiladi				
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
O'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli				

to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi				
O'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi				
O'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi				
Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi				
Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi				
Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari				
Nutqni eshitadi va tushunadi				
O'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap tuzilishlaridan foydalanadi				
Ikkinchi tilni o'rganishga qiziqishi namoyon qiladi				
Ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi				
Badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo'ladi				
So'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi				

to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi				
Matn mazmunining turli shakllarini mustaqil tuza oladi va qayta hikoya qila oladi				
Bilish jarayonining rivojlanishi				
Bilim olishga faol qiziqishini namoyon etadi				
O'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi				
Predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi				
Raqamlar, hisoblashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi				
Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi				
Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi				

Ijodiy rivojlanish				
San'at va madaniyatga qiziqish bildiradi				
Milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi				
San'atning ma'lum bir turiga bo'lgan afzalliklarni mustaqil ravishda ifodalaydi				
Olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy reja- larini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi				
Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi				

IX. O'z ustida ishlash. Bu yerda pedagoglar (tarbiyachi, defektolog, psixolog, metodist va musiqa rahbari) o'z ustida ishlash maqsadida malaka oshirish kurslaridan o'tganligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalangan elektron ta'lim platformalarini ko'rsatadi, shuningdek kasbiy kompetensiyasini oshirish borasida amalga oshirgan ishlari, ishtirok etgan seminar va treninglar mavzularini yozadi. Shuningdek, tuman (shahar) miqiyosida o'tkazilgan metodik birlashmalarda ishtiroki va u yerda orttirgan bilim va ko'nikmalarini ham ko'rsatib o'tishi maqsadga

muvofiq. Shular bilan bir qatorda pedagog turli darajada tashkil etilgan vebinarlar haqida, o'z tajribasini amaliyotga joriy etgan bo'lsa (kitob, metodik qo'llanmalar va boshqa) ularni ham ko'rsatib o'tishi tavsiya etiladi.

X. Keyingi o'quv yiliga reja. (bu yerda tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari, metodist yillik hisobotdan kelib chiqib, qilingan tahlillarga asosan qisqa vazifalar belgilaydi. Vazifalar bolalarning rivojlanish xaritalari bo'yicha qilingan tahlilga asosan belgilanishi tavsiya etiladi. Masalan: ijtimoiy-xissiy rivojlanish sohasida - bolalarni muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli usullarini o'rganishga yordam berish, muzokaralar olib borish, yangi aloqalarni o'rnatish, (har bir hudud uchun ikkitadan ko'p bo'lmagan vazifa) ota-onalar uchun tashkiliy tadbirlarni tashkil etish va turli loyihalarda ularning ishtirokini oshirish).

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

3. _____

4. _____

Ijtimoiy-xissiy rivojlanish

3. _____

4. _____

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

3. _____

4. _____

Bilish jarayonining rivojlanishi

3. _____

4. _____

Ijodiy rivojlanishi

3. _____

4. _____

Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari

3. _____

4. _____

XI. O‘z-o‘zining faoliyatini baholash (bu erda tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari va metodist o‘z kasbiy faoliyatini jadvalda ko‘rsatilgan quyidagi mezonlar bo‘yicha baholaydi (ustunda, baholash ko‘rsatilgan reproduktiv, samarali, ijodiy so‘iz bilan yoki “+” belgisi bilan belgilanadi)

		Bahosi (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari va metodist)
Darajasi	Kompetensiya	
Reproduktiv (past)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida berilgan namuna bo‘yicha faoliyatini tashkil etadi	
Samarali (o‘rta)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini tashkil etadi va turli ta’lim resurslarini o‘rganadi	
Ijodiy (yuqori)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali	

faoliyatini turli ta'lim resurslaridan
foydalangan holda tashkil etadi.

--

Tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari, metodist

F.I.Sh. _____

Imzo: _____

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy vazifalari haqida tushuntiring?
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining lavozim vazifalarini sanang?
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining tashkiliy vazifalari va uning mazmuni qanday?

5-Ma'ruza mashg'uloti

Mavzu: Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogic o'yinlar va interfaol usullar.

Reja:

1.Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogic o'yinlar va ularning mazmuni

2.Interfaol usullar va ularning mohiyati

3.Maktabgacha ta'limda interfaol usullar va ularan foyalanish afzalliklari

Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi. O'yin texnologiyasi ham o'yin

metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma- ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

- emotsional ta'sir — bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma- ketligini belgilaydi.

O'yin tuzilishiga- maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O'yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqod ishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, nazariy jihatdan o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o'yin texnologiyalarida ham, o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligini bilishi kerak. Bitta mashg'ulotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k. O'yin texnologiyalari (ayniqsa, bog'cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o'yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo'ladi. Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.

2. Hamkorlikka chorlovchi.

3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.

4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.

5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).

6. Bolalar shaxsi strukturasi ijobiy korreksiyalar beruvchi.

7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.

8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsuldor, ijodiy, psixotexnik o'yinlar.

O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rol, hodisalarni tasavvur etuvchi va drammalashtiruvchi o'yinlar.

Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan

o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetli-ishchan, drammalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstruktiv-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash dardkor.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol usul:

1. Pedagogik texnologiyaning ajralmas bir qismi sifatida ta'lim tarbiyaning umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yahlit jarayondir .
2. Ta'lim tarbiya jarayonini takommilashtiruvchi, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj.
3. Didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim tarbiya jarayonini samarali mohorat tarza tashkil etishdur .
4. Yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, yani shaxsni rivojlantirish tarbiyalash shakillantirish uchun xizmat qiladi,

5. Shaxsiylik xususiyatga ega bo'lib muayyan ta'lim tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yorlar talab etilmaydigan jarayon.

Interfaol usullar o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarda quidagi psixologik xususiylarini shakllantirish bilan ajralib turadi, Ya'ni ;

- Fikrlash : - mantiqiy tafakkur ko'rgazmali, tasvirli jarayon asosida rivojlanadi.

- Nutq:- ichki nutqning rivojlanishiga ma'lum tasir etadi.

- Ixtiyoriy bilish jarayoni;- o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy ravishda o'z fikrini jamlashga kirishadi.

- Fiziologik sezgirlik: - individual ravishda aksariyat, xolda past darajada.

- Bilim orttirish obyekti:- predmet va hodisalar o'rtasidagi sabab - oqibatli bog'liqlik .

- Bilim orttirish usuli:- mustaqil faoliyat, kattalar va tengdoshlar bilan bilim orttirish muloqot qilish.

- Muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari:- shaxsiy dunyoqarashning kengligi, xar bir ishda bilimdonlik.

- Muloqot yuritish sharti:- vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqot.

- Tengdoshlari bilan munosabatlar:- hissiy ko'mak manbai.

- His-hayajonlar:- yuqori darajadagi his- tuyg'ularga egalik.

O'yin faoliyati:- o'zini zimmasiga olgan ro'lga muvofiq tutish shakllanadi Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamir bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.

2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rohami to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tahimdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tarbiya jarayonlariga pedagogik texnologiya va interfaol usullarni maqsadli qo'llash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta'lim shakillarini o'ptimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o'stirish va ta'lim samarodirligiga erishishga olib keladi.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogic o'yinlar va ularning mazmunini tushuntiring?
2. Interfaol usullar va ularning mohiyatini izohlang?

3. Maktabgacha ta'limda interfaol usullar va ularan foyalanish afzalliklari haqida gapiring?

6-Ma'ruza mashg'uloti

Mavzu: Milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni tarbiylash. O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.

Reja:


1. Jismoniy sifat tushunchasining mazmun va mohiyati
2. Jismoniy sifatlar va ularning turlari
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlik haqida
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chidamlilikning asosiy mezonlari
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda epchillikning darajalari
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matonat
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuch va uning turlari
8. Maktabgacha yoshdagi bolalarda epchilikning namayon bo'lishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlar.

Jismoniy rivojlanish – kishining har qanday yosh darajasiga bog'liq bo'lgan ma'lum anatomik va fiziologik xususiyatlar bilan tavsiflangan biologik jarayon. Antropologik atamalarda jismoniy rivojlanish tananing jismoniy kuchlarini yetkazib berishni aniqlaydigan morfofunktsional xususiyatlar majmui sifatida tushuniladi. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino insonni jismoniy barkamol qilib shakllantirishda asosiy jismoniy sifatlarni tarbiya qilishni tavsiya etadi.

Jismoniy sifatlar





Kuch- mushaklarning qisqarish turi, hosil boʻlgan tezlashuv va oʻziga xos tezlik bilan yengish uchun qoʻllanilgan qarshilik darajasidir.

Jismoniy tarbiyada kuch turlarini-statik, dinamik, maksimal portlovchi, qarshilik, nisbiy va mutloq deb koʻrsatadi. Ushbu tasnif 4 ta asosiy jihatga qaratilgan: kuchning namoyon boʻlishiga, mushaklarning qisqarish turiga, hosil boʻlgan tezlashuvga va oʻziga xos tezlik bilan yengish qarshiligiga. Kuchning namoyon boʻlishi turli xil omillarga bogʻliq masalan: yoshga, jinsga, tana haroratiga, jismoniy tayyorgarlik darajasiga hamda charchoq holatiga yoki mushak tolalari turlariga bogʻliq.

Epchillik - bu sportning barcha turlarida katta ahamiyat kasb etadigan sifat boʻlib, u ayniqsa, murakkab texnikasi bilan, muttasil oʻzgarib turadigan sharoitlari bilan farq qiluvchi sport turlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha epchillikni asosiy oʻlchov birligi sifatida- harakatning koordinasion murakkabligini, bajarish aniqligini va bajarish vaqtini hisoblab kelgan. Epchillikning uch xil darajasini bir-biridan farqlash mumkin.

Birinchi daraja-fazodagi aniqlik hamda harakatlarning muvofiqlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi daraja-fazodagi aniqlik hamda juda qisqa muddat ichida harakatlarni muvofiqlashtirilgan holda bajarilishi bilan harakterlanadi.

Uchinchi, yaʼni epchillikning oliy darajasi-oʻziga xos sharoitlarida tezkorlik va chaqqonlik namoyon boʻlishi bilan ajralib turadi, shu munosabat bilan mazkur sifatlarni rivojlantirish ustida parallel ishlar olib borish zarurat sanaladi.

Chaqqonlik-maktabgacha yoshdagi boladagi tezlik, [epchillik](#), abjirlik kabi jismoniy sifat belgilarining mujasidir. Bunda bolaning mushak harakatlari va asab tolalari muhim vazifalarni bajaradi. Oʻz navbatida, boʻgʻinlarda suyaklarga

tutashgan paylar, mushak tolalarining mustahkam bo'lishi suyaklarni tutib turishda xizmat qiladi chunki, tez harakat qilishda bo'g'inlarning bo'shashi, cho'zilishi natijasida suyaklar o'z joyidan qo'zg'alishi, chiqib ketishi mumkin. Chaqqonlik sport turlarining barchasida qo'llanuvchi eng muhim jismoniy sifatlardan biridir.

Umuman olganda, jismoniy sifatlarni maktabgacha yoshdagi bolaning turmush sharoiti va ayniqsa, jismoniy harakatlar bilan shug'ullanishidagi eng zarur omillaridan hisoblanadi. Jismoniy sifatlarni shakllantirish va ta'minlashda maxsus jismoniy tayyorgarliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chidamlilik – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda uzoq davom etgan jismoniy mashqlar paytida tananing charchoqqa qarshi turish qobiliyati. Bolada chidamlilikning [rivojlanish darajasi](#), birinchi navbatda, yurak-qon tomir va asab tizimlarining [funksional imkoniyatlari](#), metabolik jarayonlarning darajasi, [shuningdek](#), turli organlar va tizimlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan belgilanadi. Bunda tana funksiyalarini iqtisod qilish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, chidamlilik harakatlarni muvofiqlashtirish [bolaning aqliy](#) va irodaviy xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Chidamlilikning asosiy mezonlari - bu maktabgacha yoshdagi bolaning ma'lum bir faoliyatga nisbatan chidamliligi bevosita va bilvosita usullar yordamida o'lchanadi. Bevosita usulni qo'llash vaqtida boladan biror vazifani bajarish so'raladi va berilgan vazifani intensivlik bilan bajarishi uchun maksimal vaqt ajratiladi. Shu sababli ko'pincha bilvosita usul qo'llaniladi.

Egiluvchanlik-deganda bolada tayanch-harakat apparatining morfo-funksional xususiyatlari tushunilib, bu xususiyatlar shu apparat qismlarining harakatchanligini belgilaydi. Harakatlarning maksimal amplitudasi egiluvchanlikning o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Egiluvchanlikning darajasi bolada mushak va to'qimalarning qayishqoqligiga bog'liq. Mushaklarning elastiklik xususiyatlari ko'p darajada markaziy asab tizimining ta'sirida o'zgarishi mumkin. Egiluvchanlikning namoyon bo'lishi muhitning haroratiga bog'liq: haroratning

ortishi bilan egiluvchanlik ham ortib boradi. Mashg`ulot o`tkazayotganda egiluvchanlik turli sharoitlar ta`sirida o`zgarib borishini e`tiborga olish kerak.

Bolada egiluvchanlikning yomonlashuviga olib boradigan noqulay sharoitlarni badanni qizdirish yordamida bartaraf qilish mumkin. Egiluvchanlik charchash ta`sirida sezilarli ravishda o`zgaradi, jumladan, faol egiluvchanlik ko`rsatkichlari kamayadi, sust egiluvchanlik ko`rsatkichlari esa ortib boradi. Faol egiluvchanlik mushak kuchi bilan bog`liq. Bo`g`imlar harakatchanligini oshirayotganda go`yoki bo`g`imlarda harakatchanlik zahiralarini yaratayotgan bola harakatni kuch va tezlik bilan bajarish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Faol egiluvchanlik-bolaning o`z mushaklari kuchlanishi hisobiga namoyon bo`ladigan holatdir.

Sust egiluvchanlik-gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar - og`irlik va qarshilik kabi kuchlar ta`siri bilan yuzaga chiqadigan egiluvchanlik turidir.

Bola oddiy sharoitlarda anatomik harakatchanlikning faqat nisbatan kichkina qismidan foydalanadi va sust harakatchanlikning doimo ulkan zahirasini asrab qoladi. Yengil atletika, gimnastika, suzish mashg`ulotlari vaqtida bo`g`imlarda harakatchanlikni oshirishga oid mashqlar talab qilinadi, anatomik harakatchanlikdan foydalaniladi. Egiluvchanlik maktabgacha yoshdagi bolada gavdaning oldinga, orqaga, yon tomonlarga engashish darajasi bo`yicha aniqlanadi. Gavdaning oldinga egilish darajasini aniqlash uchun skameykalar ustida turib oyoq tizzalarini bukmasdan oldinga imkon qadar chuqur engashish talab etiladi. Skameykaning chetidan to qo`lning uchinchi barmog`i uchigacha bo`lgan masofa o`lchanadi. Bo`g`imlardagi egiluvchanlikning eng yuqori ko`rsatkichi tarbiyalanuvchilar uchun 10-16 sm bo`lishi norma hisoblanadi.

Matonat- bu bolaning ma`lum bir *jismoniy* ishni imkoni boricha uzoq vaqt davomida yetarli darajadagi jadallikni saqlagan holda bajara olish qobiliyatidir.

Har qaysimiz o`z shaxsimizning qadr-qimmatini o`zimiz zarb qilamiz, inson o`z irodasiga qarab buyuk yoki jo`n bo`ladi. **S. Smayls**

Faqat halol va beg`araz faoliyatdagina insoniy fazilatlar uchun shart-sharoit mujassam, faqat iroda kuchidagina tanlagan sohamizdagi muvaffaqiyatlarimizga shart-sharoit mavjud. **V. G. Belinskiy**

Hech narsa o`z-o`zidan, harakat va irodasiz, qurbon va mehnatsiz yuzaga chiqmaydi. Insoniy iroda, birgina qat`iy odam irodasi ham shu qadar buyukki.....
A. I. Gertsen

Agar inson irodasi sof, maqsad sari fidokorona yo`nalgan va o`zida okean quyunini mujassamlashtira olgan bo`lsa, unday iroda ko`p narsaga qodir, u dahshatli kuchga ega, unga deyarli chegara yo`q. **A. I. Gertsen**

Insondagi nafsoniyat, o`zini qaror toptirish uchun sarflangan iroda taqdir ezib tashlamasligi uchun qarshilik ko`rsatishida unga kuch-quvvat beradi. **E. Telman**

Iroda odamzodning farqli belgisidir, faqat aqlgina irodani boshqarish uchun abadiy qoidadir. **F. Shiller**

Voqealar oqimi bizning dadil irodamizga va harakatimizga bog`liq. **G. Uells**

Jiddiy, teran, haqiqiy iroda ong avvalo maqsadga erishishga ishonch tasavvuri bilan uyg`unlikda ifodalanadi. **I. Gyote**

Bizning shaxsimiz bog` irodamiz esa uning bog`bonidir. **V. Shekspir**

Aql iroda yo`lini yoritadi, iroda esa faoliyatni idora qiladi.
Ya. Komenskiy

Iroda iste`dodga nisbatan ko`proq iftixor qilinsa arziydi va shunday bo`lishi kerak. Agar iste`dod-tabiiy moyilliklarning o`sib-ulg`ayishi bo`lsa, qat`iy iroda esa- irodaga itoat ettirib, uni bostirib turadigan ko`nikmalar, havaslar ustidan, u yengib

o`tdigan to`siq va g`ovlar ustidan, u qahramonona bartaraf qiladigan har qanday qiyinchiliklar ustidan har bir daqiqada qo`lga kiritiladigan g`alabadir.

O. Balzak

Dadillik va iroda tufayli ko`p hollarda aqli zaifroq odamlar aqllilar ustidan g`olib chiqa oladilar. **U. Vert**

To`g`ri xulqli odam-bilim yetishmasligiga qaraganda iroda yetishmasligidan ko`proq azob chekadi. **G. Spenser**

Shunday odamlar borki, ular umidsizlangan yoki asabiylashgan holda, o`z ahvollaridan zavqlanadilar, hatto faxrlanadilar. Bu seni pastga olib ketayotgan ot jilovini qo`yib yuborib, yana uni qamchilashing bilan baravardir. **L. N. Tolstoy**

O`zimizni o`zimizga oqlab ko`rsatish uchun biz ko`p hollarda o`zimizni maqsadga erishish uchun kuchimiz yetmaganday qilib ishontiramiz, aslida biz kuchsiz emas, irodasizmiz. **F. Laroshfuko**

Bizda irodaga qaraganda kuch ko`p, biz aksariyat hollarda o`zimizni o`zimizga begunoh ko`rsatish maqsadida ko`p narsalarni o`zimizning imkoniyatlarimizdan, xoli deb hisoblaymiz. **F. Laroshfuko**

Irodali kishi uchun hech qanday qiyin ish yo`q. **Eram Rotterdamskiy**

Inson nechog`li metin bo`lmasin, dunyoda inson irodasi va tafakkuriga qarshi tura oladigan devor yo`q. **J. Amadu**

Iroda kishi qiyofasi bilan qo`shilgan holda insonni amalda to`g`ri ifodalaydi. **A. V. Lunacharskiy.**

Qaysar odatni yenga olgan irodadan go`zalroq hech narsa yo`q. **R. Rollan.**

O`z ustingdan qozongan g`alabang eng buyuk g`alabadir. **P. Kalderon.**

O`z ustingdan qozongan g`alaba shunday bir yagona tantanaki-undagi muvaffaqiyat beminnatdir. **F. Sheridan.**

Hech narsani hal qilmaydigan iroda haqiqiy iroda emas; irodasiz odam hech qachon bir qarorga kelolmaydi. **G. Gegil.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni asosiy harakat turlari

Bolaning sog`lig`ini mustahkamlash, ularning tana a`zolarini chiniqtirish, asosiy harakat turlarini rivojlantirish, bolalarni tetik tutuvchi, to`liqishlarining oldini oluvchi harakatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish. Barmoqlarining mayda muskullarini rivojlantirish, yurish va harakat qilishning ayrim ko`nikmalarini rivojlantirish.

Emaklash. Kerakli masofaga, o`rindiq va xalqaning tagiga emaklash, 1m. uzunlikdagi zinaga kattalarning yordamida chiqish va undan tushish.

Yurish. Tayanchsiz to`g`ri yo`nalishda yerda yotgan taxtacha ustidan, yo`lkachadan, qiya (10-15 sm yuqoriga ko`tarilgan) taxtachadan yurish, 10sm balandlikdagi sath ustiga chiqish va undan tushish. Pol, yerdagi yoki 5-10sm balandlikda joylashgan arqon, xoda yoki taxtacha ustidan yura bilish.

Yugurish. To`g`ri yo`nalishda yugurish.

Sensomotorikaning rivojlanishi. Uncha katta bo`lmagan tepalikdan ko`ptokni dumalatish, uni oldinga, yuqoriga irg`itish. Qalamni yoki mo`y qalamni ushlab turish, ular bilan (aji-buji) chiziqlar chizish.

Mayda motorika. va undan ortiq qismlardan iborat minoralar qurish, qopcha va qutichaga mayda predmet va o`yinchoqlarni solish va ularning ichidan olish.

Madaniy-gigiyenik malakalar. O`z-o`ziga xizmat qilish, qo`llarini yuvish, cho`milishga ijobiy munosabatda bo`lish, piyoladan choy ichish, mustaqil yuz-qo`llarini yuvish va artish.

Yil oxirida bola. Emaklaydi, yuradi, muvozanat saqlaydi, yuguradi, bolada yirik, sensomotorika va mayda motorika, o`z-o`ziga xizmat qilish malakasi shakllanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida jismoniy rivojlantirish bo`yicha kun

tartibini tuzishda ovqatlanish, chiniqtirish, jismoniy mashq va o'yinlarni tashkil etishda differentsial yondashishga amal qilinadi. Bunda bolalarning o'ziga xos yosh xususiyatlari hisobga olinadi. "Tarbiyachi jismoniy rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiya dasturi talablariga asoslanadi. Shu bilan birga tarbiyachi, shifokor, hamshira bilan kelishilgan holda oilada bolalarni jismoniy tomondan to'g'ri tarbiyalash targ'ib qilinadi. Tarbiyachi ertalabki badantarbiya, jismoniy mashg'ulotlari, o'yinlar, salomatlik kunini tashkil qilish usullarini mukammal bilishi shart. Jismoniy tarbiya bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda guruh tarbiyachisi va musiqa rahbari bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb yetadi. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda hamda bolalarning jismoniy tayyorgarligini tekshirish jarayonida xavfsizlik qoidalariga hamda tozalikka, gigiena talablariga alohida e'tibor qaratiladi. Faoliyatlar asosan maxsus jihozlangan sport zalida va ochiq havoda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishdan bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi. Davomli tashkil etiladigan harakatli o'yinlar bolaning o'sish va rivojlanish jarayonlariga yaxshi ta'sir ko'rsatib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi".

***Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari
quyidagicha belgilanadi:***

- salomatlikni mustahkamlash va chiniqtirish;
- jismoniy jihatdan baquvvat qilish;
- shaxsning axloqiy tomondan ijodiy sifatlarini tarbiyalash;
- bolalarda maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish;
- harakatlarning muhim hayotiy turlarini shakllantirish, yurish, yugurish, sakrash, emaklash, o'rmalash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qo'l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish, saflanish va qayta saflanish;

- o‘yin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish: chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik va boshqalarga tenglashib tik tutish malakasini oshirish;
- bola qomatini to‘g‘ri shakllantirishga ta’sir ko‘rsatish va yassi oyoqlilik kasalligining oldini olishga yordam berish;
- jismoniy mashq va o‘yinlarning foydasi, asosiy gigiyenik talablar va qoidalar haqida yetarli darajada tasavvur va bilimlar berish;
- faol harakatga qiziqishni tarbiyalash.

“Har bir guruh uchun jismoniy tarbiya dasturida kunlik harakat tartibi ko‘rsatib o‘tilgan. Bolalar jismoniy tarbiyaning asosiy harakatlarini muntazam ravishda bajarishlari uchun turli usuldagi mashqlar bor. Bular asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, irg‘itish, ilib olish, emaklash, sirpanish); oyoq va tana uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar (turli buyumlar yordamida va ularsiz) raqs mashqlari, saflanish va qayta saflanish, harakatli o‘yinlar , turli sport o‘yinlarining, muhim xususiyatlarini egallash sport mashqlari, rolikli konkida sayr qilish, velosipedda yurish, suzish va boshqalardan tashkil topadi. Bolalarni xalqimizning eng buyuk an‘analari ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. O‘zbek xalqi boshqa xalqlar kabi o‘zining qadimiy an‘anaviy o‘yinlariga ega. Ular asrlar mobaynida shakllanib va sayqal topib bugungi kungacha yetib keldi. Dasturga zamonaviy harakatli o‘yinlar qatoriga ana shunday o‘zbek xalq milliy o‘yinlari ham kiritildi. Dasturda qomatni to‘g‘ri shakllantiruvchi, harakat sifatlarini rivojlantiruvchi, yassi oyoqlilik kasalligining oldini oluvchi maxsus mashqlar ham tavsiya etiladi. Jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishda ishni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘tkazish juda ahamiyatli. Bolaning to‘g‘ri harakatini ta’minlash maqsadida mashg‘ulotlarni jismoniy mashq va harakatli o‘yinlar bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Faoliyat jarayonlariga tavsiya etilayotgan dastur materiali olib borilayotgan jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlari mustaqil mashqlar va o‘yinlar uchun zamin vazifasini bajaradi. Ta’lim vazifasining asosi, tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish vazifalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida, jismoniy sifatlarni tarkib toptirish, bola organizmida ish qobiliyatining faolligini oshirish orqali amalga

oshiriladi". Bu jarayonda mashg'ulotning asosiy vazifasini ajrata olish kerak, uning mazmunida nazarda tutgan maqsadni inobatga olib, bola tanasining ma'lum qismlariga har tomonlarga ta'sir o'tkazish zarur. Shu sababdan mashg'ulotlar samaradorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog'lash ham muhimdir. Mashg'ulotni rejalashtirishda harakat tartibini va takroriylikni, vazifani to'g'ri taqsimlash va bolalarni uyushtirishning eng aniq va oqilona usullari ko'zda tutiladi. Bunga dastavval, yetarli harakat faolligi va mashg'ulotlarning tizimlilikini ta'minlash orqali erishish kerak. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan inventarlarning borligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg'ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob-havoga muvofiq ravishda tanlanadi. Mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish usullari turlicha bo'lib, ular asosiy harakat va o'yin mashqlari, bir qolipdagi mashg'ulotlardan tortib turli xildagi, ya'ni harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, estafetalar, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Ertalabki badantarbiya, sayrdagi jismoniy mashq va o'yinlarni mashg'ulotlarning o'quv materialiga muvofiqlashtirish muhim. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko'ra, harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o'stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bolalarning mustaqil faoliyat jarayoni pedagogning bevosita rahbarligi ostida bo'ladi. U har bir bolaning o'yin va mashqlarni erkin tanlashiga harakat qiladi. Tarbiyachi harakat faoliyatiga mos jihozni tanlash yo'li bilan bolalarning tashkilotchilik qobiliyatini o'sishiga yordam beradi. Tarbiyachi (maktabgacha ta'lim tashkilotida va oilada amalga oshiriladigan) jismoniy tarbiya jarayonining ketma-ketligi va tizimlilikiga alohida e'tibor qaratadi. U bu ishni rejalashtirayotganda bolaning o'ziga xos individual xususiyatlari, rivojlanishi, salomatligi, jismoniy o'sishi, qiziqishi, qobiliyatlari inobatga olinadi. Harakatning shakllanishiga yordam qilish, bolaning tevarak-atrofga ko'nikishini ta'minlash, gavdaning tik xolatini saqlashga o'rgatish. Bolalarni mustaqil o'yinlarda harakat faolligini nazorat qilishga yordam berish va unga sharoit yaratish. Harakatli o'yinlarni o'ynashga bo'lgan ehtiyojni hosil qilish. O'yin qatnashchilarini pedagogning ko'rsatmasiga taqlid qilgan holda harakatni tushunib, jamoada harakat

qilishga, o'z harakatini boshqalar harakati bilan taqqoslashga o'rgatish. Harakat yo'nalishini o'zgartirish, yurish va yugurish jarayonida faoliyat harakterini signalga bog'lab olib borish.

Bolalarni joyidan uzoqqa sakrash, ikki oyoqlab yumshoq yerga tushishga o'rgatish. Bolalarni emaklash, tirmashib chiqish va to'p bilan harakat qilish bo'yicha mashq qildirish. Bu mashqlar bajarilayotganda bolalarning gavdani to'g'ri va tovonni mustahkamlab tutishiga e'tibor berish. Bolalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga, shuningdek, ertalabki gimnastikaga ijobiy emotsional munosabatni uyg'otish. Tarbiyachi tomonidan tashkil qilingan o'yin mashqlari, harakatli o'yinlarda faol ishtirok etish. Tayyorlangan predmet va o'yinchoqlardan mustaqil ravishda tashkil etilgan o'yinlarda harakat faolligini oshirishga o'rgatish.

Asosiy harakatlarga doir mashqlar

Yurish mashqlari. Tarbiyachi ketidan belgilangan yo'nalishda to'p-to'p bo'lib yurish, yo'nalishni o'zgartirib yurish, predmetni oralab o'tish, doira bo'ylab juft-juft bo'lib, qo'l ushlab yurish. Yurishdan yugurishga, yugurishdan yurishga o'tish. Oldinga va yonga qadam tashlab yurish.

Yugurish uchun mashqlar. Tarbiyachi orqasidan yugurib o'tish, undan qochish, har tomonga bir-birlarini itarmasdan yugurish. Dumalab borayotgan predmetni quvib yetish, ikki chiziq oralig'ida ularni bosmasdan yugurish, 30-40 soniya davomida to'xtamasdan yugurish. 80 metr gacha bo'lgan masofani sekin yugurib o'tish.

Sakrash uchun mashqlar. Ikki oyoqlab turgan joyida sakrash, sekin-asta oldinga surilish, bola qo'lidan yuqoriroq qilib osilgan predmetga tegishga harakat qilish. Chiziqchadan yoki polga parallel holda ikki qator qilib tashlab qo'yilgan arqonchadan (20-25sm. kengligida) xatlash. Turgan joyida ikki oyoqda, iloji boricha uzoqqa sakrash, 20-30 sm. balandlikdagi predmetdan sakrash.

Dumalatish, irg'itish va ilib olish mashqlari. Predmetlarni yig'ish, ma'lum joyga qo'yish. Dumalab borayotgan predmet orqasidan surilgan holda to'pni bir qo'llab va ikkala qo'l bilan tarbiyachiga qaratib, qiyalatib va bir-biriga qaratib dumalatish. To'pni ikki qo'llab oldinga pastdan, ko'krak oldidan, boshdan

oshib otish. Tarbiyachiga to'pni ikki qo'llab irg'itish, tarbiyachi otgan 50-100 sm. oraliqdagi to'pni ilib olishga harakat qilish. Bola ko'kragi barobar qilib tortilgan lentadan to'pni otib tushurish. Predmetlarni irg'itish (to'plar, qum xaltachalar va boshqalar gorizontol nishonga (100-120 sm. masofaga) ikki qo'llab, o'ng va chap qo'l bilan irg'itish ; uzunasiga chap qo'l bilan o'ngga irg'itish.

Emaklash va tirmashib chiqish uchun mashqlar. 3-4 mga emaklash, 25-30smli to'siq tagidan o'tish, polda yotgan holda ustidan oshib o'tish. Arqonli narvoncha, gimnastika devorchasidan bolaga qulay bo'lgan usul bo'yicha yuqoriga tirmashib chiqish va pastga tushish.

Muvozanat saqlash uchun mashqlar. To'g'ri yurish, ilon izi yo'lakchadan, to'g'ri, ilon izi, doira bo'ylab tashlab qo'yilgan arqonchadan, bir tomoni poldan ko'tarib qo'yilgan taxtachadan, gimnastika o'rindig'i ustida yurish. Usti silliqlangan taxta bo'ylab, gimnastika o'rindig'i ustida emaklab yurish. 10-15 sm balandlikdagi to'siqlardan: xalqadan - xalqaga, yashikdan - yashikka sakrab o'tish, taburetk (25 sm balandlikdagi), o'rindiq ustiga chiqish, qo'llarni ikki yonga uzatgan holda turish. Oyoq uchida ko'tarilish va yana dastlabki holatga qaytish. Turgan joyida asta-sekin aylanish.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar: Qo'l va yelka o'mrov muskullari uchun mashqlar, qo'llarni yuqoriga ko'tarish, yuqoriga va yonga bukish va cho'zish, ko'krak oldida chalishtirish va yonga uzatish qo'llarni orqaga yashirish, chapak chalish, bosh ustida chapak chalish, qo'llarni oldinga va orqaga siltash (qo'llar pastda), pastga-yuqoriga (qo'llar yon holatda), qo'llarni bosh ustida va oldinga silkitish. Shuningdek, mashqlarni turli xil predmetlar (shaqildoqlar, kubiklar, lentachalar, ro'molchalar) bilan turlicha holatlarda bajarish.

Oyoqlar uchun mashqlar. Turgan joyida yurish, oldinga, yonga, orqaga qadam tashlash. Oyoq uchida ko'tarilish, oyoqni oldinga qo'yib, tovon bilan turish, oyoq barmoqlarini qimirlatish.

Gavdani rivojlantiruvchi mashqlar. O'ng va chapga o'girilish, qo'llarni yengil silkitgan holda predmet yonida turgan bolaga uzatish. Oldinga va turli tomonga engashish. Polda o'tirgan holda oyoqlarni bukish va yozish. Chalqancha

yotgan holda oyoqlarni yuqoriga ko'tarish va tushirish, qo'llar va oyoqlarni bir vaqtda birgalikda qimirlatish. Tizzalab o'tirib, tovonda o'tirish va turish. Qorin bilan yotgan holda qo'llarni va oyoqlarni ko'tarish, yonboshdan-yonboshga ag'darilish.

Saflanish va qayta saflanish. Tarbiyachi yordamida guruhlar va butun guruh bilan aylana bo'ylab saflanish, juft-juft bo'lib saflanish, bir-birining ketidan turish.

Asosiy harakat turi orqali o'ynaladigan harakatli o'yinlar

Yurish va yugurishga oid o'yinlar : "Qo'g'irchoqlarnikiga mehmonga", "Yo'lakchadan", "Kim sekin", "Tayoqchadan hatlab o't", "Meni quvib yeting", "Chumchuqchalar va avtomobil", "Poezd", "Samolyotlar", "Pufak", "Quyosh va yomg'ir", "Buyumni olib kel", "Qushlar uchmoqda".

Emaklab o'ynaladigan o'yinlar : "Shaqildoqqacha emaklab bor", "Darvozaga tushir", "Chiziqni bosma", "Ehtiyot bo'l", "Maymunchalar".

To'pni otish va ilib olish o'yinlari: "To'pni o'rtaga tashla", "To'pni ilib ol", "Darvozachaga tushir", "To'g'ri mo'ljal ol".

Sakrab o'ynaydigan o'yinlar: "Mening quvnoq ko'ptogim", "Oq quyoncha o'tiribdi", "Qushchalar uchmoqdalar", "Ariqchadan hatlab o't".

Ochiq joyda mo'ljal olish o'yinlari: "Qayerda chalinayapti", "Bayroqchani top"

Turli harakat va qo'shiq bilan o'ynaladigan o'yinlar : bir-biriga halaqit bermasdan yurish va yugurish; ikki oyoqlab joyida sakrash va oldinga siljib sakrash, to'pni olish, ushlab turish, bir joydan ikkinchi joyga olib o'tkazish, joyiga solib qo'yish, dumalatish, irg'itib, emaklash, tortilgan arqoncha tagidan emaklab o'tish, yerda yotgan xodacha ustidan o'tish.

Chiniqtirish va sog'lomlashtirish uchun bajariladigan faoliyatlar

Ertalabki badantarbiya. Har kuni ertalab badantarbiya qilish, harakatlarni namunaga muvofiq bajarish. Badantarbiyani ochiq havoda, yengil kiyimda bajarish. Ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida).

Chiniqtirish. Yozda ochiq havoda iloji boricha ko‘proq bo‘lish. Kattalar nazorati ostida kichik ochiq suv havzasida (basseynida) cho‘milish (gigiena talablariga amal qilgan holda).

Qomatni to‘g‘ri tutish. Kattalarning nazorati ostida jismoniy mashqlarni muntazam bajarish. To‘g‘ri qomatni shakllantirish, yassitovonlilikning oldini olishga imkon beradigan mushaklar guruhini shakllantirish.

Harakatlantiruvchi tartib. Har kungi sayrlarda ishtirok etish. Harakatli o‘yinlarda o‘yinchoqlar va jismoniy mashqlarda sport anjomlari bilan faol ishtirok etishga harakat qilish. Bola harakatlarining shakllanishiga yordam berish, gavdasini tik tutishga o‘rgatish. Bolalarni mustaqil o‘ynayotgan paytlaridagi harakatlari faolligining barqarorlashuviga yordam berish. Tarbiyachi tomonidan ko‘rsatilayotgan turli harakatlarga bolaning tushunib borishiga va birgalikda harakat qilishga undash. Shu bilan birga bola diqqatini atrofdagilar harakatiga qaratish. Bolalarni turgan joyda sakrashga ikki oyoqni juftlab sakrashga va yengil tushishga o‘rgatish. Emaklashga, tirmashib chiqishga to‘p bilan harakat qilishga, dumalatish, uloqtirishga o‘rgatish. Bolalarda ertalabki badantarbiyaga nisbatan qiziqish, ijobiy munosabatlarni uyg‘otish o‘yinlarda ishtirok etishga o‘rgatish.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida didaktik va harakatli o‘yinlarning ahamiyati qanday?
2. Bolaning an‘anaviy o‘yinlar orqali rivojlanishiga fikr bildiring.
3. Aqliy rivojlanish haqida ma‘lumot bering.

7-Ma’ruza mashg’uloti

Mavzu: Bolalarni erkin o‘yinlarini tashkil etish. Maktabgacha ta’lim tashkilotida syujetli rolli o‘yinlar.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi”ni ahamiyati.

2. Guruhlarda “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi”ni tashkil qilish.

3. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazining maqsadlari.

Tayanch so‘zlar: Syujetli-rolli o‘yin, sahnalashtirish, teatr, aktyorlik, “Men” konsepsiyasi, bolalar, tarbiyachi, o‘yin, muloqot.

“Syujetli–rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” markazi – Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishiga, o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. O‘yinlarda oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni mavjud.


Rolli o‘yin - bu bolalar uchun mashg‘ulot shartli vaziyatlarda ular u yoki bu faoliyat sohasini qayta yaratadilar va muhim ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish uchun kattalar o‘rtasidagi muloqot va rasmiy va norasmiy muloqot qobiliyatlarini shakllantirish. Bola maktabgacha yoshdagi ustalar ichki tartibga solish vositalari kommunikativ harakatlar, madaniy xulq-atvorni o‘zlashtirish, sezish boshqalarning xatti-harakati, ehtimolni tasavvur qilish kommunikativ vaziyatlar.

Rol syujetni amalga oshiruvchi va syujet-rolning asosiy elementidir o‘yinlar. Bola uchun rol uning o‘yin pozitsiyasidir. Maktabgacha yoshdagi bola o‘zini o‘yin xarakteriga bog‘laydi va xulq-atvorga muvofiq harakat qiladi.

Rolli o‘yinlarda bolalarning quyidagi kommunikativ rivojlanishiga qaratiladi:

- hissiy sezgirlikni, empatiyani shakllantirish;
- tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga tayyorlik;
- qoidalar, umume’tirof etilgan me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish;
- hurmat va tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirish;
- oila, maktabgacha ta’lim tashkilotiguruhi, kattalar va tengdoshlar;
- muloqotni rivojlantirish, o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini shakllantirish
- kattalar va tengdoshlari bilan maktabgacha yoshdagi bola;

- mustaqillikni, o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirish va ularning harakatlarini yo'naltirish.



Rolli o'yinlarda faol o'zaro ta'sir o'tkazish, kollektiv tengdoshlari bilan mashg'ulotlar, bolalar birlamchi ijtimoiy o'rganish normalar va qoidalar. O'yin maktabgacha tarbiyachiga nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish;
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2-bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illyustrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari.

3-bosqich. o'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4-bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiali,
- so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili hisoblanadi.

5-bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish, mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish,

o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;

- kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'lag'onli yordam berish; - bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

Syujetli – rolli o'yin faoliyati asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Shu munosabat bilan rolli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolaning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish samarali usuldir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida syujetli-rolli o'yinlar o'yinning yetakchi shakldir. Bu faoliyat bolalar hayotini tashkil etish shakli, keng qamrovli vosita rivojlanish bo'lib, syujetli-rolli o'yinlar' – bu bolaning faol ijodiy fikrlash shakli, atrofdagi haqiqat, uning ob'ektlari va hodisalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rolli o'yinlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi hodisalar haqidagi aniq bilimlarni o'zlashtirishlariga bevosita bog'liqlikda atrofdagi hayotdir. Syujetli-rolli o'yin bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning mazmunini aks ettiradi, dunyo, unda mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlar va qoidalar. Bolalar ular bajaradigan rol bilan bog'liq his-tuyg'ularni chin dildan boshdan kechirish: onaning iliqligi va

muloyimligi, otaning oilaga g'amxo'rligi, tarbiyachining qattiqqo'lligi, haydovchi yoki shifokorning mas'uliyati, sataroshning nafisligi va boshqalar.

Maktabgacha ta'limda tarbiyachi o'yinga fantastika va fantaziyani olib keladi, shuning uchun o'yinda voqelik va fantastika o'zaro bog'langan. Bolalar bir vaqtning o'zida o'ynashadi, dramaturglar, rejissyorlar, dekoratorlar va aktyorlar rolini bajaradilar. Shunday qilib, olingan ma'lumotlar o'yin mazmuni manbasiga aylanadi va bolaning aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi, bu zarur o'yin



tarbiyachidan doimiy, maqsadli rahbarlik faoliyati, o'yinlarga shaxsiy qiziqishi, istagi bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.

Rolli o'yin uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tadi, kichik maktabgacha yoshdan boshlab katta maktabgacha yoshda rolli va yonma-yon o'yinlar uzoq muddatliga aylanib, o'zining eng yuqori rivojlanishiga erishadi batafsil syujetli jamoali ijodiy o'yinga aylanadi.

O'yin nafaqat bolaning xatti-harakatlarini, balki uning xatti-harakatlarini ham tartibga solidi, ichki hayot, o'zingizni, dunyoga bo'lgan munosabatingizni tushunishga yordam beradi.

Bola o'zini nazorat qilishni va o'zini baholashni o'rganadi, u ekanligini tushunadi va to'g'ri harakat qilishni o'rganadi. Bu mustaqil harakatlarni tartibga solish uni ongli sub'ektga aylantiradi.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotini jihozlashda uning real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining aniq tushunishlariga, shuningdek, ularni ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar bilan birgalikdagi faoliyat bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barcha materiallar bolalarning yosh imkoniyatlariga mos kelishi kerakligini esga tutish kerak.

№	Markaz nomi	Jihoz va materiallar
1	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	<i>“Oila” o'yinini o'ynash uchun:</i> • chaqaloq qo'g'irchoqlar va ular uchun aksessuarlar (ko'rpa, so'rg'ich, shisha idish va boshqalar); • kiyimli qo'g'irchoqlar (o'g'il bola va qiz bola); • bolaning bo'yiga mos bo'lgan qo'g'irchoq mebellari: stol stullari bilan, o'yinchoq plita, muzlatgich, qo'g'irchoq uchun karavot, javon; qo'shimcha ravishda: qo'g'irchoqlar uchun yumshoq mebel (divan yoki kreslo); • aravachalar; • qo'g'irchoqlar uchun kiyimlar (qish va yoz uchun); • qo'g'irchoq idishlari (kastryulka va tovalar, likopchalar, piyolalar, qoshiqlar va boshqalar), o'yinchoq ovqatlar. <i>Kasb bilan bog'liq o'yinlar uchun to'plam va aksessuarlar:</i> • "Shifokor" • "Sartarosh" • "O't o'chiruvchi" • "Militsiya xodimi" • "Sotuvchi" <i>Sahnalashtirilgan o'yinlar uchun jihozlar (teatrlashtirilgan tomoshalar):</i>

	• buklanadigan katta yoki kichik to‘sinli parda; • kostyumlar uchun ilgich; • bolalar yoshiga mos keladigan ikki yoki uchta ertakni sahnalashtirish (aktyorlik qilish) uchun liboslar, niqoblar, atributlar; • kostyum elementlarini kiyish uchun atributlar (shlyapalar, sharflar, yubkalar, sumkalar, soyabonlar, munchoqlar va boshqalar); • imitatsiya va doiraviy raqs o‘yinlari mazmuniga muvofiq atributlar: yovvoyi va uy hayvonlarining niqoblari (kattalari va bolalariniki), ertak qahramonlari niqoblari. <i>Teatr tomoshalarining kichik shakllari uchun jihozlar (qo‘g‘irchoq teatri va boshqalar):</i> • stol teatri uchun katta yoki kichik to‘sinli parda; • tayyor o‘yinchoqlarning atributlari va to‘plamlari (kichik va o‘rta o‘lchamdagi shakllar) yoki stol teatri manzarasi elementlari sifatida hajmli va yassi o‘yinchoqlar ishlab chiqarish uchun yarim tayyor mahsulotlar; • kattalar yoki bolalar qo‘liga mutanosib bo‘lgan atributlar (qo‘lqopli yoki barmoqli) va bibabo qo‘g‘irchoqlari to‘plami (bolalarga ko‘rsatish uchun)
--	--

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rolli o‘yinlarni o‘ynashi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- materiallarning xavfsizligi;
- o‘yinlar va o‘yinchoqlar bolalarning yoshiga mos kelishi;
- o‘yinlar va o‘yinchoqlarni tanlashda gender rolining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- materiallar va jihozlarning estetikasi.

Rolli o'yinlarni shakllantirishning pedagogik shartlari: bolani real dunyo bilan tanishtirish, maktabgacha kichik yoshdan Syujetli-rolli o'yin ko'nikmalarini egallash va hokazolar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonlarida shart-sharoitlarni yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta'lim shakllarini o'ptimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o'stirish va ta'lim samarodirligiga erishishga olib keladi.

Nazorat savollari:

1. “Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi”ni tashkil etishda qanday material va jihozlar bo'lishi kerak?
2. “Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish”ga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rolli o'yinlarni o'ynashi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

8-Ma'ruza mashg'uloti

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida qoidali o'yinlar va ularning turlari.
O'yinning bola hayotidagi o'rni va o'ziga xosligi.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qoidali o'yinlar va ularning mazmuni
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qoidali o'yinlar va ularning turlari.
3. O'yinning bola hayotidagi o'rni va o'ziga xosligi.

Qoidali o'yinlar – bu oldindan belgilangan qoidalar, qonun-qoidalar, tasvir va harakatlar majmuidan iborat bo'lib, bolalarning o'zini tutishi, faolligi va boshqa bolalar bilan hamkorligini tartibga soluvchi ijtimoiy xatti-harakatlar shaklidir.

Ijtimoiy rivojlanish: Qoidali o'yinlar bolalarda jamoa bo'lib ishlash, o'zaro hurmat, hamdardlik, vaqtga rioya qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Aqliy rivojlanish: O'yin qoidalarini tushunish va ularga rioya qilish bolaning xotirasi, diqqati, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Jismoniy rivojlanish: Ko'pgina qoidali o'yinlar harakatni talab qiladi, bu esa bolaning jismoniy salomatligi, koordinatsiyasi va chidamliligini oshiradi.

Qoidali o'yinlarning tasnifi

Qoidali o'yinlarni tasniflashning bir necha usuli mavjud:

Maqsadi bo'yicha:

Jismoniy o'yinlar: Harakatni rivojlantirishga qaratilgan (masalan, "To'p bilan o'ynash", "Cho'pqir-cho'pqir").

Aqliy o'yinlar: Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan (masalan, "Kim tez topadi?", "To'g'ri juftlikni top").

Ijtimoiy o'yinlar: Bola shaxsiyatini shakllantirishga qaratilgan (masalan, "Do'konda", "Shifoxonada").

Mavzusi bo'yicha:

Hayvonlar haqidagi o'yinlar: Hayvonlarning harakatlarini takrorlashga asoslangan.

Kishilarning ishi haqidagi o'yinlar: Turli kasb egalarining harakatlarini takrorlashga qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi haqidagi o'yinlar: Mehnat faoliyatini tasvirlashga qaratilgan.

Qoidali o'yinlarni tashkil etish usullari

O'yinni tayyorlash: O'yinning qoidalarini va uni o'tkazish joyini to'g'ri tanlash.

Bolalarni qiziqtirish: Bolalarga o'yinning qiziqarli qismini tushuntirib berish va ularning ishtirokini rag'batlantirish.

Qoidalarni tushuntirish: O'yin qoidalarini sodda va tushunarli tilda tushuntirish, bolalarning savollariga javob berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli

o'yinlarning ta'siri

Ma'lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o'z ifodasini topadi. Pedagogika amaliyotida predmetlar bilan syujetli, harakatli va didaktik o'yinlar farqlanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega, harakatli o'yinlar kichik, o'rta va katta harakatchanlik darajasiga ega bo'lishi mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tabiiy harakatlarni o'yinlar yordamida o'zlashtiradilar (qadamlab yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish).

Harakatli o'yinlar bugungi kunda bolalarni jismonan barkamol inson bo'lishining eng muhim vositalari hisoblanadi. O'yinlardan ikki yoshdan boshlab foydalanish joiz. Bu vaqtda bolalar yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi hayot uchun zarur harakat ko'nikmalarini o'zlashtira boshlaydilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo'llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlar bobida musobaqalashar ekanlar, o'z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo'ladilar. Jismoniy rivojlanishdan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, jur'at kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradilar.". Bolalar o'zlarining harakatiga bo'lgan ulkan ehtiyojlarini, odatda, o'yinlar vositasida qondirishga urinadilar. Ular uchun o'yin-birinchi navbatda, faoliyat, harakat hisoblanadi. Harakatli o'yinlar chog'ida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va mustaqillik, ishonch va qat'iyat kabi sifatleri rivojlanadi. Ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, hatto ayrim qoidalarga rioya qilishni (dastlab, albatta, sodda shaklda) o'rganadilar. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar, odatda, juda ta'sirchan, emotsional holatlari noturg'un: ular serharakat bo'ladilar, lekin bir turli harakatlardan tez charchaydilar, tanafussiz uzoq vaqt yura (yugura) olmaydilar. Shuning uchun o'ta faol bolalarni nazorat qilib turish: qo'llarida birmuncha sust sur'atli o'yinlarga tortish kerak. Asta-sekin o'yinlarning mazmuni ham o'zgarib boradi. Bolalar dastavval kattalarning ko'rsatmalari bilan harakatlarni bajaradilar: Misol uchun: tovuq yoki qushchani tasvirlaydilar "don cho'qiydilar", "uchadilar". Uch yoshda bolalar kattalarning harakatlariga taqlid qilishdan turli "tasviriy" yoki

rollar bo'yicha bo'ladigan o'yinlarga o'tadilar: ular "xola –xola" o'ynaydilar, shifokor, sotuvchi, haydovchi, oshpaz va boshqalarni tasvirlaydilar. Bolalar o'zlariga tanish harakatlarnigina emas, ko'rganlarini faol ravishda takrorlaydilar. O'yin uzoqroq davom etadi, uning syujeti ilma-xil va tushunarliroq bo'lib boradi. Keyinroq o'yin yanada murakkablashadi: unda uchta rol paydo bo'ladi, Misol uchun bir bola qo'yni, ikkinchisi-bo'rini, uchinchisi-cho'ponni tasvirlaydi. Har xil o'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mustaqil xarakatli o'yinlar juda foydali; bolalarni ikkita, uchtdan guruxlash mumkin.

Bolaning harakatlari asosan o'yinchoq turlari bilan belgilanadi: Misol uchun, bayroqchalar, halqalar bilan yugurish, mashinalarni yurgizish, koptoklarni dumalatish, otish, ilib olish kerak. Bolalar bunday o'yinchoqlar bilan qiziqib shug'ullanadilar. Biror mustaqil o'yinlarda bolalar darhol faollik va tashabbuskorlikni ko'rsata olmaydilar, ularning harakatlari biryoqlama va chegaralangan. Ammo kattalarning topshirig'ini bajarish bilan aloqador o'yinlarda bolalarning harakatlari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, ular harakatlarni bir necha bor takrorlab, harakat ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, chaqqonlik, epchillikni rivojlantiradilar. Bolalar hatto o'zlari o'yin bilan band bo'lgan paytlarida ham ularga rahbarlik qilib turish juda muhim. Ulardan ba'zilarining o'yinini murakkablashtirish, boshqalariga boshlagan ishini oxiriga yetkazishini o'rgatish, uchinchisi agar jimgina o'ynayotgan bo'lsa, gaplashib turish maqsadga muvofiq. To'g'ri harakatlarga o'rgatishning butun jarayoni bolalarda estetik hislarni tarbiyalaydi. Bolalar bosqichma-bosqich egallab boradigan asosiy harakatlar, aniq saflanish, ularning yoshiga xos o'yin obrazlarining ijodiy ifodaliligi, o'yinlarda she'riy matnlar, o'yin boshlanmalari, sanashmachoqlar bularning hammasi bolalarda estetik didni tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladi. Bolalar va tarbiyachilarning kiyimlari, jismoniy tarbiya zallari va boshqalarning tashqi bezatilishi katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etish bolalarni ular kuchi yetadigan mehnat harakatlarida mashq qildirish imkonini beradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan jismoniy tarbiya jihozlarini o'zlari tartibli va toza saqlashlarini (ixcham o'ralgan bayroqchalar, dazmollangan lenta, ro'molchalar va

h.k.) muntazam talab qilib turadi. Bu haqida birinchi navbatda navbatchilar qayg'uradilar va zarur buyumlarni avaylab joylashtiradilar. Shu bilan birga ular barcha bolalar foydalanishlari qulay bo'lishi uchun predmet va inventarlarning joylashish tartibini ham e'tiborda tutadilar. Bolalar sharlar, to'plar va hokazolarni vaqti-vaqti bilan yuvib, yirik jihozlarni artib turadilar. Bunday tadbirda barcha tarbiyalanuvchilar tarbiyachi rahbarligida ishtirok etadilar. Shunday qilib, harakatlarga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy qobiliyat, axloqiy va estetik tuyg'ular rivojlanadi, o'z faoliyatiga ongli munosabat va shu bilan aloqador ravishda maqsadga intilish, uyushqoqlik shakllanadi. Bularning hammasi o'zaro aloqadorlikda ta'lim jarayoniga umumiy yondashishni amalga oshirilishi hisoblanadi. Mazkur jarayon har tomonlama rivojlangan shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar asosiy harakat sifatlarining rivojlanish darajasi bobida o'g'il bolalarning qizlarga nisbatan ustunligi haqida fikr yuritib, bolalarga jismoniy tarbiya jarayonida tabaqalashtirib yondashish kerakligini aytadi (Ts.V.Kakabadze, Z.I.Kuznetsova, A.E.Lyubomirskiy)boshqalari esa 7yoshgacha o'g'il bolalar va qizlarning jismoniy sifatleri rivojlanish darajasidagi farq u qadar jiddiy emas, uni jismoniy tarbiya vositalarini tanlashda e'tiborga olish shart emas, deb hisoblaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasiga ularning jinsidan kelib chiqib turlicha yondashish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadilar. Ko'plab mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarda alohida harakat sifatlarining yuzaga chiqish darajasida muayyan ritm borligini aniqlaganlar. Harakatlarning eng yuqori darajadagi muvofiqligi kunning birinchi yarmida kuzatilgan. Mushaklarning ishchanlik qobiliyati bahorda ortib iyun oylariga kelib maksimal darajagacha etadi,shu paytda jismoniy rivojlanish darajasi oshib boradi (K.V.Smirnov, 1980). Bunday qonuniyat Rossiyaning barcha iqlimiy mintaqalari uchun xosdir. Olimlar noqulay iqlim sharoitlari bolalarning jismoniy sifatleri rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatishini qayd etadilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning alohida harakat qobiliyatlari rivojiga sensitiv davrlarni e'tiborga olgan holda aktsentli ta'sir ko'rsatishning ulkan

imkoniyatlari tajriba yordamida tasdiqlangan . Bu qobiliyatlar shu yosh uchun etakchi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular faqat darajani ko'tarishgagina imkon bermay, boshqalarining to'laqonli, har tomonlama shakllanishini ta'minlaydi (N.A.Notkina, 1980). Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda chidamlilikni tarbiyalashda jismoniy yuklarning tuzilishini tatbiq etar ekan, I.G.Maltseva (1988) olti yoshda bir tomondan chidamlilik bilan jismoniy ishchanlik qobiliyati orasida, ikkinchi tomondan tezkorlik, tezlik-kuch sifatlari va chaqqonlik orasida aloqadorlik hamda o'zaro bir-birini taqozo etish munosabatlari bor ekanligini, ular ko'p hollarda juda ahamiyatli ekanligini aniqladi. Buni, ehtimol, alohida harakat qobiliyatlarining rivojlanish jarayonidagi o'zaro aloqadorligi asosida yotuvchi turli mashqlar va harakatlarni bajarish vaqtida ro'y beradigan inson organizmidagi o'zgarishlar umumiyliги bilan tushuntirish mumkindir deydi (V.S.Farfel, 1957; B.V.Sermeev, 1973; V.M.Zatsiorskiy, 1976; B.V.Sermeev, V.R.Nikolaev, 1979; V.S.Pereverzev, 1985 va h.k.) kabi olimlar. 7 yoshga kelib, jismoniy qobiliyatlarning tarkib topishida miqdorning va bog'liqlik darajasining pasayishiga moyillik kuzatiladi. Kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlikni faol tarkib toptirishni bu davrda jismoniy faoliyat jarayonidagi eng muhim maqsadlardan biri sifatida qaraladi, chunki bu yosh davrida bolalar asosan murakkab harakat faoliyatlarini bajarish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Asosiy harakat turlari bo'yicha ko'nikmalarining tarkib topishi tezligi va mustahkamligi dastavval jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan aloqadordir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati

O'yin bolalar faoliyatining shunday turlaridan biriki, u kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni predmetlar bilan turli harakatlarni amalga oshirish, muloqotning usul va vositalariga o'rgatish orqali tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi. O'yin davomida bola shaxs sifatida rivojlanadi, bolaning o'quv va tarbiyaviy faoliyati, uning kishilarga bo'lgan munosabatining muvaffaqiyati undagi ruhiy jihatlar rivojiga aloqador bo'ladi. O'yin texnologiyalarida muhim rol yakuniy o'tmishga qaratilgan muhokamaga tegishli bo'lib, unda bolalar o'yinning borishi va

natijasini, o'yin modeli va voqelikni, shuningdek o'quv-o'yin o'zaro faoliyatining borishini birgalikda tahlil etadi. O'yin yaqin rivojlanish zonasini ta'minlovchi, bolaning psixologik ko'rinishini shakllanishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi faoliyat bo'lishi kerak.

O'yin mashg'ulotlari psixologik rivojlanish

tizimining asosiy vazifalari:

❖ *Bolalarda muhokama etilayotgan vazifa yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga, o'z takliflarini kiritishga bo'lgan istakni shakllantirish.*

❖ *Bolalarni muhokama etilayotgan mavzuga doir o'z shaxsiy tajribasi orqali yoki boshqa kishilar tajribasidan ma'lum dalillarni yodga tushurishga, shuningdek improvizatsiya (fantaziya etishga) etishga, gaplarni qurishga o'rgatish.*

❖ *Bolalarni o'zaro bir-birini tinglashga va bir-biridan olgan dalillardan foydalanishga o'rgatish.*

❖ *Bolalarni ahloqiy baholarga tayangan holda shaxsiy qarorlarni tanlashga o'rgatish.*

Tuzilgan o'yin muammolariga javoblarni topish ijtimoiy malakani talab etib, bolalarni real hayotda ham bilish faolligini oshiradi. O'yin davomida erishilgan bola ruhiy rivojlanishidagi siljish, uning mashg'ulotlarda tizimli ta'lim olishi imkoniyatiga sezilarli ta'sir etib, uning tengdoshlari va kattalar doirasida aniq pozitsiyasining takomillashishiga ko'maklashadi. O'yinning rivojlantiruvchi ahamiyati nafaqat bolalarning har tomonlama rivojlanish imkoniyatini amalga oshirishdan, balki u bolalarning qiziqish doiralarini kengayishiga, bilim olishga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishiga ko'maklashadi. O'yinning diagnostik roli ham katta. U bolaning ko'pgina shaxsiy sifatlarining rivojlanish darajasini, uning bolalar jamoasidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi bolalarda mustaqil, ketma-ketlikdagi o'yinning borishini tormozlovchi ko'pgina sabablar orasida, birinchi navbatda asosiysini, bosh miya qobig'ining integrativ faoliyatining rivojlanmaganligini ko'rsatish kerak. Bola rivojlanishi uchun kerak bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarning bor emasligi ham o'yin faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. O'yin davomida bolalar jamoaviy tafakkurlashning ilk

tajribalarini egallashlari isbotlangan. Olimlarning fikricha, bolalar o'yini kattalarning mehnat va ijtimoiy faoliyatining aksi sifatida paydo bo'lgan. Biroq ma'lumki, o'ynay olish kundalik hayotda egallanganlarni o'yinga avtomatik tarzda ko'chirish yo'li bilan amalga oshmaydi. Bolalarni o'yinga o'rgatish kerak. Jamiyat tomonidan o'z madaniyatini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazishning muvaffaqiyati kattalar tomonidan bolalarga taklif etiladigan o'yinlarga qanday mazmun berilishiga aloqador. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajribaning samarali o'zlashtirilishi faqatgina bolaning faoliyati jarayonida, uning shaxsiy faolligi sharoitidagina amalga oshadi. Agarda tarbiyachi tajribani o'zlashtirishning faol harakterini inobatga olmasa, o'yinga o'rgatish va o'yinni nazorat qilishning eng mukammal uslubiy usullari o'zining amaliy maqsadiga erishmaydi. O'yin orqali har tomonlama tarbiyalash vazifalari har bir yosh davrida o'yin faoliyatining psixologik asosining shakllanganligi sharti bilangina muvaffaqiyatli amalga oshadi. O'yin davomida idrok, tafakkur, xotira, nutq, ya'ni shunday fundamental ruhiy jarayonlar shakllanadiki, ularning yetarlicha rivojlanmaganligida shaxsning har tomonlama tarbiyasi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Bola tafakkurining rivojlanish darajasi uning faoliyat harakterini, uni amalga oshirishning intellektual darajasini belgilaydi.

Tarbiyachi bolalarning har qanday faoliyati ma'lum vazifani hal etishga qaratilganini yodda tutishi kerak. Asosiy vazifa ko'pgina oraliq vazifalarga ega, ularning hal etilishi sharoitlarni yaxshilashga va shu orqali belgilangan maqsadga erishishni yengillashtirishga imkon beradi. Bola hal etishi kerak bo'lgan amaliy vazifalar o'quv vazifalaridan farq qiladi. O'yin vazifalarining mazmuni hayotning o'zi, bolaning atrof-olami, uning tajribasi, bilimlari bilan tushuntiriladi. Bola shaxsiy faoliyati orqali tajriba egallaydi, tarbiyachi, ota-onadan ko'p narsalarni bilib oladi. Turli-tuman bilimlar, taassurotlar uning olamini boyitadi, bularning barchasi o'yinda o'z ifodasini topadi. Amaliyotda shunday holatlar ham kuzatiladiki, tarbiyachi bolalar tafakkurining umumlashtiruvchi o'yin harakatlarning ahamiyatini tushunmay, ulardan amaliy harakatlar bilan maksimal darajada o'xshash jamoaviy harakatlarni talab etadi. Birinchidan, agarda bola bilan kundalik hayotda

sodir bo'ladigan barcha holatlar o'yinga ko'chirilsa, o'yin o'z-o'zidan yo'q bo'lib qoladi yoki uning asosiy o'ziga xosligi – tasavvurdagi vaziyat yo'qoladi. Ikkinchidan, o'yin yaxshi tanish, biroq kam umumlashgan hayotiy vaziyatni aks ettirib, beixtiyor oxiri berk ko'chaga kirib qoladi. Shu bilan birga ma'lumki, kundalik hayotda bolalar nafaqat aniq bilimlarnigina, balki noaniq, mavhum bilimlarni ham egallaydilar. O'yin faoliyati rivojlanishining birinchi bosqichi tanishtirish o'yini hisoblanadi. Kattalar tomonidan bolaga taklif etilgan mavzu asosida o'yinchoq predmeti yordamida u predmetli-o'yinli faoliyatni ifodalaydi. Uning mazmunini predmetni o'rganish jarayonida amalga oshadigan manipulyatsiya harakatlari tashkil etadi. Bolaning mazkur faoliyati tez orada o'zining mazmunini o'zgartiradi: tekshirish ishlari predmet-o'yinchoqning o'ziga xosliklarini aniqlashga yo'naltirilgan va shu bois mo'ljaldagi harakat operatsiyalarga aylanib ketadi.

O'yin faoliyatining keyingi bosqichi aks ettiruvchi o'yin nomini olib, unda alohida predmetli o'ziga xos operatsiyalar predmetning o'ziga xos sifatlarini aniqlash va mazkur predmet yordamida ma'lum natijaga erishishga yo'naltirilgan harakatlar darajasiga o'tib ketadi. Bu erta bolalik davridagi o'yinning psixologik mazmuni rivojlanishining avj vaqtidir. Aynan u bolada tegishli predmetli faoliyatning shakllanishi uchun kerakli asosni tayyorlaydi. O'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi haqidagi ilmiy tasavvurlar turli yosh guruhlarida bolalar o'yin faoliyatini nazorat qilishga doir yanada aniq, tizimli tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Aqliy jihatdan o'z yechimini topgan chinakkam, hissiy boyitilgan o'yinga erishish uchun, pedagog bolaning tajribasini maqsadga yo'naltirilgan ravishda boyitishi, mustaqil o'yinlardavomida maktabgacha yoshdagi bolani borliqni ijobiy aks ettirishga undashi kerak. O'yin bolaning yaqin rivojlanish zonasini hosil qiladi, shu bois maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bu o'yin davomida faoliyatning yangi, yanada rivojlangan turlari tug'iladi, jamoa bilan birgalikda faoliyat ko'rsatish, o'z hatti-harakatlarini ijodiy, mustaqil nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning o'yin davomida rivojlanishi o'yin mazmunining turli-tuman yo'naltirilganligi hisobiga amalga oshadi. Jismoniy

(harakatli), estetik (musiqiy), aqliy (didaktik va syujetli) tarbiyaga yo'naltirilgan o'yinlar bor. Sru bilan birga ko'pgina o'yinlar (syujetli-rolli o'yin, dramatizatsiyalar, harakatli o'yinlar va b.) ahloqiy tarbiyaga ko'maklashadi. Tarbiyaviy amaliyotda turli o'yinlarning o'z vaqtida va to'g'ri qo'llanilishi bolalar uchun tushunarli shaklda dasturda belgilangan ta'lim va tarbiya vazifalarining hal etilishini ta'minlaydi. Paydo bo'lgan o'yinli muammolarga javob izlash bolalar bilish faolligini real hayotda ham orttiradi. O'yin davomida erishilgan bola ruhiy jarayoning rivojlanishi uning mashg'ulotlarda tizimli ta'lim olishi imkoniyatiga sezilarli ta'sir etadi, uning tengdoshlari va kattalar orasida aniq ahloqiy-estetik pozitsiyasining shakllanishiga ko'maklashadi. O'yinning progressive rivojlantiruvchi ahamiyati nafaqat bolani har tomonlama rivojlanish imkoniyatining amalga oshishidan, balki uning bolalar qiziqishlarining doirasini kengayishiga, mashg'ulotlar davomida yangi faoliyat o'quv faoliyatining vujudga kelishiga ko'maklashishdan iborat, bu esa bolaning maktab ta'limiga ruhiy tayyorgarligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari bolaning psixik rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish yana bir qancha jarayonlarda namoyon bo'ladi. Faol harakatli o'yinlar harakat qobiliyatlari va ruxiy jarayonlarni kompleks rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maksimal darajada ta'minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirish va almashtirishga qaratilgan. Bilamizki, kishining rivojlanish davrida egallab boradigan harakat tajribasi xilma-xil darajadagi harakat dasturlarining namoyon bo'lishi va mustahkamlanishida o'z aksini topadi. Faoliyat turi qanchalik rang-barang bo'lsa, yangi harakatlarni o'zlashtirish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'lishi tabiiy faoliyatlarning murakkab tizimlari bo'lgan tana va uning qismlari harakatlar va harakat faoliyatlarining muntazam almashinib turishi bilan ifodalanadi. Shunday qilib sensor va motor tarkibiy qismlar, ularning tizimidagi turli sathlari o'rtasida o'zaro ta'sir vujudga keladi va bu yangi harakat dasturlarining vujudga kelishi bilan izohlanadi.

Pedagogika amaliyotida predmetlar bilan syujetli, harakatli va didaktik o'yinlar farqlanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega, harakatli o'yinlar kichik, o'rta va katta harakatchanlik darajasiga

ega bo'lishi mumkin. Kichik guruhgacha yoshdagi bolalar tabiiy harakatlarni o'yinlar yordamida o'zlashtiradilar (qadamlab yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish). Harakatli o'yinlar bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri. Ularni ikki yoshdan boshlab qo'llash mumkin. Bu davrda bolalar yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi hayot uchun zarur harakat ko'nikmalarini o'zlashtira boshlaydilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo'llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlar bobida musobaqalashar ekanlar, o'z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo'ladilar. Jismoniy rivojlanishdan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, jur'at kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradilar. Tarbiyalanuvchilar o'zlarining harakatiga bo'lgan katta ehtiyojlarini, odatda, o'yinlar orqali qondirishga harakat qiladilar. O'yin ular uchun birinchi navbatda, faoliyat va harakat turi hisoblanadi. Harakatli o'yinlar vaqtida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va mustaqillik, ishonch va qat'iyat kabi bir qator sifatleri tarkib topadi. Ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, hatto ba'zi qoidalarga amal qilish kabi sifatleri tarkib toptiradilar.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar, odatiy holda ta'sirchan, emotsional holatlari noturg'un: ular faol harakatli bo'ladilar, ammo bir xildagi harakatlardan tez charchaydilar, tanafussiz uzoq vaqt yura (yugura) olmaydilar. Shu sababli o'ta faol bolalarni nazorat qilib turish: qo'llarida osilishga, katta balandlikdan sakrashga ruxsat bermaslik, ularning e'tiborlarini birmuncha sust sur'atli o'yinlarga tortish kerak. Bolalarga o'rgatilishi kerak bo'lgan dastlabki o'yinlar muayyan syujet va qoidalarga ega bo'lmaydi. Bola oddiy, qiziqarli topshiriqlarni bajaradi: kelib, o'yinchoqni qo'lga oladi, kattalar oldiga yugurib borib, ular qo'lida nima yashirilganligini ko'radi. ("Bayroqchani ol", "Mening yonimga yugur", "Bayroqchani top"). O'yinlarni o'rgatishda muayyan izchillikka rioya qilish kerak. Agar bola dastlab o'yinchoqni olish uchun o'zi istagan sur'atda yugurgan bo'lsa, o'yin yaxshi o'zlashtirilib olinganidan so'ng yugurish sur'atini kattalar belgilashi kerak.

Nutq o'yin mazmunining ijodiy rivojlantirilishiga, qoidalar va taktika bilan boyitilishiga, o'yinlar tajribasining almashinishiga, yangi o'yinlarning yuz kelishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini to'g'ri yo'lga solib, o'yinni o'rgatishga, o'yinga rahbarlik qilishga yordam beradi. Nutq kishiga mavhum fikrlash va umumlashmalar qilish imkonini beradi, o'z obrazlarini yaratishga, o'yinni ijodiy yondashish orqali sayqallashga imkon yaratadi. O'yin faoliyati psixik jarayonlarda ixtiyoriylikning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, o'yinlar tufayli bolalarda ixtiyoriy diqqat hamda ixtiyoriy xotira rivojlana boshlaydi. o'yin sharoitida bolalar laboratoriya tajribalariga qaraganda yaxshiroq fikran jamlanib, ko'proq narsani eslab qoladilar. Ongli maqsad (diqqatni jamlash, eslab qolish va yodga olish) aynan o'yinlar chog'ida bola harakatlarida tez va oson namoyon bo'ladi. o'yin sharoitlari boladan o'yin vaziyatiga kiritilgan predmetlarda fikrni jamlash, o'ynalayotgan harakat va syujet mazmuniga chuqur kirishni talab qiladi. Agar bola o'yin vaziyati undan nimani talab qilayotganiga diqqatni qaratmasa, o'yin shartlarini eslab qola olmasa, u tengdoshlari tomonidan chetlashtirilib qo'yiladi. Muloqotga, hissiy rag'batga bo'lgan ehtiyoj bolani maqsadli ravishda fikrlarini jamlash va eslab qolishga majbur qiladi. O'yin vaziyati va u bilan aloqador harakatlar maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatadi. o'yinda bola narsaning (predmetning) o'rinbosari bilan munosabatga kirishadi u o'rinbosarga yangi o'yinbop nom beradi va u bilan shu nomga muvofiq faoliyat olib beradi. o'rinbosar predmet tafakkur uchun tayanch bo'lib qoladi. o'rinbosar predmetlar bilan faoliyatini amalga oshirish asosida bola haqiqiy bor narsa to'g'risida fikr yuritishni o'rganadi. Asta - sekin predmetlar bilan o'yin faoliyatlari qisqarib, bola predmetlar haqida fikrlab, ular bilan aql nuqtai nazaridan faoliyat olib borishga o'rganadi. Shunday qilib, o'yin bolaning tasavvurlarga tayanib fikrlashni o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

Bugungi vaqvaqtda syujetli rolli o'yinlarda bolaning o'yin va, ayniqsa, real (haqiqiy) o'zaro munosabatlari tajribasi tafakkurning alohida xususiyati asosini tashkil etib, u tufayli boshqa kishilarning nuqtai nazari o'rganiladi, ularning keyingi

xatti-harakatlarini oldindan qo'ra bilish va shunga qarab o'z xatti-harakatlarini shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Rolli o'yin tasavvurning rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. o'yin faoliyatida bola bir xil predmetlarni boshqalari bilan almashtirishni, o'ziga har turli rollarni olishni o'rganadi. Bularning barchasi tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida o'rinbosar predmetlar ham, ko'pgina boshqa o'yin harakatlari ham shart emas. Bolalar predmetlar va ular bilan aloqador faoliyatlarni tenglashtirib, o'z tasavvurlarida yangi vaziyatlarni yuzaga keltira boshlaydilar. O'yin ichki tomondan amalga oshirilishi mumkin. Bola shaxsining rivojlanishiga o'yinning ko'rsatadigan ta'siri shundan iboratki, u orqali bola kattalarning yurish – turishi, o'zaro munosabati bilan tanishadi, bular uning o'z xatti-harakatlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi; bola o'yinda muloqot olib borishning asosiy ko'nikmalarini, tengdoshlari bilan munosabat o'rnatish uchun zarur sifatlarni o'zlashtiradi. Bolani butunlay qamrab olgan o'yin uni zimmasidagi rolga muvofiq qoidalarga bo'ysunishga majburlaydi, his-tuyg'ularning rivojlanishi hamda xatti-harakatlarni iroda orqali nazorat qilish qobiliyatining takomillashishiga ko'mak beradi. O'yin faoliyati tarkibida o'quv faoliyati ham shakllana boshlaydi va keyinchalik u etakchi o'rinni egallaydi. O'quv elementlarini katta odam kiritadi, ular o'yin mohiyatidan bevosita kelib chiqmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola o'ynab turib o'qiydi u o'qishga xuddi muayyan qoidalari bor bo'lgan o'ziga xos rolli o'yinga qaraganday qaraydi. Biroq mazkur qoidalarga amal qilish asosida bola o'zi sezmagan holda eng sodda o'quv faoliyatlarini o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolada o'qishga ishtiyoq paydo bo'lib, dastlabki bilimlar shakllana boshlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarning ta'siri qanday?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

3. O'yin mashg'ulotlari psixologik rivojlanish tizimining asosiy vazifalari sifatida ifodalanishi to'g'risida ma'lumot bering?

1-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda o'yin faoliyatning ahamiyati. O'yin faoliyati orqali bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Reja:

1. O'yin faoliyatning mazmun va mohiyati
2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda o'yin faoliyatning ahamiyati.
3. O'yin faoliyati orqali bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

“Fikrlar to'qnashuvi” metodi

“Fikrlar to'qnashuvi” metodi erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag'ishlangan darslarda qo'llaniladi. Bu metodning erkin fikrlash darslarida qo'llanilishi va undan ko'zda tutilgan maqsad quydagilardan iborat deyishimiz mumkin:

1. Talabalarining bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.
2. Talabalarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.
3. Talabalarining avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish. Bu metoddan munozarali darslarning muvaffaqiyati ta'minlash maqsadida qo'llash uchun quyidagi holatlarni to'g'ri hal etish muhimdir:
 - talabalarining darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishini;
 - talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishini;
 - talabalarining o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashni;
 - talabalarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilishni;
 - talabaning iqtidori, e'tiqodi, talabalarining bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mavzuning bayoni. Bolalarni o'yin faoliyati orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish uchun ular turli qiziqarli o'yinlar, jumladan, "konstruktor o'yinlari", "taxta o'yinlari", "tapshiriqlar va savol-javob o'yinlariga" jalb qilinishi kerak. Bu o'yinlar bolalarda sabab-oqibatni aniqlash, sodda va murakkab masalalarni yechish, fikrlashni tizimlashtirish va tasavvurni rivojlantirish kabi ko'nikmalarni

shakllantiradi. Faoliyatni bolalarning yoshiga moslashtirib, ularga ijodkorlik va mustaqillikni ta'minlash muhim.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'yin turlari:

Konstruktor o'yinlari:

Bloklar bilan o'ynash: Turli shakllar, kattalikdagi bloklardan yangi narsalarni qurish bolalarda vizual-fazoviy fikrlashni va o'z-o'zidan sabab-oqibatlarni tushunishni rivojlantiradi.

Shakllarni bir-biriga moslash: Turli shakllarni qaysi joyga qo'yish kerakligini aniqlash bolalar uchun qiziqarli mashq bo'ladi.

Taxta o'yinlari (pazllar):

Pazllarni yig'ish: Rasmlarni qismlarga bo'lib, keyin ularni to'g'ri joylashtirish bolalarning ko'rish qobiliyati, tasavvuri va sabr-toqatini oshiradi.

Shaxmat va dama: Bu o'yinlar strategik fikrlash, rejalashtirish va o'z navbatini kutishni o'rgatadi.

Roli o'yinlar (roli o'ynash):

O'zaro vazifalar: O'yin davomida bolalar bir-biriga vazifalar berishadi, bu esa ularda mantiqiy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Savol-javob va topishmoqlar:

Mantiqiy savollar: Bolalarga "nima uchun?", "qanday bo'ladi?" kabi savollar berish ularda sabab-oqibatni aniqlash ko'nikmasini oshiradi.

Topishmoqlarni yechish: Topishmoqlar bolalarning fikrlash jarayonini faollashtirib, turli usullarni izlashga undaydi.

Muhim jihatlar:

Bolalar yoshiga moslashtirish:

Har bir o'yinni bolaning yoshi va rivojlanish darajasiga qarab moslashtirish kerak.

To'g'ri sharoit yaratish:

Bolalarga erkin o'ynash uchun qulay sharoit yaratib, ularni rag'batlantirib turish lozim.

Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash:

Bolalarning o'z g'oyalarini namoyon etishiga imkon berish, ularni o'z fikrlashiga undash muhim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha ta'lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur'atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo'riqishlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta'limtarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash mazmunining murakkabligi oshishi bilan aqliy faoliyat shakllari ham qayta tartibga solinadi. Kichkina bolaning tafakkuri o'yin yoki amaliy faoliyatga kiritilgan alohida aqliy jarayonlar va operatsiyalar shaklida davom etadi. Bundan farqli o'laroq, maktabgacha yoshdagi bola asta-sekin o'zi sezmagan, hozirda harakat qilmaydigan narsalar haqida o'ylashni o'rganadi. Bola nafaqat his-tuyg'ularga, balki ilgari sezilgan narsalar va hodisalar haqidagi tasavvurlarga tayanib, turli xil aqliy operatsiyalarni bajarishni boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolada fikrlash ob'ektlar bilan to'g'ridan-to'g'ri harakatlardan mustaqil ravishda izchil fikrlash xususiyatiga ega bo'ladi. Endi siz bolaga kognitiv, aqliy vazifalarni qo'yishingiz mumkin (hodisani tushuntiring, topishmoqni toping, jumboqni hal qiling). Bunday muammolarni hal qilish jarayonida bola o'z hukmlarini bir-biri bilan bog'lay boshlaydi, ma'lum xulosalar yoki xulosalarga kela boshlaydi. Shunday qilib, induktiv va deduktiv fikrlashning eng oddiy shakllari paydo bo'ladi. Biroq, yangi

faktlar bilan, xususan, uning xulosalariga to'g'ri kelmaydigan faktlar bilan tanishish, kattalarning ko'rsatmalariga quloq solish, maktabgacha tarbiyachi asta -sekin o'z fikrini haqiqatga mos ravishda qayta tuzadi, ularni to'g'ri asoslashni o'rganadi. Yangi faktlar bilan tanishish, voqelik hodisalariga muvofiq, maktabgacha tarbiyachi xato va qarama -qarshiliklardan qochib, ozmi - ko'pmi izchil fikrlashni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining o'ziga xos xususiyati uning o'ziga xos, majoziy tabiatidir. Garchi maktabgacha tarbiyachi o'zi sezmagan va hozirda deyarli harakat qilmaydigan narsalar haqida o'ylashi mumkin bo'lsa -da, u o'z fikrida mavhum, mavhum takliflarga emas, balki aniq, yakka ob'ektlar va hodisalarning vizual tasvirlariga tayanadi. Tafakkur ravshanligi, tasviri tufayli maktabgacha yoshdagi bolaga mavhum, mavhum shaklda berilgan masalani hal qilish juda qiyin. Masalan, kichik maktab o'quvchilari, masalan, 5 va 3 - uylar, olma yoki mashinalar haqida o'ylamasdan, mavhum raqamlar (masalan, 5-3) bilan muammoni osonlikcha hal qilishadi. Ammo maktabgacha yoshdagi bola uchun bunday vazifani faqat unga aniq shakl berilganida, masalan, ular unga beshta qush daraxtda o'tirganini, yana uchta ularga uchib kelganini yoki unga rasmni ko'rsatganida, erishish mumkin bo'ladi. bu voqeani aniq tasvirlaydi. Bunday sharoitda u muammoni tushuna boshlaydi va tegishli arifmetik amallarni bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy faoliyatini tashkil qilishda, unga yangi bilimlarni berishda, bolaning fikrlashining o'ziga xos, vizual xarakterini hisobga olish zarur.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, balki umumiy tushunchalarni ham bir -biri bilan aniq korrelyatsiya qilishda namoyon bo'ladi.

Fikrlashga bolalarni o'rgatishda:

- 1) ta'lim jarayoniga intilishi, fikrlash jarayonini rivojlantirish;
- 2) ta'limiy faoliyat vaqtida bilishi kerak bo'ladigan tartiblarni eslatish;
- 3) o'zida bor qo'rquv bilan kurasha olish, qobiliyatiga bo'lgan ishonch;

Pedagog ta'limiy jarayonga chuqur tayyorgarlik ko'radi hamda kerakli bilimlarga ega bo'ladi. Predmetlarni qismlarga bo'lish usullarini o'rgatadi, shuningdek butun buyumning qismlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi; keyinchalik bolalarga geometrik shakllarni ikki va to'rt qismga bo'lishning yo'llarini ko'rsatadi. Davomiy

bajariladigan bir necha (uch-olti) faoliyatda o'tkaziladi. Bolaning olgan ma'lumotlari har bir jarayonda kengayib boradi hamda tekshirilib va mujassamlanadi. Rejaning bir qismidan keying qismiiga o'tganda o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qaytarishadi va yangi ma'lumotlarni berilgan bilimlar bilan bog'lash kerak bo'ladi. Olingan ma'lumotlar oldingi ma'lumotni takrorlash tarbiyalanuvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, hamda bolalrning diqqatini yangi ma'lumotga qaratadi, o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'rgatishning barcha qismlarida belgilangan ma'lumotlarni bolalar tomonidan mustahkamlanadi. Matematika o'qitishda jarayonning turli turidan foydalanish mumkin bo'ladi. Jarayon turi o'rganishga yoki o'tilganlarni qaytarishga, mashg'ulotlarning ma'lumotlarini birlashtiriladi. O'qitish jarayonida qurilish jarayonlar eng ko'p qismni egallaydi, qolgan qismida mashg'ulotlarda ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Beriladigan ma'lumot o'zlashtirish bolalarni ko'proq zo'riqtiradi. Mashg'ulot yakunida o'zlashtirilgan ma'lumotlar bir oz bo'shashtiradi. Aytaylik, mashg'ulotlarning boshlanishida "Nima o'zgarganini ko'rding?" o'yinida buyumlar jamlanmasini o'ynaydilar. Jarayonning tarkibi reja qismlarining hajmi mazmuni ko'rgazmaliligi hamda tegishli bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirish salohiyati hamda omillarga bog'liqligini ko'rish mumkin bo'ladi. Misol tariqasida kichik guruhda bitta yoki ikkita mavzu bo'yicha jarayonlar o'tkaziladi. Birinchi jarayon asosan chuqurroq o'rganishi kerak sanaladi. Oxirgi jarayonlar esa berilgan topshiriq bo'yicha hamda oldingi topshiriqlar bo'yicha takrorlashga bag'ishlanadi. Mashg'ulotlarni o'yinchoqlarni sanashdan o'yinchoqlar nechta? kabi buyumlarni hisoblab chiqadilar, hamdda o'yinchokdar berkitib qo'yiladi, buyumdan nechta qolganini yoki kimda qancha buyum borligini hamda o'yinchoqlar nechta bo'lganligini topishlari kerak bo'ladi. Oltita o'rindiqli stollar bor bo'lganda, uning atrofiga to'rttadan oshiqcha bo'lgan bolani o'tqazish mumkin emas, kerak bo'lganda qo'shimcha stul qo'yish mumkin bo'ladi. Bolalarning bilimlari nazorat qilinadigan jarayonlar belgilangan joyda o'tkaziladi. Mashg'ulotda yoki o'yinlar ni hisobga oladigan bo'lsak, bu o'yinlarni tashkil etish uchun albatta joy tayyorlab sharoit yaratish kerak bo'ladi. Jarayonlarni namunalı tashkil etishda uslubiy tavsiyalarni

to'g'ri ko'rgazmalilik boshlangich sharoit hisoblanadi. Barcha jarayonlarda hayotda kerak bo'ladigan narsalar o'yinchoqlar hamda tabiat in'omlardan keng foydalanish mumkin bo'ladi. Hamma bolalar ham buyumlar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun buyumlar ko'p miqdorda bo'lishi tavsiya etiladi. Ko'rgazmalilikning xarakteri katta bo'lgan sari o'zlashtirishga bog'liq holda o'zgarib turadi. Ko'rsatma-qo'llanmalarni mashg'ulotlarda egallashga bog'liq. Tarbiyalanuvchilar egallagan ma'lumotlarini bir-biriga bog'likligini hamda munosabatlarni ko'rsatadigan bo'ladigan hollarda ko'rsatmalilikning turli xil yo'llarini bilishi kerak. Faoliyatlarda har xil hisoblangan bola uchun qiziq bo'ladigan narsalar to'plamidan hamda ko'rgazmalardan o'ylab ko'rish kerak. Insoniyat tajribasini qanchalik o'zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak. Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o'z aksini topadi. Ta'lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi. Aqliy rivojlanish quyidagi tushunchalar tizimini o'z ichiga qamrab oladi: aqlning teranligi bola yangi materialni egallashi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi uni o'zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo'ladi; aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdan tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi; fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi; aqlning barqarorligi bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi; fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so'z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati; aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi; fikrning tejamkorligi-kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi. Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad

bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak.

Nazorat savollari:

1. O'yin faoliyatning mazmun va mohiyati haqida gapiring?
2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda o'yin faoliyatning ahamiyatini tushuntiring?
3. O'yin faoliyati orqali bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish qanday amalga oshiriladi?

2-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'yin faoliyat turlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy milliy harakatli o'yinlarning turkumlari

Reja:

1. O'yin faoliyat turlari.
2. Jamoviy o'yinlar va ularning mazmuni
3. Ommaviy o'yinlar va ularning mohiyati
4. Shaxsiy va juftlik o'yinlar va ularning ahamiyati
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy milliy harakatli o'yinlarning turkumlari

«Birgalikda o'qiymiz» metodi

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiymiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D. Jonson, R. Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodni o'tkazish uchun guruh talabalarini 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratish kerak. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqning ma'lum bir qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy

prinsiplari-komandani taqdirlash, talabalarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Mavzuning bayoni: *Harakatli o'yinlarining mohiyati*

Harakatli o'yinlar mohiyatan keng doiradagi o'yin turi hisoblanadi. Harakatli o'yinlar tabiiy harakatlarni (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish) o'z ichiga oladi hamda bola faoliyati jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Shuni esda saqlash keraki, bola bilim va malakalarni egallashi g'ayri ixtiyoriy darajada ko'proq samarali o'tadi (xususan o'yinda), ixtiyoriga nisbatan amalga oshiriladi. Bu jarayonda bola o'z individual xususiyatlaridan va holatidan kelib chiqib ma'lum bir harakat turidan foydalanadi. Bundan tashqari harakatli o'yinlar davomida bolalarni anatomo-fiziologik, psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Yugurish va sakrash bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar vaqti bo'yicha qisqa bo'lishi kerak va dam olishning tez-tez takrorlanishi bilan birga o'tadi. Bolalarga bu davrda ya'ni alohida haraktni bajartirish va uning alohida parametrlarini aniq boshqarishi qiyin bo'ladi. Bolalar tez charchaydi, xuddi shunday harakatga tayyorgarlik tezda tiklanadi. Xususan ularni harakatning bir xilligi charchatib qo'yadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarni diqqati yetarli darajada barqaror emas. Shuning uchun bola diqqatini bo'ladiki, ya'ni bunday xolatda unga ko'proq qiziqarsiz tuyiladi. Shu uchun bu harakatli o'yinlar ularda uzoq vaqt e'tiborni bir yerga to'plashni talab qilmasligi kerak. Aks xolda bolalar qoidaga rioya qilishni to'xtatadilar. O'yinning borishi yoki o'ynalishi buziladi va ularda o'yinga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. Bolalarda iroda va tormozlanish vazifasi bo'sh rivojlangan. Ularga o'yinni tushuntirishni uzoq va diqqat bilan eshitish qiyin tez-tez o'yinni tushuntirishini oxirigacha eshitmasdan o'yinda u yoki bu rolni o'ynashda o'zlarining yordamlarini taklif qiladilar. Shu bilan bog'liq unga katta bo'lmagan miqdordagi o'yin qoidalari (2-3) bo'lgan o'yinlardan foydalaniladi. O'yin qoidasining hammasini birdaniga emas, balki uni ishtirokchilarning o'zlashtirishlariga qarab, asta-sekin, berish mumkin. Bundan tashqari o'yinda bu davrda xulqning asosiy poydevori, jamoat tartibini saqlash qoidasini bajarishni bilishni tarbiyalaydi. Jamoa

bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda odob-axloqning oddiy meyor va qoidalari haqida tasavvur qilishni tarbiyalaydi. Jamoalarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar paydo bo‘la boshlaydi, buni har bir o‘yin qatanshchisi o‘z jamoalarining obrusi uchun kurashdilar. Ular bolalarda birgalikda kelishilgan xolda harakat qilishga, ma’lum ritmda harakatni bajarishga o‘rgatadi.

“O‘yinga oid yana ham aniqroq ma’lumotni o‘zbek tilining izohli lug‘atidan topamiz. Aslida o‘yin bu: erkin harakat turi bo‘lib, asosan ko‘ngil ochish, dam olish maqsadida o‘tkaziladigan faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonda bolalar ermak uchun loydan turli narsalar yasash va mustaqil harakat faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator faoliyatlarni bajaradilar. Boshqalar bilan o‘zaro musobaqa o‘tkazish maqsadida belgilangan tartib-qoidalar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot shular sirasiga kiradi.

Yuqorida “o‘yin” atamasiga ko‘plab ta’riflar berildi, ammo ushbu atamaning asl ma’zmun-mohiyati ayrim sohalarda hanuzgacha ham ma’nan mazmun-mohiyatini to‘laqonli topgani yo‘q. Sababi esa har bir soha mutaxassislari bu atamaga o‘z nuqtayi nazarlari bilan fikr bildirishgan. Bugungi kunda biz mulohaza yuritayotgan o‘yin atamasiga jismoniy tarbiya hamda sport sohasidagi mutaxassislar atroflicha ta’rif bera olganlar.

Tarixiy, falsafiy, ijtimoiy tushunchalardan iborat bo‘lgan o‘yin atamasi aslida xilma-xil mashqlardan tashkil topgan birmuncha murakkab harakat faoliyati hisoblanadi. Insonlarning muayyan faoliyat shakllaridan biri bu o‘yin faoliyatidir. Go‘dakning eng dastlabki bajariladigan oddiy harakatlaridan boshlab, sport va jismoniy tarbiya turlarida bajariladigan jismoniy faoliyatlari ham o‘yinda o‘z aksini topadi. Shartli maqsadga erishishga qaratilgan faoliyat turi o‘yin faoliyatidir. O‘yinda asosan hech qanday moddiy boyliklar yaratilmaydi. O‘yin shaxsning tarbiyasi va shakllanishiga katta va umumiy ta’sir ko‘rsatuvchi jarayondir. Shu sababli ham, o‘yin har doim pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san’atshunoslar, tibbiyot xodimlari va boshqalar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. O‘yin tarixan tarkib topgan ijtimoiy hodisadir. Misol uchun, bolalar o‘yinlari, stol ustidagi o‘yinlar , jamoa bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar , harakatli o‘yinlar , sport o‘yinlari va hokazo. O‘yin o‘zini anglash, ko‘ngil ochish, dam olish vositasi, jismoniy va umumijtimoiy tarbiya, sport vositasi bo‘lishi

mumkin. O'yin madaniyat unsuri sifatida jamiyatdagi barcha madaniyatlar bilan birgalikda rivojlanadi, ular bolalar va o'smirlarni tarbiyalashning foydali vositasidir.

O'yin har doim aniq maqsadga qaratilgan hamda xilma-xil ko'rsatmalar va turli-xil mavzuga asoslangan faoliyatni ifoda etadi. Bugungi kunda bolalar va yoshlarning tarbiyasida muhim o'rin egallagan o'yin faoliyati hissiyotli faoliyat turi hisoblanib, alohida e'tiborni talab etadi. Bolalar va o'smirlar orasida xalq o'yinlari katta doirada keng yoyligan. Yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqalar bugungi kunda xalq o'yinlarining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyat va mazmunan ajralib turadi. Ularning syujetlarida ushbu harakat faoliyatlari mavzu va g'oyalar asosida motivlashgan. Bu jarayonlar o'yinning asl maqsadiga erishish uchun qo'yilgan xilma-xil qiyinchiliklar va to'siqlarni bartaraf etish uchun yo'naltirilgan. Oddiydan murakkabga qarab boyib boradigan o'yin faoliyatining mazmuni bolaning o'sish va rivojlanish davrida o'zgarib boradi.

Qadimdan polvonlarning bir-birlariga yengil harakatlar orqali qo'l silkitib yoki sakrab harakat qilishlari milliy kurashda "o'yin" atamasi ma'nosini anglatgan. "Nima uchun xalq o'yinlari yoki o'zbek xalq o'yinlari" deb ataladi? Buning uchun xalq so'zining lug'aviy ma'nosini topishimiz zarur. Demak, yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, xalq so'zining lug'aviy ma'nosini tilimizda el, elat, millat, aholi, xaloyiq, olomon, bir guruh kishilar ma'nolarini ariglatadi va amalda qo'llaniladi, bu tilimizdagi xilma-xillikka xos xususiyatdir. Binobarin, "o'zbek xalqi" iborasi o'rni kelganda, o'zbek eli, o'zbek elati, o'zbek millati deyilishi mumkin, bu hech qanday til qonun-qoidalariga va mantiqqa zid emas. "Xalq" so'zi atama sifatida o'zining qat'i belgilangan mazmun-mohiyatiga ega". Fikrimizga yorqin isbot sifatida misollar keltiradigan bo'lsak, o'zbek xalq o'yinlari deganda, yurtimizda va yana ko'plab boshqa mamlakatlarda ham o'ynaladigan jamiyki o'zbek xalq o'yinlarini tushunishimiz mumkin. Xalq o'yinlari deb yurtimizda yashab kelayotgan hamma aholini yoki hamma xalqlarning o'yinlarini tushunishimiz lozim. Sabab qilib esa o'zbek xalqi ko'p millatli, bag'rikeng xalqligini aytishimiz mumkin. Yurtimizda o'z fuqoroligiga ega bo'lmagan boshqa millat vakillari, bundan tashqari turli xalqlar, muhojirlar, chet el

fuqarolari fuqaroligi yo‘q yoki fuqarolikdan mahrum etilgan insonlar ham borligi mubolag‘a emas.

Qadimgi davrlarda boshlab xalqimiz mol boqish, yovvoyi hayvon, qush va baliqlarni ovlash bilan shug‘ullanib kelgan. Mustaqillikka erishgunimizgacha xalqimizning ko‘plab qadimiy an‘ana va qadryatlarini yo‘qotdik. Shunday bo‘lishiga qaramasdan xalqimizning an‘anaviy va milliy o‘yinlari hamda milliy sport turlarini to‘laligicha yo‘qotmadik. Ko‘plab cheklovlarga qaramasdan xalq o‘yinlarimiz bugungi kungacha bugungi kun avlodlarigacha yetib keldi. Bu o‘yinlarni qadim va azaliy xalqimiz yaratganligi uchun ham bugungi kungacha yillarcha bo‘lgan to‘siqlarni bosib o‘tdi. Bilamizki inson hayotidagi o‘yin faoliyati uning turmush tarzi, mehnat faoliyati, hamda atrof muhiti bilan o‘zaro aloqador.

“Qadim-qadimdan xalq o‘yinlari inson hayotida o‘zining ahamiyatli o‘rniga ega bo‘lgan bu esa yoshlar ta‘lim-tarbiyasidagi eng muhim vositalardan biri hisoblangan. Jamiyat taraqqiyotida uning manfaatlari uchun asosiy maqsad va vazifa bo‘lib xizmat qilgan xalq o‘yinlari jamiyat ravnaqi uchun muhim o‘rin olgan. Xalq o‘yinlari har doim jamiyatning manfaatlari uchun xizmat vazifasini bajargan. Xalqimizning o‘yinlari ko‘pligi sababli hattoki qishloqlardagi va shahrlardagi o‘yinlar ham bir-birida keskin farq qiladigan bo‘lgan. Tarixiy va qadimiy ma‘lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, inson hayotida faol va natijaviy ishlash uchun xalqimizning milliy va sport o‘yinlari nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan. Olimlarning bildirgan fikrlariga qaragancha bunda milliy o‘zbek o‘yinlarining umumiy miqdori, 3-5 mingdan kam bo‘lmagan. Buday o‘yinlarning barchasi xalqning orzu-niyatlari, umidlari, baxt va saodatini, quvonch va tashvishlarini o‘zida umumlashtirgan. Bunday o‘yinlar uzoq yillar mobaynida sayqallanib, mukammal bir holatga yetib kelgan, aniq bir qonun-qoidalarga asoslanib umumlashtirilib xilma-xil turlarga ajratib chiqilgan. Bugungi kundagi o‘yinlar o‘z navbatida doimiy va mavsumiy turlarga ajratilib, hattoki qishloq va shaharga, katta va kichikka, tun va kunga xos bo‘lgan harakter va xususiyatga ega bo‘lgan.

Faoliyat jarayonida bolalar dunyoni anglabgina qolmay, balki turli vaziyatlarda mustaqil harakat qilishni o‘rganadilar. O‘yinlar bolalar harakatining eng faol ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Odatda o‘yinlar jamoaviy va yakka o‘yinlarga

bo‘linadi. Jamoa bilan o‘ynaladigan o‘yinlar axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘yinlar bo‘ladi. Yakka harakatchan o‘yinlarda bola sharoit va maqsadni o‘zlashtirishi, muvofiq yo‘lni o‘zi tanlashi mumkin. O‘yinlarda, asosan, sog‘lom, o‘z kuchiga, imkoniyatlariga ishongan bolalar ishtirok etishgan. O‘yinlarda bolalarning yoshi, jismoniy tayyorgarliklari ko‘p hollarda odatda inobatga olinmagan. O‘yin ishtirokchilari, asosan, bolalarning bo‘y-bastiga muvofiq tanlangan. Chunki, bolalarning bo‘yi va gavdasining tuzilishi katta ahamiyat kasb etgan. Bolalar o‘yinlarini

- ▶ harakatli o‘yinlar;
- ▶ ma’naviy (so‘z) o‘yinlari kabi ikki guruhga ajratish mumkin.

Harakatli o‘yinlarda biror predmet (o‘yinchoq) yoki so‘z (qo‘shiq) hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ular butun o‘yin davomida boshqaruvchilik, vosita vazifasini bajaradi. “Chillak” o‘yinida chillak dasta va chillak, “Danak yashirish” o‘yinida danak harakatni boshqaruvchi predmet hisoblanadi. “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Boy xotin”, “Mehmonmisiz” va boshqa talay o‘yinlarda so‘z (qo‘shiq) harakatni boshqaruvchi vositaga aylangan.

G. Jaxongirov (1975) o‘zbek bolalar milliy o‘yinlarini tavsiflagan bo‘lmasada, o‘zbek bolalar folklori materiallari asosida o‘yinlarda folklor unsurlarining o‘rnini shartli ravishda vazifalarga qarab ajratdi: qo‘l chaqqonligi o‘yinlari, topishmachoq, taqlid, quvlashmachoq, ko‘ptok o‘yinlari, chorvachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, arg‘imchoq, suv o‘yinlari, she’riy va maishiy harakterdagi o‘yinlar kabi.

Harakatli o‘yinlarining tasnifiy xususiyatlari

Hozirgi kunda o‘yinlar ikki turga ajratiladi:

- harakatli o‘yinlar
- sport o‘yinlari.

Yugurishning har xil turlari, sakrash, uloqtirish va boshqa harakatlardan tashkil topgan o‘yinlari harakatli o‘yinlar deb ataladi.

Pedagogik amaliyotda harakatli o‘yinlarning ikkita asosiy turi qo‘llaniladi.

1. Mustaqil, ijodiy yoki erkin o‘yinlarda, o‘yin ishtirokchilari o‘zlari o‘yin rejasini tuzadilar va ko‘zlangan natijani o‘zlari amalga oshirishga harakat qiladilar. Maktabgacha va kichik guruh yoshidagi tarbiyalanuvchilarda odatda o‘yinlar syujetli

va rolli bo'ladi. Syujetlarga va rollarga aloqador holda bo'linadi, shu sababli psixologlar ularni rolli o'yinlar deb nomlaydilar. Ular yakka va jamoali bo'lishi mumkin.

2. Belgilangan qoida asosida tashkil etiladigan harakatli o'yinlar, rahbarlikni yoki bolalarning o'z guruhlarida sardorlari bo'lishini talab qiladi. Ular mazmuni va murakkablik darajasiga ko'ra juda turli-xil:

a) oddiy, jamoasiz harakatli o'yinlar, har bir ishtirokchi qoidalarga amal qilgan holda, o'zi uchun kurashadi. Barcha o'yin jarayoni boshqalar ustidan tezlik, kuch, chaqqonlik kabi sifatlar orqali shaxsiy ustunlikka erishishga yo'naltirilgan. Bu o'yinlarda shaxsiy tashabbus ko'rsatish ustunlik qiladi;


b) nisbatan murakkab, jamoaga o'tish harakatli o'yinlarda, ishtirokchilar, birinchi navbatda, o'z qiziqishlarini himoya qiladigan, ammo ba'zan, shaxsiy xohishga ko'ra, do'stlariga ko'maklashadigan, o'yinda hujumchidan saqlanish yoki qutilishga yordam beradigan o'yinlar ("dog'lash-qo'lni ber", "asir bilan qochib o'tish").

Ba'zan o'yinchi maqsadga erishish uchun boshqa o'yinchilar bilan vaqtincha hamkorlikka kirishi mumkin. Ba'zi o'yinlarda bunday hamkorlik, hatto, qoidalarda nazarda tutilgan (Oq ayiq, Bo'ri va qo'ylar);

c) jamoali harakatli o'yinlarda ishtirokchilar alohida jamoali guruhlarni tashkil qiladi. Ular jamoalarning bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatini nazarda tutadi, barcha shaxsiy qiziqishlar o'z jamoasi qiziqishlariga bo'ysundirilgan. Har bir ishtirokchi faoliyati jamoa muvaffaqiyati bilan aloqador hisoblanadi. Jamoali o'yinlarda o'z faoliyatini tengdoshlari faoliyati bilan muvofiqlashtirish zarar. Ko'pincha, jamoali o'yinlarda faoliyatni muvofiqlashtirish va o'yinning umumiy rahbarligi uchun ishtirokchilar o'rtasidan jamoa sardorini ajratish zarurati paydo bo'ladi, ya'ni bo'ysunish barcha uchun majburiy hisoblangan. Ayrim jamoali o'yinlar yarim sport tavsifiga ega: ular harakat texnikasini, o'yin usuli bo'yicha juda murakkab va belgilangan qoidalar bo'yicha o'tkaziladi. Ba'zi o'yinlarda rollarni ixtisoslashtirish talab qilinadi. Bunday o'yinlar ayrim manbalarda yarim sportli deb ataladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida xalq o'yinlarini keng qo'llash, har xil pedagogik vazifalarni hal qilish uchun ish sharoitini hisobga olib, o'yinlarning ma'lum

belgilari bo'yicha to'g'ri keladiganlarini maxsus saralash talab qilinadi. Xalq o'yirlarini tasniflash bo'yicha ham turli xil qarash, fikr va yondashuvlar bor”.

Professor V.G. Yakovlev alohida o'yin guruhlarini birlashtirib, o'ynovchilari o'yindagi o'zaro munosabatlari va o'zaro faoliyatlari tamoyillaridan kelib chiqib, jamoali harakatli o'yinlarni *pedagogik tasniflashni* tavsiya qiladi, ya'ni jamoali harakatli o'yinlarni ikkiga ajratadi:



Jamoalar guruhlarga ajratilmaydigan harakatli o'yinlar ikki (o'yinboshisiz va o'yinboshi bilan)ga ajratiladi. O'yinboshisiz o'ynaladigan o'yinlar : o'z o'rni va jamoa faoliyatidagi umumiy tartib uchun kurashadi. O'yinboshi belgilangan o'yinlarda:

- o'yinboshiga qarshi yakka kurash;
- bu o'zaro qo'llab-quvvatlash hamda o'zaro yordam paytida o'yinboshiga qarshi kurashishga ajratiladi.

Jamoalarni guruhlarga ajratib o'ynaladigan o'yinlar ham ikkiga ajratiladi, ya'ni:

- raqibga yaqinlashmasdan turib qatnashchilarning chiqishlari;
- raqibga yaqinlashib turgan holda qatnashchilarning chiqishlari.

Harakatli o'yinlarni mohiyatiga ko'ra yana ikkiga ajratiladi, lekin harakat faoliyati bir-biridan farq qilmaydi,

- o'z jamoasi uchun yakka kurash;
- o'zaro qo'llab quvvatlash va o'zaro yordam paytida o'z jamoasi uchun kurashish.

“Jamoali harakatli o'yinlar chog'ida asosiy faoliyat turlari besh turga ajratilgan:

- Taqlid, ijodiy, ritmik harakatlari bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.
- Tezlik va chaqqonlik, qisqa yugurib o'tish bilan aloqador bo'lgan faoliyat.

- To'p, tayoq va boshqa buyumlar bilan chaqqon hamda tezkor faoliyat.
- Sakrash, to'siqlarni oshib o'tish, kuch ishlatib, qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.
- Mo'ljalga olish, kuzatuvchanlik, eshitish bilan aloqador bo'lgan, harakat malakalarini qo'llashni talab qiladigan faoliyat.

Bu kabi tasniflash pedagogni bolalarda jamoa manfaatlarini tushunishga va tarbiyalashga yo'naltiriladi. O'yin uchun kerakli materiallarini bunday darajada taqsimlash alohida o'yinlar o'rtasidagi metodik tizimlilikning o'rnatilishini osonlashtiradi va o'yinning ma'no-mazmuni va shakli yuzasidan murakkablik darajasini aniqlashga ko'maklashadi.

1. O'yinlar mazmun-mohiyatining qiyinlik darajasiga qarab: oddiy o'yinlardan murakkab o'yinlarga qarab o'zgaradi.

2. Bolalarning individual yosh xususiyatlarini inobatga olish bo'yicha 3-4, 4-5, 5-6, 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilar uchun o'yinlar . Aynan shunday belgilardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ham foydalanilgan.

3. Asosan o'yinning mazmun-mohiyatini tashkil qiladigan harakat turlari asosida (yugurishli o'yinlar, balandlikka sakrash, yugurib kelib uzunlikka sakrash, turg'un nishonga uloqtirish kabi o'yinlar, to'pni ilib olish va otish o'yinlari).

4. Faoliyatda ko'proq yuzaga chiqadigan jismoniy sifatlar bo'yicha (kuch, egiluvchanlikni tarbiyalashga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan o'yinlar). Odatda bunday jismoniy sifatlar birgalikda yuzaga chiqadi. O'yinlar harakat turlariga nisbatan hamda jismoniy sifatlarning tasniflanishiga ko'ra sport sohasidagi barcha faoliyatlarida o'yinning barcha turlaridan foydalaniladi.

5. Sportning alohida turlariga tayyorlaydigan o'yinlar. Harakatli o'yinlardan uning alohida usullari va taktikasini jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalashda, u yoki bu sport turi uchun lozim bo'lganlarini mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida foydalaniladi.

6. Ishtirokchilarning o'zaro munosabatlariga aloqador holdagi o'yin;

- ishtirokchilarning bevosita "raqib"lar bilan chiqishlari;

- “raqib”lar bilan belgilangan holatda yaqinlashib o‘yin jarayoniga kirishish;
- “raqib”lar bilan o‘zaro kurashish o‘yinlari.

Xalq harakatli o‘yinlari juda ham rango-rang, xilma-xilki, go‘yoki ular haligacha ham o‘z boyliklarini yuzaga chiqarmagan bir bebaho xazina, bu xazinaning kalitini izlash va uni topish juda muhim. Xalqning qalbi esa biz izlayotgan kalitdir. Bu kalitni izlab topish esa hammaga ham nasib qilavermaydi, ammo chin dildan izlangan va to‘xtovsiz harakatda bo‘lgan, doimo maqsadiga erishish uchun harakat qilgan inson biz izlagan kalitni albatta topa oladi”.

O‘zbek xalq o‘yinlarini ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishiga nisbatan shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

- ❖ Mehnat o‘yinlari;
- ❖ Milliy harakatli o‘yinlar;
- ❖ Milliy sport o‘yinlari;
- ❖ Sayohat;
- ❖ Musiqa va raqsli o‘yinlar;
- ❖ Jonivorlar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar;

Yuqoridagi ajratilgan har bir guruh o‘zining mazmuni, yo‘nalishiga ko‘ra yana guruhchalarga bo‘linib ketadi. Masalan, mehnat o‘yinlari ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, maishiy tasvirdagi o‘yinlarga bo‘linadi. Bizga ayonki, kishini hayvonot olamidan ajratadigan jarayon bu ongi va mehnat faoliyatidir, shu bilan birgalikda, o‘yin faoliyati ham mehnat faoliyatining mahsuli, shu sababli birinchi guruh o‘yinlarini mehnat o‘yinlari deb nomladik. Mehnat o‘yinlari kishilarga ko‘tarinki quvnoqlik, xush kayfiyat bag‘ishlagan. Qolaversa, buyuk ajdodlarimiz davrida ovchilik o‘yinlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, chorvachilik asosida qushlar va hayvonlar o‘yinlari, dehqonchilik asosida poliz va bog‘dorchilik o‘yinlari shakllangan. Har qanday o‘yinining asosini faol harakat tashkil qilgani uchun xalq o‘yinlarining katta bir qismi o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlari deb ataladi.

Alisher Navoiy aytganidek, *“harakat tiriklik mezonidir”*, harakat bu yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqalar hisoblanadi. O‘zbek milliy harakatli

o'yinlari o'g'il va qiz bolalar uchun alohida o'yinlar , varrak (o'g'il bolalar uchun), mavsumiy o'yinlar (bahor, yoz, kuz, qish), tungi va kunduzgi o'yinlar, topishmoqli, taqlidli, ko'ptok, suv o'yinlari, quvlashmachoq, arg'imchoq bilan bajariladigan o'yinlarning katta bir silsilasini tashkil qiladi. O'zbek milliy harakatli o'yinlari o'g'il va qiz bolalar uchun nisbiy ravishda ajratilgan bo'lsada, aslida o'smirlar, yoshlar va barkamol yoshdagi kishilar uchun ham moslashtirilgan. Jismonan baquvat, sog'lom, ruhan tetik, ma'naviy yuksak, bilim va hunar sohibi, axloqan pok farzandlargina avlodning haqiqiy davomchisi hisoblangan.

Kelajagi buyuk davlatning egasi sog'lom va barkamol avlodlardir. Bunday avlodlarni tarbiyalashda xalq o'yinlari o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq o'yinlarini tasniflashdan maqsad shuki, ularni zamonaviy jismoniy mashqlar, sport o'yinlari bilan uyg'unlashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurti jismoniy madaniyati dasturiga moslashtirish, kelajakda mukammal ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar, harakat ko'nikmasi hamda malakalarining majmuasini ishlab chiqishdir. Undan tashqari, xalq o'yinlarining sog'lomlashtirish, ta'lim va tarbiyaviy yo'nalishlarini belgilashdan iboratdir.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Harakatli o'yinlarning mohiyati nimadan iborat?
2. Jamoali harakatli o'yinlar asosiy faoliyat turlari nechta turga ajratilgan?
3. O'zbek xalq o'yinlarini ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishiga ko'ra shartli ravishda qanday tasniflash mumkin?

3-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: MTTda o'yin faoliyatini tashkil qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin texnologiyalari.

Reja:

1. Tarbiyachi MTTda o'yin faoliyatini tashkil qiluvchi asosiy shaxs sifatida
2. Tarbiyachi MTTda o'yin faoliyatini tashkil qilishagi shaxsiy, kasbiy, tashkiliy xususiyatlari
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin texnologiyalari.

“Fikrlar to'qnashuvi” metodi

“Fikrlar to‘qnashuvi” metodi erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag‘ishlangan darslarda qo‘llaniladi. Bu metodning erkin fikrlash darslarida qo‘llanilishi va undan ko‘zda tutilgan maqsad quydagilardan iborat deyishimiz mumkin:

1. Talabalarining bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.
2. Talabalarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish.
3. Talabalarining avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish. Bu metoddan munozarali darslarning muvaffaqiyati ta‘minlash maqsadida qo‘llash uchun quyidagi holatlarni to‘g‘ri hal etish muhimdir:

- talabalarining darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishini;
- talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishini;
- talabalarining o‘z fikr-mulohazalarini to‘liq bayon qilishi va mantiqan dalillashni;
- talabalarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko‘nikmalarining hosil qilishni;
- talabaning iqtidori, e‘tiqodi, talabalarining bilim faoliyatini faollashtira olish ko‘nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va tarbiyachi pedagog e‘tibor qaratishi kerak bo‘lgan jihatlar

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va tarbiyachi harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

- ❖ Tarbiyalanuvchilarning jismoniy barkamolligiga, salomatligining yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a‘zolari va umumiy ish qobiliyatining o‘shishiga yordam berish;
- ❖ Tarbiyalanuvchilarda har xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va kerakli harakat malakalarini hosil qilish;

- ❖ Tarbiyalanuvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy sifatlarni tarkib toptirish;
- ❖ Tarbiyalanuvchilarni turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, kundalik jarayonlar tartibiga rioya qilishga odatlantirish;
- ❖ Tarbiyalanuvchilarda harakatli o'yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalarni hosil qilish;

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda jismoniy tarbiya yo'riqchisi va tarbiyachining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifalari

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda jismoniy tarbiya yo'riqchisi va tarbiyachi pedagogning tashkilotchi sifatidagi vazifalari ham bir qatordir. O'yin turlarini avvalo to'g'ri tanlanishi, ishtirokchi bolalar yoshi, jinsi, jismoniy va individual imkoniyatlariga monand bo'lishi kerak. O'yinlarni to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq holda o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin har doim ham tarbiyaviy vazifalari hal qilavermaydi. Tarbiya sohasida samarali natijaga erishish uchun harakatli o'yinlar tarbiyaviy ruhda tashkillashtirilishi va o'tkazilishi lozim. O'yin sardori guruh ishtirokchilarini to'laqonli bilishi, o'yinlarning qoida va mazmuni bilan obdon tanishib chiqishi, yuqori darajadagi pedagogik mahorat sohibi bo'lmog'i kerak. Shu orqaligina u harakatli o'yinlardan olinishi kutilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy natijalarga ega bo'ladi. O'yin davomida bolalar o'z xatti-harakatlari va individual o'ziga xosliklarini ko'rsatadilar. Bu bilan esa pedagog ishtirokchilarning xilma-xil odatlarini, ijobiy va salbiy qiziqishlarini bilib olishi, tegishli tadbirlarni belgilashi, o'yinlarni ma'lum yo'nalishga keltirib, ularda umuminsoniy fazilatlarni hamda o'zaro hamkorlik hislatlarini shakllantirishi kerak. Bu esa bolalarga o'yin tartib-qoidalarini buzmaganda ijodiy tashabbus ko'rsatishda har tomonlama yordam berishi lozim.

Tarbiyachi o'yinlarni tashkil qilish paytida pedagogikaning didaktik prinsiplaridan foydalanishi hamda har doim ularni amalda qo'llashga harakat qilishi kerak. Pedagog tarbiyalanuvchilarga o'yinlarning mazmun-mohiyati va tartib-qoidalarini yaxshilab anglatadi. Bu jarayon esa bolalarga o'yin davomida unga ongli ravshda munosabatda bo'lish, o'yinni to'g'ri va to'liq idrok qilish, kamchiliklari va

muvoftiqiyatlarini to'g'ri baholay olish va o'z faoliyatlaridagi harakatlarni tengdoshlarining harakat faoliyatlari jarayonlariga o'zaro qiyoslab analiz va sintez qilish uchun imkoniyat yaratib beradi. Tarbiyalanuvchilar harakatlarni o'zlashtirishda pedagogga bilar-bilmas taqlid qilishlari har doim ham to'g'ri hisoblanmaydi. Bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalarini tarbiyalashda pedagog o'rgatadigan va tarbiyalanuvchilar ongli ravishda bajaradigan harakatlar yordam bermog'i lozim. Bunga o'yinni to'g'ri o'tkazish uchun tarbiyalanuvchilardan hakamlar va hakam yordamchilari saylash orqali ko'zlangan natijaga erishiladi. Pedagog tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda tashkil etiladigan qisman murakkab qiyinchiliklarni yengish bilan aloqador bo'lishiga, o'yin faoliyati davrida bajariladigan vazifalarni bajarish va belgilangan to'siqlarni qay tartibda bosib o'tilishiga nisbatan qiyinlashtirib boriladi. Bunday jarayon bolalarni mehnatni sevishga hamda irodasini mustahkam qilishga undaydi. Pedagog o'yinni tashkil etishga tayyorlanish jarayonida o'yinning aniq vazifalarini belgilab, belgilangan vazifalar asosida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o'yinlarni bajaradigan bo'lmog'i lozim. O'yinni tashkil qilish va o'tkazish jarayonida avvalo tashabbuskor va faol bo'lgan holda tarbiyalanuvchilarni faoliyatlar yakunida rag'batlantirib borish ahamiyatlidir.

Pedagogning o'yin jarayonidagi tashkilotchiligi

O'yin paytida bolalarning faollik ko'rsatishi pedagogning ana shu o'yinni o'tkazishga qanday tayyorlanishiga ham aloqador bo'ladi. Pedagogning o'zi o'yinni aniq va yaqqol tasavvur qila olishi, o'yin paytida ishtirokchilarning o'zaro holatlarini yaxshi tushunishi kerak. O'yin rahbari keyinchalik bolalar o'yinni qanday o'zlashtirishlariga qarab, ularga sardorlik, hakamlilik qilish vazifalarini yuklatishi va bolalar o'yinga uyushqoqlik asosida faol ishtirok etadigan bo'lganlaridan keyingina, ular orasidan o'ziga yordamchilar tayinlashi lozim. Shunda ham bolalar o'yinini rahbarning o'zi kuzatib turmog'i kerak. O'yinni obrazlar orqali anglatish, eng asosiy vositalardan hisoblanadi. Bu ish, ayniqsa, mazmunli o'yinlarni so'zlab berishda nihoyatda zarur bo'lib, o'yin ishtirokchilari o'z vazifalarini to'g'ri bajarishlarida yordam beradi. Tarbiyalanuvchilar o'yin mazmunini chuqur anglab olishlari uchun

rahbar og‘zaki tushuntirishni amalda ko‘rsatish bilan, ya‘ni o‘yinining ayrim harakatlarini bajarib ko‘rsatish bilan olib borishi kerak. O‘yin qoidalarini anglatishda, harakatlarni ifodalab berishda, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishda uning aniq vazifalarini doimo nazarda tutishi zarur. O‘yinlarni rejalashtirishda ularning mohiyati va o‘zaro aloqadorligini ham unutmaslik muayyan yoshdagi tarbiyalanuvchilarni jismoniy tarbiyalash vazifalariga muvofiqligini hisobga olishi kerak. Misol uchun: mashg‘ulotlar davomida to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlar mavjud, ularga to‘pni uzatish va ilib olish, to‘pni o‘ynatgan holda olib yurish hamda savatga tashlash kabi o‘yinlarning o‘ziga xos tartib-qoidalari bor. Mana shunga oid bo‘lgan bilim va malakalari mustahkamlash uchun “To‘p onaboshiga” o‘yini yoki uch variantli “To‘p o‘yinlari”ni tavsiya etish mumkin. Shu sababli ishtirokchilarning o‘sish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos o‘yinlarni tanlash va o‘tkazish kerak. O‘yinlarning o‘ziga xos karakter va xususiyatlari shu bilan birga murakkablik darajasi ham mavjud. Shuning uchun o‘yinni tanlashda undagi qiyinchiliklari tarbiyalanuvchilar bir oz energiya sarflagan holda bajara olishlarini ko‘zda tutishlari lozim. Odatda tarbiyalanuvchilarda qiziqish uyg‘otmaydigan o‘yinlar ulardan yetarli darajada kuch sarflash va murakkab harakatlarni bajarib to‘siqlarga duch kelishni talab etmadi. Lekin kuch talab qiladigan o‘yin bolalarning qo‘lidan keladigan bo‘lishi ham kerak. Shundagina u bolalarda o‘z kuchlariga bo‘lgan ishonchni hosil qiladi va ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Juda yengil yoki haddan tashqari og‘ir o‘yinlar ham qiziqarli tarzda o‘tmaydi.

“Pedagog o‘yinlarni osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tamoyili bo‘yicha belgilashi kerak. Oddiy o‘yinlarni o‘tkazish uchun tayyorlanishda ularning sodda va jamoalarga bo‘lib tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bunday o‘yinlarning qoidalari juda oson bo‘ladi. Teng tarkibli jamoalarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bir oz murakkab va eng murakkab o‘yinlarga kiradi. Bunday o‘yinlarning qoidalari qiyinroq va murakkabroq ham bo‘ladi. Pedagog tanish o‘yinlardan notanish o‘yinlarga o‘tishni ham nazarda tutishi kerak. Bu tadbir bolalarni o‘yinga qiziqtirishda yordam beradi. Yangi o‘rganiladigan o‘yinlardagi harakatlarning tanish o‘yinlardagi harakatlarga o‘xshashi va ularga hali bolalar uchun noma‘lum

qoidalar va harakatlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, tarbiyalanuvchilar “Epchil bolalar” o‘yinini biladilar, endi ularga “Ikki niyoz” o‘yinini o‘rgatish mumkin va bu ish ancha oson bo‘ladi. Sababi esa biz aytgan bu o‘yinlarning qonun-qoidalari o‘zaro bir biriga o‘xshash, faqat ikkinchi o‘yin murakkabroqdir. Shu yo‘sinda o‘yinlarning bosqichma-bosqich murakkablik darajasi oshib boradi. Bu esa bolada yangicha harakat ko‘nikmalarining hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi hamda avvaldan hosil bo‘lgan harakat ko‘nikmalari takomillashadi. Tarbiyalanuvchilar harakat ko‘nikmalarini, shuningdek, ilgari olgan bilimlarini puxta o‘zlashtirishiga erishmoq uchun o‘yinlari muntazam ravishda takrorlab borishi zarur. Ammo bu bir xil o‘yinlarni takrorlayverish kerak, degan gap emas, balki mazmuni har xil o‘yinlarning ma’lum bir qismini takrorlab turish tarbiyalanuvchilarning o‘yinlarni puxta o‘zlashtirishlariga erishish, ularning bilim va malakasini uzluksiz tekshirib borish, hisoblanadi. Bunday ishlar ishtirokchilarining xato va kamchiliklarini topishda hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida tuzatishga imkon yaratadi. Tarbiyalanuvchilarning o‘yinlarni puxta o‘zlashtirishi ularga bu o‘yinlardan bolalar oromgohi va boshqa joylarda mustaqil ravishda foydalanish imkonini ham beradi”.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va tarbiyachi e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlarni sanang?
2. Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va tarbiyachining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogning o‘yin jarayonidagi tashkilotchiligi qanday bo‘lishi lozim?

4-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘yin texnologiyalilari yordamida mashg‘ulotlarda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanishi.

Reja:

1. Aqliy tarbiya va uning mazmun mohiyati
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanishi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanishida o‘yinlardan foyalanish

“SINKVEYN” metodi

“SINKVEYN” metodi—bu metod ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida va turlarida foydalanish uchun mo’ljallangan metodlar sirasiga kiradi va uning olib borilish jarayoni ta’lim oluvchilarga ijobiy kayfiyat beradi. Bu metod besh qatordan iborat bo’lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit soʻz) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqllovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda unga harakat-holat (fe’l) bilan to’ldiriladi. To’rtinchi qatorda soʻz har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit soʻzning ma’nodoshi (sinonimi) keltiriladi. Bu metod mavzuni mustahkamlashdan tashqari dars jarayonidagi toliqishlar va bir xilliklarning oldini ham olishga yordam beradi.

Mavzuning bayoni: Bolalarning intellektual rivojlanishi ta’lim jarayonida muhim omillardan biridir. Zamonaviy pedagogika va psixologiya sohalarida bolalarning o’yin orqali o’rganishi ularning aqliy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali usul ekanligi isbotlangan. Jean Piaget bolalarning bilish jarayonlari o’yin orqali rivojlanishini ta’kidlagan bo’lsa, Lev Vygotsky ijtimoiy muloqot va o’yinlarning ta’limdagi o’rniga urg’u beradi. O’yinlar bolalarning atrof-muhitni o’rganish, yangi bilimlarni o’zlashtirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko’ra, o’yinlar bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida o’yinlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Jean Piaget bolalarning tafakkur rivojlanishini to’rt bosqichga ajratadi:

- 1) Sensomotor bosqich (0–2 yosh) – bola sezgilari va harakatlari orqali o’rganadi.
- 2) Preoperatsional bosqich (2–7 yosh) – bola ramziy o’ylash va tasavvur qilishni o’rganadi.
- 3) Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh) – mantiqiy fikrlash shakllanadi.

4) Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan katta) – abstrakt tafakkur rivojlanadi.

Lev Vygotsky esa bolalarning bilim olish jarayonida ijtimoiy muloqot va rolli o'yinlarning katta o'rni borligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bolalar o'yin orqali kattalarning tajribalarini o'zlashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rganadi. Howard Gardner esa bolalar turli intellektual yo'nalishlarga ega ekanini va har xil o'yinlar ularning qobiliyatlarini o'stirishini ta'kidlaydi. Masalan, musiqiy o'yinlar eshitish qobiliyatini, mantiqiy o'yinlar esa matematik tafakkurni rivojlantiradi.

Shaxmat va dama – tahliliy tafakkurni rivojlantiradi.

- Sudoku, krossvord va jumboqlar – mantiqiy fikrlashni mustahkamlaydi.

- Matematik viktorinalar va hisob-kitob o'yinlari – matematik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Lego va mozaikalar – muhandislik tafakkurini rivojlantiradi.

- Rassomchilik va hunarmandchilik o'yinlari – tasavvur va san'atga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

- Drama va rolli o'yinlar – hissiy intellektni oshirishga xizmat qiladi.

Jamoaviy o'yinlar

- "Sherik top", "Jamo bilan muammo hal qilish".

- Emotsional intellektni oshirish uchun o'yinlar

- "Men qanday his qilyapman?" o'yini.

Bolalarning aqliy rivojlanishida o'yinlar katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yinlar mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur, xotira va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, bolalarning stressni kamaytirishiga va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga ham yordam beradi. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar bolalar uchun o'yinlar tanlashda ongli yondashishlari lozim.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim olishlari uchun keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Sohada amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning bosh maqsadi yurtimiz kelajagi bo'lgan bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yini xilma-xildir.

Ularni o'yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bulib o`ynaladigan o`yinlar;
- 2) Dilaktik o`yinlar;
- 3) Harakatli yoki qoidali o`yinlar;
- 4) Aralashtirilgan o`yinlar;
- 5) Ko`rish va yasash o`yinlari.

Syujetli va rollarga bo`lib o`ynaladigan bog`cha yoshi bolalarni eng asosiy o`yin formasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko`proq «bog`cha-bog`cha», «poezd-poezd» kabi kizikarli bulgan o`yinlar o`ynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o`yinlari bir xil bulsa xam syujeti xar xil bo`ladi. Masalan: kichik guruh bolalari «bog`cha-bog`cha» o`yinini o`ynar ekan ular peshinga ovqat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo kesilgan non qo`g`irchoqlarga berilmaydi, pishirilgan ovqat tarelkaga suzilmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbi Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o`yinlarni roli katta. Didaktik o`yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida maxsus dastur asosida olib boriladigan mashgulotlarni muvaffaqiyatli o`tkazishga, katta guruxh bolalarini maktabdagi o`qish faoliyatiga tayyorlashga katta yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o`yinlari ichida harakatli yoki koidali o`yinlar xam muximdir. Chunki harakli o`yinlar bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtiradi, dadil, qo`rqmas, epchil bulishga undaydi. Bolalarga tashabbuskorlik, jamoa, burch hislarini ustiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «oq quyoncha o`tiribdi», «yetib ol» o`yinlari

kiradi. Harakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tkaziladi. Drammalashtirilgan o'yinlarni xam bolalar sevib o'ynaydilar. Bu o'yinlar turli xil ertak va hikoyalar sahnaga qo'yiladi, rollarni esa bevosita bolalarning o'zlari ijro etadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Sholgom» drammati o'yinlar bolalarni nutqi xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari orasida qurish-yasash o'yinlari hammaga ma'lum bir maksadga qaratilgan bo'ladi. O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda urganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bulib o'ynashni yoktiradilar bu psixologik bolani umumiy tarakkiyotiga ta'sir etadi. SHuning uchun tarbiyachilar jamoa o'yinlarga tortishlari kerak. Bola psixikasining taraqqiy etishda o'yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o'yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o'yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shartsharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali

o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shartsharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mutaqlil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) sub'ekt (jonzot) onginging dastlabki ob'ekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. SHunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojets). Bolaning o'yinlar shartsharoitidan kelib chiquvchi ongil maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi. Bolaning laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada olinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi. o'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham jobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan vva osonroq egallashmumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining ifodasini topadi. Bolalar "Kamalakrang pufaklar" o'yini orqali turli ranglarni ajratishni o'rganishadi va ularni farqlashni anglashadi. Bu o'yin orqali bolalar tasavvur qilish qobiliyatlarini shakllantiradilar hamda estetik jihatdan ranglarni joy-joyiga qo'yishni farqlashadi. Shuning uchun bu o'yinni bajartirishga

harakat qildimTavsiyalar Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya qilamiz. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanishini anglash hamda turli o'yinlar tashkil qilish lozim. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishda muhimligini anglash.

Nazorat savollari

1. Aqliy tarbiya va uning mazmun mohiyatini tushuntiring?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanishi haqida gapiring?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanishida o'yinlardan foyalanishning ahamiyati?

1-Seminar mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'limda milliy xalq o'yinlari.

Reja:

1. Milliy xalq o'yinlar va ularning mazmun va mohiyati
2. Milliy xalq o'yinlar va ularning turlari
3. Maktabgacha ta'limda milliy xalq o'yinlarining ahamiyati

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u talabalardagi fikriy bog'liqlikning va mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muommoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya talabalarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalanish mumkin. Mazkur texnologiyadan mashg'ulotning quydagi qismlarida foydalanish mumkin.

- mashg'ulot boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («aqliy hujum»);

- mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish uchun;

- mashg'ulot oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. «Skarabey» texnologiyasi talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanish mumkin. «Skarabey» texnologiyasi alohida ishlash jarayonida, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin. Ta'limdan tashqarida mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini ta'minlaydi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirish;
- «men»ligini ifodalash;
- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi.

Mavzuning bayoni: Mustaqillik sharofati tufayli jismoniy tarbiya va sport sohasida keng istiqbollar ochilmoqda, bu ayniqsa xalqning milliy o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida namoyon bo'lmoqda. Ularni doimiy va muntazam qo'llash yaxshi natija bermoqda, o'quvchilarni sog'lom, baquvvat, chaqqon, kuchli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ilgarilari keng omma ishtirok etgan Navro'z bayramlari, sayillar, to'ylarda xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, umuman milliy sport turlarisiz o'tkazilmagan. Afsuski, mamlakatda ular butunlay esdan chiqib,

unutilayozdi, shuning uchun ularni izlash va tiklash o'z xalqini va millatini e'zozlagan har bir kishining burchi bo'lib kelmog'i kerak. Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan ularni o'rganish, tadbiq etish shu kunning va kelajak avlodni tarbiyalashda eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonda tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlarini hayotga tadbiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, oilada maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirishi o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishi muqarrardir. Milliy xalq o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, rasm-rusumlarida va urfodatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, bahslarda keng qo'llanilgan. Jismoniy tarbiya xalqning urfodatlarida, udum va rasmrusumlarida shakllanib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan. Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy xalq o'yinlari "Otda chopish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda o'q otish", "Chillak", "Oq suyak", "Soqqa", "Besh tosh" kabi va boshqa o'yinlar orqali botirlik, epchillik, tezkorlik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda hamda qaddi-qomatni shakllantirish, ahloq-odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog'liqni mustaqamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan. So'nggi yillarda mustaqillik tufayli millatimiz qadriyatlari sifatida tanilgan o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining mavqei va maqomi tamomila tiklandi, ular yana yoshlar tarbiyasidan o'rin oldi, turli milliy bayramlarimiz, tantanayu marosimlarimizda keng qo'llanila boshladi. Ular ta'lim muassasalari o'quv rejalari tarkibiga fan sifatida kiritildi, ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazila boshladi. "To'maris va Alpomish o'yinlari" festivallari dasturlaridan joy oldi. 1998 yil 13-14 noyabr kunlari Termiz shahrida "Alpomish o'yinlari" birinchi Respublika Festivali bo'lib o'tdi. Xalq milliy o'yinlari va tomoshalaridan jamlangan bu festival millatimiz g'ururi, oriyati iftixori, nomusi hisoblanmish Alpomish siymosiga, boy milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat, e'tibor tantanasidir. Haqiqatdan, xalqimizning o'tmishi pahlavonlik va bahodirlik san'ati bilan singdirilgan. Chunki unda "Kurash", "Tortishmachoq", "Bo'ron",

“Mindi”, “Turon” yakkakurashi kabi musobaqalar bo’yicha bellashuvlar o’tkazilishi millatimiz salomatligi uchun muhim asos bo’ladi O’rta Osiyo xalqlarini otsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki xalqning urf-odatlar, to’y-tomoshalari, o’yin-kulgusining bosh yordamchisidan biri ot hisoblangan. Otda yurib ov qilish, ot ustida turib kamon tortish, qilichbozlik, nayzabozlik qilish, ot ustida kurash tushish, ot poygasi, uloq va boshqa juda ko’p jismoniy mashq turlari bunga yorqin misol bo’la oladi. Og’zaki xalq ijodiyotidagi “Alpomish va Barchinoy”, “Go’ro’g’li”, “Qirqqiz”, “Kuntug’mish” va boshqa dostonlarda ot asosiy qahramondan keyin ikkinchi o’rinda to’laqonli ta’rif etilgan. Masalan, ajoyib chavandoz, mohir mergan, kuchli pahlavon degan tushunchalar ot bilan bog’liq bo’lgan o’yinlarda ishlatilgan. Umar Hayyom otning qirq ikki zotini keltiradi va har qaysisiga alohida ta’rif beradi: “Charmar nihoyatda tez va ziyrak. Siyoxcharm – baxt keltiradi. Kumayit qiyinchiliklarga chidamli. Mabdech – baxt keltiradi, lekin tez emas”. Butun olamga mashhur bo’lgan Jizzaxning “Qorabayiri”, Surxondaryoning “Boychidari”, “Girkuki”, “Ko’k kaptari”, “Chambil bellari” deb atalgan zotdor otlari deyarli yo’q bo’lib ketgan. Qatag’on yillari otlarga juda katta soliq solindi, oqibatda ba’zi odamlar otini so’ydi, ba’zilar esa davlatga tekinga berdi. Navro’z bilan bog’liq juda ko’p urf-odatlar ijro etiladi: boychechak aytish, laylak keldi, ertayoz o’yinlari – qizlarning to’p toshi, sumalak pishirish, kelin tushdi va boshqalar. Yuqorida qayd etilgan ayrim o’yinlar yo’qolib bormoqda, ularni biladigan va o’rganadiganlar soni kamayib ketmoqda. Shuning uchun Navro’z bilan bog’liq bo’lgan ko’pgina xalq o’yinlari, raqslar va milliy sport turlari o’z yechimini kutmoqda. Ularning yechimi bilan bog’liq bo’lgan muammolarni muvofiqlashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yangilanish jarayonidan darak beruvchi mazkur bayram forscha “Navro’z” – “Yangi kun” ayrim hududlarda esa “Yilboshi” deb ataladi. Shu sababli 1991, 1996 yilda Jizzaxning Forish tumanida, 1998 yilda Termizda bo’lib o’tgan “Xalq o’yinlari, milliy sport turlarini qaytadan tiklash va aholini jismoniy tarbiyalashda ulardan keng foydalanish usullari”ga bag’ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida yuqorida qayd etilgan masalalar haqida batafsil va atroflicha muhokama qilingan ma’lumotlar berilgan. Chunonchi, F.Xo’jaev, G.Bogdanovning

maqolasida o'zbek xalq o'yinlarining tarixiy negizi ko'rsatilgan. Ulug' alloma, mutafakkir, hakim Abu Ali ibn Sinoni mazkur o'yinlarni davolashdagi ahamiyati berilgan. 1996 yil Bangkokda (Tayland) milliy o'yinlar bo'yicha Jahon festivali bo'lib o'tdi. Bu festivalda turli xil davlatlar o'z milliy o'yinlari bilan qatnashdi. O'zbek delegatsiyasi "Qal'a himoyasi", "Chillak", "Mindi", "Jami", "Lapta" o'yinlari bilan qatnashdi. Milliy o'yinlarni tiklash va turmushga qaytarish milliy qadriyatlarimizni, ularni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga keng joriy etish davlatimiz jismoniy tarbiya tizimining muhim vazifalari turkumiga kiradi. O'zbek xalq o'yinlarining tasnifi (klassifikatsiyasi), tavsifi va ulardan foydalanish Xalq milliy o'yinlari, jumladan o'zbek milliy o'yinlari barcha xalq-elatlar kashfiyotlari kabi (musiqa, kulolchilik, gilam to'qish asboblari, ashula va raqs, ertak va h.k.) insoniyat tarixining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o'ziga xos etno- va filoontogenetik xususiyatlar asosida "ixtiro" qilingan va shakllanib kelgan. Respublikamizning turli mintaqalarida xalq harakatli o'yinlari aholining turli yosh va qatlamlari o'rtasida azaldan rivojlanib kelgan bo'lsada, "oq" va "qizil" imperiyalar davrida ushbu o'yinlarning ommalashuvi nihoyatda chegaralangan edi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach xalq milliy harakatli o'yinlari millatimiz qadriyatlari sifatida qayta tiklana boshladi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylandi, balki barcha ta'lim muassasalari o'quv rejalariga to'laqonli fan sifatida kiritilgan. Ammo, shuni ham ta'kidlash zarurki, xalq milliy harakatli o'yinlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati xali deyarli o'rganilmagan. Ayni kunda yuqorida muhokama etilgan milliy harakatli o'yinlarning ochilmagan qirralari, ushbu yo'nalishga oid muammolarni o'rganish va hayotga tadbiq etish mamlakatimiz jismoniy tarbiya tizimidagi dolzarb masalalardan biridir. O'zbek xalq o'yinlari xalqning o'ziga xos urf-odatlaridan, turmush sharoitidan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llanilgan. Lekin shu vaqtgacha aksariyat mutaxassislar o'zbek xalq o'yinlariga alohida tasnif (klassifikatsiya) va tavsif (xarakteristika) berishni ko'zda tutmaganlar, yoki yetarli

darajada ahamiyat bermaganlar. Ta'kidlash joizki, agar shunday tasnif va tavsif berilsa, o'zbek xalq o'yinlari va umuman harakatli o'yinlar ancha yutuqqa ega bo'lar edi. Chunki har bir o'yinni tasnifini va tavsifini bilgan holdagina undan foydalanish zaruriyati ham, joyi ham to'g'ri belgilanadi. Ma'lumki o'zbek xalq o'yinlari o'z ichiga harakat jihatdan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan. Shu bois ularni yo'nalishlar bo'yicha ajrata bilish zarur deb topiladi. Demak ularni tasniflash (klassifikasiyalash) zarur o'rinni egallaydi. Shu yo'sinda bizning fikrimizcha o'zbek xalq o'yinlarini quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

O'zbek xalq milliy o'yinlari

Hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: osilish va osilib chiqish: "Maymunchalar", "Oq ayiqlar"; yurish, yugurish: "Quvlashmachoq", "Mokki"; o'tirish, turish: "Baqa", "Tovuq va tulkilar"; to'xtash sakrash: "Qarmoqcha".

Jismoniy sifatlari rivojlantiruvchi o'yinlar: kuch: "Tortishmachoq"; tezkorlik: "Kun va tun"; epchillik: "To'p uchun kurash", "Lapta", "Qirq tosh"; chidamkorlik: "Quvib et"; egiluvchanlik: "Ko'prik va mushuk".

Aqliy-ruhiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar: diqqat: "Ta'qiqlangan harakat"; xotira "Daqiqa"; hissiyot: "To'xta"; tafakkut: "Shaxmat"; ayyorlik: "Vandan-zo'ri"; jasurlik: "Cho'nqa shuvoq".

Uy-ro'zg'or ishlariga xos harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Supur-supur", "Qovun uzatish". Kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar: "Burgut va burgutchalar", "Otishma".

Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o'yinlar: "Kim oladi", "Oq terakmi, ko'k terak", "Pahmoq kuchuk". Hisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Besh tosh", "Lyanka", "Qirq tosh"

Yilning turli fasllarida qo'llaniladigan o'yinlar: "Barrak", "Yomg'ir yog'aloq", "Chillak", "Topishmachoq top", "Lyanka", "Tez ayt", "Yong'oq". Kunduz va tunda o'tkaziladigan o'yinlar: "Oq suyak", "Cho'loq qarg'a".

Suvda o'tkaziladigan o'yinlar: "Suvda quvlashmachoq", "Tez suzish", "Suv ostida suzish".

Turli yoshli bolalar va kattalar o'rtasida o'tkaziladigan o'yinlar: "Quvlashmachoq", "Bekinmachoq", "Bayroqcha uchun kurash", "Kun va tun", "Oq terakmi, ko'k terak", "Yong'oq o'yini".

O'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida o'tkaziladigan o'yinlar: "Eshak mindi", "Besh tosh", "Sopalak", "Xo'rozlar jangi", "Arqon sakrash", "Mindi", "Xola-xola", "Ovqat pishirish", "Ovga chiqish", "Urush-urush", "Soqqa", "Quloq cho'zma", "Durra", "Chori-chambar".

Darsning tayyorgarlik qismida qo'llaniladigan o'yinlar: "Kosmonavtlar", "Tez o'z o'rniga", "Kun va tun".

Darsning asosiy qismida qo'llaniladigan o'yinlar: "Jami", "Otib qochar", "Qirq tosh".

Darsning yakuniy qismida qo'llaniladigan o'yinlar: "Kim keldi", "Kimni ovozi", "Durra soldi", "Daqiqa", "Momojon yordam bering".

Sport turiga xos harakat malakalarini shakllantirishda qo'llaniladigan o'yinlar: "Qal'a himoyasi", "To'pni qaytar", "Uzatdingmi o'tir", "Quvib yet", "Kun va tun", "O'ylab top", "G'ovvoslar".

Sog'lomlashtirish maskanlarida o'tkaziladigan o'yinlar: "Semir pufagim", "Besh tosh", "Keglini urib yiqit", "Insiz quyon".

Qo'shiqlar bilan ijro etiladigan o'yinlar: "Lapkar", "Tez aytish", "Guldurgup", "Oq terakmi, ko'k terak".

To'ylarda qo'llaniladigan o'yinlar: "Quloq cho'zma", "Oq suyak", "Xo'roz, it, qo'chqor urushtirish".

Harbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar: "Qorako'z bo'y-bo'y", "TIM", "Urush-urush", "Asir olish".

Xalq sayillari va marosimlarda o'tkaziladigan o'yinlar: "Olamon poyga", "Uloq", "Qiz quvlash", "Cho'nqa shuvoq".

O'zbek xalq o'yinlarida kasalliklarni davolash uchun va o'rgatish jarayonida keng ko'lamda foydalanish mumkin. Kasallikni oldini olish uchun qo'llaniladigan o'yinlarni o'yinlar bilan kasaldan chiqqan odamda qo'llaniladigan o'yinlarni farqini bilish juda zarur. Chunki ularni jismoniy yuklanishi (nagruzkasi) bir-biridan ajralib turishi darkor. O'rgatish jarayonida esa ko'nikma va malakalarni shakllantirishga muvofiq o'yinlar tanlab beriladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutib o'zbek xalq o'yinlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Harakat sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar;
2. Darsni ayrim qismlarida qo'llaniladigan o'yinlar;
3. Turli yoshdagi bolalar faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar;
4. Bolalar jinsiga qarab qo'llaniladigan o'yinlar;
5. Ruhiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o'yinlar;
6. Yorug' va qorong'u sharoitlarda qo'llaniladigan o'yinlar;
7. Hayotiy zarur malakalarni egallashda yordam beruvchi va takomillashtiruvchi o'yinlar;
8. Sport faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar.

Shu tavsiflarni ochib berish masalalarini keyingi sahifalarda ko'ramiz.

Nazorat savollari

1. Milliy xalq o'yinlar va ularning mazmun va mohiyatini tushuntiringa?
2. Milliy xalq o'yinlar va ularning turlarini sanang?
3. Maktabgacha ta'limda milliy xalq o'yinlarining ahamiyatini izohlang?

2-Seminar mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlar.

Reja:

1. Didaktik o'yinlar va ularning mazmun mohiyati
2. Didaktik o'yinlar va ularning turlari
3. Didaktik o'yinlar va ularning ahamiyati
4. Didaktik o'yinlar va ularning imkoniyatlari

«Insert» strategiyasi metodi

Guruh talabalari guruhlariga bo'linadilar, guruhlar alohida nomlar bilan nomlanadi. O'qituvchi har bir guruh o'quvchilaridan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so'raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a'zolari faol ishtirok etishlarini ta'minlashi maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o'qituvchi mavzular mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi matnni o'quvchilarga tarqatadi. So'ngra shunday topshiriq beriladi:

a) matn bilan tanishib chiqing;

b) matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

Z-matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o'z aksini topgan bo'lsa;

S-matnda guruxlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo'lsa;

D-matnda bir biriga zid fikrlar mavjud bo'lsa;

? -matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoqlashadilar, guruh bo'yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O'qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni o'quvchilar to'g'ri xal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi. Shundan so'ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratidalar ular o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar. Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan guruh jamoasiga yetkaziladi.

Mavzuning bayoni:

MAQSAD: didaktik o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni oson o'zlashtirish va mustahkamlashga imkoniyatlarini aniqlash, didaktik o'yinlarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati, ularning asosiy turlari hamda samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni qiziqtirish vositasi sifatida tadqiqotning metodologiyasi keng qamrovli tahlil, tarkibni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, empirik tadqiqot usullari va boshqalardan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko'rsatadiki, dars mazmuniga mos va puxta rejalashtirilgan didaktik o'yinlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar asosida o'qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

XULOSA: didaktik o'yinlar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim olish faoliyatini qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarning mohiyati. Didaktik o'yin — bu ma'lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o'quv jarayonida bilim olishni o'yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat

o'quvchilarning bilimini oshirishga, balki ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarning turlari. Didaktik o'yinlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ulardan foydalanish darsning maqsadi, mazmuni va bosqichiga bog'liq. Asosiy turlaridan ayrimlarini qo'rib chiqamiz: ma'lumotli o'yinlar. bu o'yinlar bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. masalan, viktorinalar, jumboqlar yoki savol-javob o'yinlari; rolly o'yinlar. o'quvchilar muayyan rollarni bajarish orqali o'rganayotgan mavzuni chuqurroq tushunadilar. masalan, tarixiy voqealarni sahnalashtirish; mantiqiy o'yinlar. mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan. masalan, krossvordlar, topishmoqlar; harakatli o'yinlar. ayniqsa, boshlang'ich sinflarda qo'llanilib, jismoniy faollik bilan birga bilim berishni maqsad qiladi.

Ma'lumotli o'yinlar haqida gap yuritadigan bo'lsak ular o'quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam beradigan didaktik o'yinlarning bir turidir. Bu turdagi o'yinlar, odatda, savol - javoblar, viktorinalar, jumboqlar yoki ma'lumotlarni sinashga qaratilgan topshiriqlar orqali tashkil etiladi. Ma'lumotli o'yinlar quyidagi afzalliklarga ega: qiziqarli o'qitish. ushbu o'yinlar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi; mustahkamlash. ma'lumotli o'yinlar orqali o'quvchilar o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. masalan, til o'rgatishda so'z boyligini oshirish uchun so'z o'yinlari, matematikada esa sonli masalalarni yechish orqali bilganlarini mustahkamlash mumkin. o'yin jarayonida bilimlar qayta tiklanadi va ko'nikmalar rivojlanadi; ko'p sonli ishtirokchilarni jalb qilish. guruhli yoki jamoaviy o'yinlar barcha o'quvchilarni jarayonga jalb etish uchun samarali usuldir. bu usul o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, birgalikda muammolarni hal qilishga va bir-birlaridan o'rganishga imkon yaratadi. misol uchun, "javobni top o'yini" yoki "jamoaviy viktorina" kabi mashqlar guruhni birlashtirishda foydalidir; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. jumboqlar, savol-javoblar va masalalar yordamida o'quvchilar o'z mantiqiy fikrlash

qobiliyatlarini rivojlantiradilar. masalan, matematik mantiq jumboqlari yoki algoritmlarni tuzishga qaratilgan mashqlar orqali bolalar analitik fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. bu o'yinlar nafaqat bilimlarni, balki muammoni hal qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Masalan, "Kim tezroq javob beradi?" nomli o'yin o'quvchilarga mavzu bo'yicha savollar berib, ularning tez va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, tarixiy mavzularda "Tarixiy sanalarni toping" kabi viktorinalar o'quvchilarning faktlarni eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu o'yinlar ta'limning ko'plab sohalarida, xususan, til o'rganish, matematika va tarix fanlarida muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Didaktik o'yinlarning ahamiyati: o'quvchilarning qiziqishini oshirish. Didaktik

- o'yinlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. o'yin davomida o'quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o'zlashtiradilar va o'z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. masalan, til o'rgatishda "so'z topish" o'yini yoki matematikada "savol -javob" mashqlari qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi;

- bilimlarni mustahkamlash. o'yin shaklidagi topshiriqlar orqali o'quvchilar darsda olgan bilimlarini takrorlaydilar va amaliyotda qo'llaydilar. bunday o'yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga, ular orasidagi bog'lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. masalan, tarix fanida viktorinalar yoki kimyo fanida tajribalar orqali bilimlar mustahkamlanadi;

- ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. didaktik o'yinlar o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni taklif qilish va ularni amalga oshirishda ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. masalan, "rol o'yinlari" yoki "muammo hal qilish" mashqlari ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;

- jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantirish. didaktik o'yinlarning ko'pchiligi guruhda amalga oshirilgani sababli, o'quvchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, fikr almashishni va o'zaro hurmat qilishni o'rganadilar. masalan,

"jamo'a bilan yechim topish" o'yini orqali hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. bu ko'nikmalar nafaqat darsda, balki hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar: dars mavzusiga mos o'yin tanlash.

- o'yin dars mazmuniga mos bo'lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi zarur. masalan, matematikaga oid mavzuda matematik masalalarni yechishga mo'ljallangan o'yin tanlash samaradorlikni oshiradi ;

- oddiy qoidalarini belgilash. o'yin qoidalari o'quvchilarga tushunarli va sodda bo'lishi lozim. murakkab qoidalar o'quvchilarning qiziqishini pasaytirishi va vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. shuning uchun o'yin boshlanishidan oldin qoidalar aniq tushuntirilishi lozim;

- faoliyatni muvozanatlashtirish. o'yin davomida barcha o'quvchilar teng ishtirok etishi ta'minlanishi kerak. guruhdagi barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb qilish uchun rollarni teng taqsimlash muhim. masalan, "savol-javob" o'yinida savollarni navbat bilan berish orqali har bir o'quvchi qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- tahlil va baholash. o'yin yakunida natijalar muhokama qilinib, xulosa chiqarilishi lozim. bu jarayon o'quvchilarning o'z xatolarini tahlil qilishlari, ulardan saboq olishlari va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishishlariga yordam beradi;

- o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish. har bir o'quvchi individual xususiyatlarga ega. didaktik o'yinlarni tanlash va o'tkazishda o'quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo'llash zarur.

O'yin davomida asosiy maqsad - mavzuni o'zlashtirish ekanligini unutmaslik lozim. shuning uchun o'yin uchun belgilangan vaqtni aniq belgilash va uni nazorat qilish muhimdir. masalan, qisqa vaqtga mo'ljallangan "blits-so'rov" yoki "tezlikka javob ber" kabi o'yinlar darsning asosiy qismini buzmaydi;

innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'yin jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. masalan, interaktiv doska, mobil ilovalar yoki onlayn platformalarda o'tkaziladigan o'yinlar orqali darslar qiziqarliroq bo'ladi.

matematik masalalarni hal qilish uchun "kahoot!" yoki "quizizz" kabi platformalar juda samarali;

o'quvchilarni rag'batlantirish. didaktik o'yinlar davomida rag'batlantirish vositalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziq ishini oshiradi. g'oliblarni maqtash, ularga kichik sovg'alar yoki baholar berish motivatsiyani kuchaytiradi. rag'batlantirish natijasida o'quvchilarda yanada faol ishtirok etish istagi paydo bo'ladi.

Ushbu tavsiyalar orqali didaktik o'yinlarni samarali o'tkazish va ta'lim sifatini oshirish mumkin. O'qituvchilar mazkur usullardan foydalanib, o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradilar va ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydilar. Didaktik o'yinlarni ta'limda kengroq qo'llash va ularni turli fanlar bo'yicha moslashtirish zarur. Bu o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Didaktik o'yinlar va ularning mazmun mohiyatini izohlang?
2. Didaktik o'yinlar va ularning turlarini sanang?
3. Didaktik o'yinlar va ularning ahamiyatini gapiring?
4. Didaktik o'yinlar va ularning imkoniyatlari qanay?

3-Seminar mashg'ulot

Mavzu: Maktabgacha ta'limda ijodiy o'yin turlari.

Reja:

1. Ijodiy o'yinlar va ularning mazmun mohiyati
2. Ijodiy o'yinlar va ularning turlari
3. Maktabgacha ta'limda ijodiy o'yinlarning ahamiyati

«Zig-zag» strategiyasi metodi

Guruh talabalari 7 ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. Talabalar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining talabalari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Mavzuning bayoni: So'nggi yillarda mamlaktimizda maktabgacha ta'lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta'lim tizimiga doir tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida to'xtalib, bir qancha vazifalarni belgilab berdilar. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish masalasini alohida ta'kidlab o'tgan. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan qarori hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi, 2022-yil 4-fevralda qayta takomillashtirilgan nashrning chop etilishi, 2020 yil 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashga doir "Ilm yo'li" variativ dasturining va bir qator innovatsion dasturlarning yaratilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash uchun yanada keng imkoniyatlar yaratdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o'yinlardan foydalanish texnologiyasini joriy etish va amalga oshirishda maktabgacha davlat ta'lim dasturini, bu sohaga oid qator o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida ijodiy o'yinlarning bola rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganib, turli fikrlar bildirib o'tishgan. Yusuf Xoshojib, Axmad Yugnakiy, Bahovuddin Naqshbandiy, Shayh Najmiddin Kubro, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar o'z hayoti va ijodiy faoliyati davomida farzand tarbiyasi, bola shakllanishida atrof-muhit ta'siri to'g'risida bir qator ishlar olib borishgan.

Shaxsni shakllanishi va rivojlanishida o'yin orqali muloqot yetakchi o'rin tutishi haqidagi g'oyalar (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy, A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn); hissiy tartibga solish tizimini darajali tashkil etish modeli (V.V.Lebedinskiy va boshqalar, 1990, M.K.Bardyshevskaya, V.V.Lebedinskiy, 2003); aloqa nazariyasi M.I.Lisina; qobiliyatlar nazariyasi B.M.Teplovalar tomonidan tadqiq etilgan. Bolalar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Tarbiyachi ya'ni, pedagog o'z kasbining mohir ustasi bo'lishida undagi bolalar bilan bo'lgan hamkorlik, muloqot ya'ni kommunikativlik o'z aksini ko'rsatadi. U bolalar bilan faoliyatni samarali olib borishni, ular bilan muloqot qilishni bilishi, suhbat, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim. Muloqot, kommunikativlik qobiliyati har bir bolada to'liq va erkin shakllangan deya olish mushkul. Shu sababli, bolani jamoaga kira olishi, o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishida pedagoglik mahorati katta rol o'ynaydi. Bunda esa, ijodiy o'yinlar orqali munosabatga kirishishda muhim ahamiyatga ega.

Shu jumladan, o'yin texnologiyasini maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola dunyoni o'yin orqali

taniydi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S.Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi: • maftunkorlik; • kommunikativlik; • o'z imkoniyatlarini amalga oshirish; • tashxis; • o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot; • ijtimoiylashuvlik. Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega: - erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega; - ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud; - emotsional ta'sir - bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi; - asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi. O'yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning turlari juda ko'p bo'lib, quyida ularga alohida to'xtalib o'tamiz. Jumladan: ijodiy o'yinlar turlari. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarakatrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida namoyon bo'ladi. Syujetlirolli o'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmunining manbai hisoblanadi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarakatrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Bolalar o'yinining o'ziga xos tomoni

unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. O'yinning syujeti – bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqeahodisalar yig'indisidir. Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o'ynayotganda har xil harakatlarni bajaradi. Ya'ni, yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o'tadi, engashdi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hakoza. Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o'z xohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'ladi. Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o'yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topqirlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p suhbatlashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib bershga to'g'ri keladi. Bular esa, bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashishlariga olib keladi. Buning hammasi bola tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Ijodkorlik bilan bog'liq tushunchalardan biri divergent fikrlashdir. Divergent fikrlash - bu muammo yoki savolga bir nechta yechimlarni yaratish qobiliyati. Ushbu ko'nikma ijodkorlik uchun juda muhimdir, chunki u bolaga turli xil imkoniyatlarni o'rganishga va innovatsion g'oyalarni taklif qilishga imkon beradi. Ba'zi tadqiqotchilar, "ijodkorlik" atamasini qisqartirib, bilimga oid faoliyatni, ya'ni muammoni yoki voqeani yangi yoki noan'anaviy tarzda ko'ra olishni o'z ichiga olgan. Zamonaviy psixologik va pedagogik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bunda san'atning barcha turlari, nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatlarini, balki "inson faoliyatining barcha sohasida amalga oshadigan" - ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Bola san'atga qanchalik erta kirib kelsa, rivojlanish jarayoni ham samarali kechadi. Ma'lumki, teatr hayotning ko'rgazmali shaklining badiiy aksi bo'lib, obrazlar orqali dunyoni qabul qilishga asoslanadi. Teatrda ma'no

va mazmunni ifodalashning o'ziga xos vosita, aktyorlar o'yinida paydo bo'ladigan sahna asaridir. Biroq bolalarni asosiy estetik ta'limi sohasida musiqiy-teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo'nalish bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonlarni tashkil qilishning shakllaridan biri – o'yin – ya'ni rol ijrosi va aktyorlik. Sahnalashtirish mashg'ulotlarining musiqiy komponenti teatrning taraqqiyoti va ta'limiy salohiyatini kengaytirishdir, hissiy samaradorlikni oshirishda bola dunyoni his qilishi va kayfiyatiga ta'sir etishi, shuningdek musiqa tilining fikri va hissiyoti, teatrdan mimika va jestga qo'shiladi. Bunday holatlarda sensor-perspektiv analizatorlarning (kuzatuvchi, eshitish, harakatli) hajmi va miqdori ortadi. Bunday holda bolalarda hissiy-perseptual analizatorlarining soni va hajmi (vizual, eshitish, vosita) ortadi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari "rol o'ynash", "qo'shiq aytish" va "raqsga" tushishlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko'rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg'otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarni qondirish bilan muammolardan xolos qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo'shiq so'zlari hissiy tizimlar bilan bog'langanligi tufayli, bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo'shilishi, sahnaga qarashi, hatto "o'zi"ga ham qarash tajribasini egallashga, uni tuzatishga va uni baholashga o'rganib boradi. O'yin bolalarga ta'lim berish, ularga turli xil harakatlarni ob'ektlar, usullar va aloqa vositalari bilan o'rgatish maqsadida kattalar tomonidan o'rganiladigan bolalar faoliyatining turlaridan biridir. O'yin usuli bolalar bilan ishlashning asosiy usuli hisoblanadi[5]. O'yinlar davomida bolalar boshqa mashg'ulotlar bilan bir qatorda to'g'ri nutq qobiliyatlarini o'zlashtiradilar. O'quv jarayonining samarali bo'lishida o'yinda bola o'zini his qila olishi, bolaga o'z tajribasini to'plashiga imkon yaratishi kerak. Bolalarning logopedik mashg'ulotlarga qiziqishini oshirish uchun turli xil ijodiy vazifalar, to'g'ri talaffuzni mustahkamlash uchun mashqlarga yangi yondashuvlar zarur. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. Bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini,

diqqatini, xotirasini faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi. O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi.

Nazorat savollari

1. Ijodiy o'yinlar va ularning mazmun mohiyatini tushuntiring?
2. Ijodiy o'yinlar va ularning turlarini sanang?
3. Maktabgacha ta'limda ijodiy o'yinlarning ahamiyatini gapiring?

4-Seminar mashg'ulot

Mavzu: Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar.

Reja:

1. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning mazmuni
2. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning turlari
3. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning ahamiyati

“Muammoli vaziyat” metodi.

Ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o`rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to`g`risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo`llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo`yicha taqdimot qiladilar va o`z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta`lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo`llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Mavzuning bayoni: Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar yosh bolalar uchun an'anaviy o'yinlar (masalan, “Qushlar pirr etib uchdi”, “Bo'rilar va ovchilar”) hamda zamonaviy kompyuter va mobil o'yinlar (masalan, Yandex.Games-dagi hayvonlar o'yinlari) ni o'z ichiga oladi. An'anaviy o'yinlar bolalarda ijtimoiy munosabatlar va axloqiy tushunchalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy o'yinlar hayvonlar bilan o'zaro munosabatlar, hayvonlarni parvarish qilish va hayvonot olami qiziqishlarini qamrab oladi.

An'anaviy o'yinlar: Bu o'yinlar ko'pincha to'planish, yugurish, ovlash kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Misollar:

"Qushlar pirr etib uchdi": Bu o'yinda bolalar turli xil qushlar shaklida harakatlanib, bir-birini tutishga harakat qiladi.

"Bo'rilar va ovchilar": Bu o'yinda bir guruh o'yinchilar bo'rilar, ikkinchilari esa ularni tutishga harakat qilayotgan ovchilar rolini o'ynaydi.

"Zovurdagi bo'rilar": Bu ham o'ziga xos bir o'yin bo'lib, unda bolalar hayvonlar rolini bajarib, o'zaro munosabatlarni o'rganadilar.

Zamonaviy o'yinlar:

Zamonaviy o'yinlar turli platformalarda mavjud va bolalarga hayvonot olami bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Hayvonlar bilan bog'liq kompyuter/mobil o'yinlar: Yandex.Games kabi onlayn platformalarda turli hayvonlar bilan bog'liq o'yinlarni topish mumkin. Bularga hayvonlarni parvarish qilish, ularni qutqarish, hayvonot bog'ini yaratish kabi o'yinlar kiradi.

«Qahramonlar hayvonlariga bo'lgan sevgi»: qatoridagi o'yinlar.

Hayvonlar bilan rasmlarni bo'yashish: o'yinlari, shuningdek, hayvonlar rasmlarini to'plashga qaratilgan pazl o'yinlari.

Nazorat savollari

1. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning mazmunini izohlang?
2. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning turlarini sanang?
3. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar va ularning ahamiyatini tushuntiring?

Taqdimot tayyorlash

1-Mustaqil ta'lim

Mavzu: MTTda o'yin faoliyati, o'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.

Reja:

1. O'yinning bola faoliyatining asosi sifatidagi mohiyati
2. O'yinning bola faoliyatining mazmuni sifatidagi ahamiyati
3. MTTda o'yin faoliyati va uning asosiy xususiyatlari

Taqdimot tayyorlash

imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu — o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt-sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari va uning muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar ta'lim jarayonini tashkil etish ko'rsatkichlarining o'zgarishini ta'minlaydi. Zero, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019-yil

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

6. F.Mamadova Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma "Farg'ona" nashriyoti Farg'ona

Manbaalar bilan ishlash

18-Mustaqil ta'lim

Mavzu: Maktabgacha ta'limda ijodiy o'yin turlari.

Reja:

1. Ijodiy o'yinlar va ularning mazmun mohiyati
2. Ijodiy o'yinlar va ularning turlari
3. Maktabgacha ta'limda ijodiy o'yinlarning ahamiyati

Manbaalar bilan ishlash

Tarixiy manbalar bilan ishlashamaldagi usullar materialning tarkibiy tuzilishi turiga bog'liq. Demak, matnda bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan va statik tarzda ko'rsatilgan element-obyektlarni o'rganishda elementlarning xossalarini o'rganish uchun tavsiflar, takroriy o'lchovlar, tajribalar yordamida aniq ilmiy usullar qo'llaniladi. Shuning uchun bunday o'ziga xos ilmiy o'rganish usullarini obyektlarning statikasini o'rganishning elementma-element usullari deb atash mumkin.

Hozirgi vaqtda tarixiy manbalar bilan ishlash usullarini tasniflash quyidagi asoslar bo'yicha taklif etiladi:

... Axborot manbasiga ko‘ra, o‘qitish shaklini hisobga olgan holda;

... Qidiruv faoliyatining tabiati bo‘yicha;

... O‘quv materiali mazmunining mantiqiy tuzilishiga ko‘ra;

... Mantiqiy operatsiyalar orqali

Usullarning u yoki bu kichik guruhini (og‘zaki, vizualyoki amaliy) tanlagandan so‘ng, assimilyatsiya darajasini dasturlash va qidiruv usullarining kichik guruhlarini, keyin esa individual usullarni aniqlash kerak. Usullarni tanlashning keyingi bosqichi o‘quv materiali mazmunining mantiqiyliigi asoslanai.

Ketma-ket matnli usul to‘rtta asosiy harakatda ifodalanadi, shundan so‘ng o‘quvchilarning manba bilimlarini o‘zlashtirish bo‘yicha ishining to‘liq algoritmini tashkil etadi. Manbaning asosiy g‘oyalarini ajratib olish va rivojlantirish. Ushbu harakat quyidagilarni nazarda tutadi:

- asosiy g‘oyalar va qoidalarni ajratib ko‘rsatish;
- ularning mohiyatini tushunish uchun samarali va kognitiv savollarni shakllantirish;
- javoblarni jamlash va qayd etish.

Mualliflik huquqi masalalarini tahlil qilish. Ushbu harakat quyidagilarni nazarda tutadi:

- matnda mualliflar tomonidan berilgan savollar ustida ishlash;
- ularga javoblar ishlab chiqish;
- Muallifning javoblarini o‘z javoblari bilan tekshirish.

Mualliflar savol tug‘dirmaydigan va shu bilan o‘quvchini tarixiy haqiqatga ergashishga chaqirmaydigan manbalar deyarli yo‘q. Tarixning xalqlar haqidagi fan sifatidagi tabiatidan uning ifodalanish uslubiga o‘ziga xos munosabati kelib chiqadi.

Asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PQ-4312-son qarori
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta`lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori
3. O`zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida»gi Qonuni O`RQ-505 T.: 2019-yil
4. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori
5. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o`quv dasturi T.: 2022-yil
6. F.Mamadova Milliy va harakatli o`yinlarni o`qitish metodikasi o`quv qo`llanma “Farg’ona” nashriyoti Farg’ona

10 ta test tuzish

19-Mustaqil ta`lim

Mavzu: Maktabgacha ta`limda bolalarga o`yinchoqlar va noan’anaviy ashyolar yordamida o`yinlar tashkil etish.

Reja:

1. O`yinchoqlar va ularning yaratilish tarixi
2. Maktabgacha ta`limda bolalar uhun o`yinchoqlar va ularning mazmuni
3. Noan’anaviy ashyolar yordamida tayyorlangan o`yinchoqlar

10 ta test tuzish

Testlashtirish - testlar yordamida bilim va ko'nikmalarni tekshirish usuli.

T. insoniyat tarixidagi eng qad. hodisalardan biri hisoblanadi. Qad. Xitoyda fuqarolik xizmatiga kiruvchi amaldorlar shu usuldan o'tkazilgan. Ilk bor "akliy test" atamasi 1890-yil amerikalik psixolog Jeyms Makkin Kattel maqolasida qo'llangan bo'lib, unda kollej o'quvchilarining intellektual darajasini aniqlash uchun g'ar yili qo'llaniladigan turkum testlar tavsiflangan. Fransuz psixologi A. Bine ham o'z tadqiqotlarini akliy salohiyatni aniklash usullariga bag'ishladi. Niderlandiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Daniya, Fransiya, Isroil, Finlandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa rivojlangan davlatlar T. bobida yetakchi hisoblanadi. Mazkur ro'yxatdan aholisining hayot tarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarning joy olishi tasodifiy emas. Bu yerda T. qo'llanishi ta'lim sifatiga ta'sir etishi boshqaruv sifati bilan bog'liq bo'lsa, sifatli boshqaruv, o'z navbatida, aholi turmush darajasining sifatini oshirishga zamin yaratadi.

T. 1898-yil AQShda bir nechta oliy o'quv yurtiga kirishda sinab ko'rilib, abituriyentlar uchun o'rta maktab dasturlari asosida yagona T. tizimini yaratish zarurligi haqidagi xulosaga kelindi. 1900-yil ayrim xususiy tashkilot va untlar tashabbusi bilan kollejlarga qabul qilish bo'yicha imtihon kengashi, 1947-yil dekabrda esa ta'limni rivojlantirish bo'yicha Karnegi jamg'armasi hamda kollejlarga qabul qilish bo'yicha imtiqon kengashi tomonidan pedagogik T. xizmati tashkil qilindi.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

3. O`zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida»gi Qonuni O`RQ-505 T.: 2019-yil

4. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori

5. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o`quv dasturi T.: 2022-yil

6. F.Mamadova Milliy va harakatli o`yinlarni o`qitish metodikasi o`quv qo`llanma “Farg’ona” nashriyoti Farg’ona

Metodlar orqali yoritish

20-Mustaqil ta`lim

Mavzu: Tinch,o`rtacha va tez harakatli o`yinlar.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tinch harakatli o`yinlar.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o`rtacha harakatli o`yinlar.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tez harakatli o`yinlar.

Metodlar orqali yoritish

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu — o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat

tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (sub'yekt-sub'yekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari va uning muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar ta'lim jarayonini tashkil etish ko'rsatkichlarining o'zgarishini ta'minlaydi. Zero, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019-yil

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

6. F.Mamadova Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma "Farg'ona" nashriyoti Farg'ona

Taqdimot tayyorlash

21-Mustaqil ta'lim

Mavzu: Mashg'ulotlarda o'yin faoliyatini tashkil qilish

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisining lavozim vazifalari
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisining malaka talablari
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisining bilish arajasi

Esse yozish.

Esse - fransuz tilida essai tajriba, ingliz tilida «essay», «assay-intilish, ijodiy sinov, ocherk, lotincha «exagium», - o'ylash» degan ma'noni bildiradi. Esse - o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish. Shu o'rinda esse bilan inshoni taqqoslash o'rinli, bu esa esse haqidagi ko'nikmalarning kengayishiga, essenini yanada yaxshi tushuna olishga yordam beradi. Esse va inshoning o'xshash va farqli jihatlari quyidagi o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Insho-arab tilidan olingan so'z bo'lib, “ bino qilish, qurish”, degan ma'noni bildiradi. Insho o'quvchining o'zbek adabiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini o'z fikri va dunyoqarashi bilan bog'lab yozadigan ijodiy mehnati. Bunda o'quvchidan o'qilgan badiiy asami chuqur o'ylashi, tahlil qilishi, so'ng badiiy til bilan ta'sirli ifodalashi talab etiladi. Inshoda o'quvchi berilgan mavzu asosida batafsil ijodiy fikrlashi, keng badiiyat asosida inshoga qo'yilgan rejaga muvofiq ifoda etishi mumkin. Esse esa erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning kichik bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi, epigraf qo'yilmaydi. Insho- tuzilishi jihatdan hajmi keng, fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlar asosida yoziladigan ijodiy ish. Insho uchun reja tuziladi va epigraf yoziladi. Essening turlari bir necha xil bo'lib, yozilish maqsadiga ko'ra uning qay turga mansubligi aniqlanadi. Insho shartli ravishda uch guruhga bo'linadi: adabiy, ijodiy va erkin mavzudagi insholar. Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish. Essening maqsadi - o'quvchini faol va tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish. Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni to'g'ri qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Asosiysi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir. Essening tuzilishi Esse 3 qismdan iborat

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019-yil

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

6. F.Mamadova Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma "Farg'ona" nashriyoti Farg'ona

Glossariy tuzish.

22-Mustaqil ta'lim

Mavzu: Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda o'yin faoliyati.

Reja:

1. Darsdan tashqari o'ynaladigan harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi.
2. Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi.
3. Saf va tartiblash mashqlarini o'rgatish.
4. O'rta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlar.
5. Harakatlarga o'rgatish jarayonlarining asoslari.

Glossariy tuzish

Glossariy – (Ma'lum adabiyot, darsliklarga ibora berish, atama yozish, izoh bildirish) boshqa tilda keltirib o'tilgan fan iboralarini sharhlash, tushuntirish, tarjima qilish degani. Umumiy qilib aytilganda tarjima qilib beruvchi kam qo'llanuvchi so'z yoki iboralar lug'ati. Glossariy alohida nashr etilmay, chet tilidan tarjima qilingan asarlar qismi, bobi ostidan yoki chet tili darsliklarida berilgan mashq matnlari ostida

keltirib o‘tiladi. Ularda o‘sha chet tiliga xos bo‘lib, matnga kiritilgan so‘zlar yoki iboralar ro‘yxati keltirilib, ular izohi ilova qilinadi.

Glossariy ko‘proq ingliz, fransuz, nemis tiliga oid adabiyotlardan na‘muna keltirilganda o‘sha til iboralarni oddiy tilda tushuntirib o‘tilishidir. Bundan tashqari ayrim asar yoki turkumga oid Glossariylar ham bor. Masalan, Vedalarga (mil. av. 1-mingyillik), Gomer asarlariga (mil. av. 5-asrdan boshlab) oid kitoblarda Glossariylar mavjud.

Hozirgi kundagi o‘zbek tilida ijod yurituvchi olim va mutaxassislarning chiqarayotgan adabiyotlarda ham ushbu Glossariylarni ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni O‘RQ-505 T.: 2019-yil

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi T.: 2022-yil

6. F.Mamadova Milliy va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma “Farg‘ona” nashriyoti Farg‘ona

Izohli lug'at

Oliy ta'lim-uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Bakalavriat-o'rta-maxsus kasb-hanvr ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Magistratura-aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Bakalavr, magistr-oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladjigan akademik darajalardir.

Shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat-ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim-malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish-kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o'ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

Ta'lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning ko'p tomonlama o'zaro ta'sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash - faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning obyekti (shaxs) bir paytning o'zida subyekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya'ni shaxs o'zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar - o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro harakatida kechadi. Har qanday bolaning tarbiyasi muvafaqqiyati va to'g'ridan-to'g'ri bo'ladigan shaxslararo aloqalarning intensivligi va boyligiga bog'liqdir.

Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati-ta'lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmati uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog'liq bo'ladi.

Didaktika (yunoncha didaktikos - o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi) - pedagogikaning tarmog'i hisoblanib, u ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin.

O'qitishda onglilik va faollik tamoyili – bu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O'qitishda nazariya bilan amaliyotining birligi tamoyili - dars jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda nazariya bilan amaliyotni birgalikda qo'shib olib borishni taqozo etadi.

Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili- bu tamoyil ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili o'quv materiallarini konkret obrazlar orqali bevosita ta'lim oluvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishlilik tamoyili o'rganilayotgan material maznuini, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi.

Namunalardan foydalanish tamoyiliga ko'ra o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi na'munalar tanlashga harakat qilishi kerak.

Didaktik reduksiya tamoyilida talabaning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv materiali kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim.

Ilmiylik tamoyili talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi

Tarbiya bilan ta'limning birligi tamoyili-bu tamoyil o'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq bo'ladi.

O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili- tizimlilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi.

O'qitishda talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili. Har bir talaba o'zining individual xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi.

Bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili- bu tamoyil nazariy va amaliy ta'lim jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar.

Metodik ta'minotga qo'yiladigan didaktik talab-ilmiylik, tushunarlilik, qat'iy bayon etilishi, uzluksizlik, yaxlitlilik, iterfaollik va boshqalar;

Metodik ta'minotga qo'yiladigan metodik talab-har bir fanning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotning zamonaviy metodlarini o'zaro bog'lash, o'zaro aloqadorlik, turli-tumanlik;

Metodik ta'minotga qo'yiladigan psixologik talab-idrok etish, tasavvur, motivatsiya, xotira, tasavvur, yosh va individual xususiyatlarning hisobga olinishi;

Metodik ta'minotga qo'yiladigan estetik talab-tartiblilik va ifodalilik, bezashning funksional talablarga mosligi;

Pedagogik texnologiya - ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-usubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Sirtqi ta'lim - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot olish shakli.

Ma'ruza (lotin tilida **lectio-o'qish**) - biror bir ilmiy, siyosiy mavzu bo'yicha o'quv materialini og'zaki bayon etish ma'nosini anglatadi.

Kirish - auditoriyani o'quv materialini idrok etishga qiziqtirish va yo'naltirish maqsadiga ega bo'lgan ma'ruzaning bir qismidir.

Asosiy qism - taklif etilgan rejaga qat'iy amal qilgan xolda ma'ruza mazmunini bayon etish.

Xulosa - ma'ruzani umumiy xulosalash, materiallarni umumlashtirish, ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalarini bayon etish; talabalarning savollariga javob berish.

"Seminar" - so'zining o'zi lotin tilidagi "seminarium" so'zdan olingan bo'lib, bog'bon (ko'chat o'tkazuvchi) deb tajima qilinadi.

Haqiqiylik. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi.

Haqqoniylik (ob'ektivlik). Bir xildagi ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha har xil ta'lim beruvchilar tomonidan bir xil baho berilgan hollardagina bunday topshiriq va test haqqoniy hisoblanadi.

Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobayida har xil usullardan foydalanish mumkin.

Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim.

Xayrixohlik xatosi. Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori talab qo'yish xatosi. Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bunday hol bahoning biroz pastroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'rtacha baho berish xatosi. Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi yoki o'ta yomon baho berishdan qo'rqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi. Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini o'zgartirishni xohlamasligi tufayli u o'z nazoratining natijalarini o'zgarishsiz qoldiradi.

Yoqtirmaslik xatosi. Biror ta'lim oluvchini yoqtirmaslik yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lish tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato "Hayrixohlik xatosi" ning aksidir.

"Maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari" fanidan yakuniy nazorat test savollari

1. O'yin texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Rivojlantiruvchi metodika
- B) O'quvchilarga faqat mashg'ulotda foydalaniladigan vosita
- C) O'yin orqali o'qitish usuli
- D) Mashq bajarish texnikasi

2. Quyidagilardan qaysi biri o'yin texnologiyasining asosiy xususiyatlaridan biri emas?

- A) Bolani faol ishtirokchiga aylantirish
- B) Rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash
- C) Matnlarni yodlatish
- D) Emotsional ijodni rag'batlantirish

3. Didaktik o'yin nima?

- A) Faoliyatga qiziqni oshirish uchun tashkillashtirilgan o'yin
- B) Bolalarning ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'yin
- C) Ma'lumotlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan pedagogik o'yin
- D) Sport o'yinlari bilan shug'ullanish

4. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga harakatli o'yinlar kiradimi?

- | | |
|-------------------------|------------------------|
| A) Xa, kiradi | B) Yo'q kirmaydi |
| C) Kiritilish arafasida | D) Umuman kiritilmaydi |

5. Harakatli o'yinlar kun tartibida ko'proq qaysi paytlarda qo'llaniladi?

- | | |
|-----------------|-----------------------------|
| A) Mashg'ulotda | B) Mashg'ulotdan tashqarida |
| C) Tanaffusda | D) Sport tugragida |

6. Harakatli o'yinlarni tashkilotchisi va boshqaruvchisi kim?

- A) O'yin boshi
- B) Jamoa sardori
- C) Tarbiyachi
- D) Uslubchi

7. Maktabgacha ta'limda o'yin turlarining biri bo'lgan "rolli o'yin" nima uchun qo'llaniladi?

- A) Matematika ko'nikmalarini mustahkamlash
- B) Bolalarning kommunikativ va ijtimoiy tajriba orttirishlari uchun
- C) Jismoniy mashqlarni kuchaytirish
- D) Qoidalarga rioya qilishni o'rgatish

8. O'yin texnologiyalarini qo'llashda tarbiyachining roli qanay?

- A) Faqat kuzatuvchi bo'lish
- B) O'yin jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi bo'lish
- C) Bolalarga faqat topshiriq berish
- D) Har doim o'yinlarni o'zi toppish

9. Quyidagilardan qaysi biri o'yin texnologiyalaridan foydalanishning maqsadlaridan biridir?

- A) Mashg'ulotlardagi ma'lumotlar sonini kamaytirish
- B) Bolalarning passiv qabul qiluvchiga aylanishining olini olish
- C) Faqat hazil-kulgini ta'minlash
- D) Yozma ishlarni ko'paytirish

10. "Ishbilarmonlik o'yinlari" tushunchasi nimani anglatadi?

- A) Bolalarning pul almashinuvi bilan shug'ullanishi
- B) Rol va majburiyatlar bilan bog'liq tushunchalarning rivojlanishi
- C) Sport musobaqalari
- D) Qurilish ishlaridan iborat o'yinlar

11. O'yin texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun qaysi shartlar muhim?

- A) Bolalarning yoshiga moslik
- B) Qiyinchilik darajasi me'yorda bo'lishi
- C) Tashkiliy jihatlar (joy, vosita) to'g'ri tanlanishi
- D) Yuqoridagilarning barchasi

12. O‘yin texnologiyalarida “refleksiya” nima vazifani bajaradi?

- A) Bolalarni passiv kuzatuvchiga aylantiradi
- B) O‘yin jarayonini umumlashtirish, tajriba to‘plash va tahlil qilish
- C) Faqat o‘yin boshlanishida qo‘llanadi
- D) Qoidalarni ishlab chiqish

13. O‘yinning asosiy vazifasi nima?

- A) Bolalarni faollashtirish
- B) Bolalarni kuchli qilish
- C) Vaqtni chog‘ o‘tkazish
- D) Kitob o‘qitish

14. Ta’lim tashkilotlari o‘yin texnologiyasini qo‘llashning asosiy maqsadi nima?

- A) Bolalarni jismoniy chiniqtirish
- B) Bolalarni kuchli qilish
- C) Ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil etish
- D) Faqat o‘yin o‘ynash

15. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi uchun eng samarali o‘yin turi qaysi?

- A) Sport o‘yinlari
- B) Intellektual o‘yinlar
- C) Kompyuter o‘yinlari
- D) Stol o‘yinlari

16. O‘yin texnologiyalari ta’lim berishning qanday shakliga kiradi?

- A) An’anaviy ta’lim
- B) Innovatsion texnologiyalar
- C) Nazariy ta’lim
- D) Mustaqil ta’lim

17. Rol o‘yinlarining asosiy maqsadi nima?

- A) Sportga oid ko‘nikmalarini rivojlantirish
- B) Tashqi muhitni o‘rganish
- C) Hayotiy vaziyatlarni tushunish
- D) Kitob o‘qishga o‘rgatish

18. “Didaktik o‘yin” tushunchasi nimani anglatadi?

- A) Faqat o‘yin uchun mo‘ljallangan faoliyatni
- B) Ta’limiy maqsadga ega bo‘lgan o‘yinli faoliyatni
- C) Sport o‘yini
- D) Musiqa o‘yini

19. O‘yin texnologiyalarining asosiy afzalligi nima?

- A) Tarbiyachiga yengillik yaratish
- B) Har doim sovrinli bo‘ladi

C) Bolaning faoliyatga nisbatan qiziqishini oshirish

D) Ko'p vaqt sarf qilmaslik

20. Quyidagi qaysi faoliyatda o'yin texnologiyalari qo'llaniladi?

A) Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda

B) Mashg'ulotlar jarayonida

C) Tarbiyaviy ishlar

D) Yuqoridagilarning barchasida

21. Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda nimalar rivojlanadi?

A) Faqat eshitish qobiliyati rivojlanadi

B) Faoliyatga bo'lgan qiziqish oshadi

C) Yengish hissi payo bo'ladi

D) Uxlab qolish ehtimoli kuchayadi

22. Quyidagilardan qaysi biri o'yin texnologiyasiga misol bo'la olmaydi?

A) Loto o'yini

B) Rol o'yini

C) Mantiqiy o'yin

D) Nazorat ishlari

23. O'yin texnologiyasidan foydalanishning eng asosiy talablaridan birini ko'rsating?

A) Bolalarga sovg'a berish

B) O'yinchoqlar soni ko'p bo'lishi

C) Bolalarning yoshi va rivojlanish darajasini hisobga olish

D) Har kuni o'yin o'ynatish

24. O'yinning asosiy vazifasi nima?

A) Bolani ovqatlantirish

B) Bolaning bo'sh vaqtini to'ldirish

C) Bolaning rivojlanishini ta'minlash

D) Yaxshi baho olish

25. Quyidagilardan qaysi biri o'yinning asosiy xususiyatiga kirmaydi?

A) Qiziqarlilik

B) Ixtiyoriylik

C) Majburlilik

D) Faollik

26. Rol o'yinlarida bola nima qiladi?

A) Harakatlarni eslab qoladi

B) Hayotiy vaziyatlarni obrazli ifodalaydi

C) Sport bilan shug'ullanadi

D) Savolga javob beradi

27. O'yin faoliyati qaysi yoshdagi bolalarda eng faol rivojlanadi?

- A) 1-3 yoshgacha bo'lgan bolalarda B) Maktabgacha yosh davrida
C) O'smirlikda D) Kattalikda

28. Intellektual o'yinlar nimalarga yordam beradi?

- A) Faqat harakat qilishga undaydi B) Estetik tarbiyani kuchaytiradi
C) Aqliy rivojlanishga hissa qo'shadi D) Sport ko'nikmasini oshiradi

29. Didaktik o'yinlarning asosiy maqsadi nima?

- A) Rag'batlantirish
B) Dam oldirish
C) Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
D) Uxlashga tayyorlash

30. Quyidagilardan qaysi biri o'yinga asoslangan metod emas?

- A) Loto o'yinlari B) Mantiqiy o'yin
C) So'rovnoma D) Rolli sahna ko'rinishlari

31. Harakatli o'yinlar qaysi sohani ko'proq rivojlantiradi?

- A) Til savodxonligini B) Musiqiy savodxonligini
C) Jismoniy tayyorgarlik D) Estetik didni

32. O'yinning bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyati nimada?

- A) Faqat vaqt o'tkazish uchun
B) Rivojlantirish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish
C) Uyquni tartibga solish
D) Nazorat qilish

33. O'yin vaqtida bola nima qiladi?

- A) Faqat buyruqlarni bajaradi B) Mustaqil ijod qiladi
C) Ko'rsatmaga ko'ra harakat qiladi D) Faqat tinglaydi

34. O'yinning asosiy vazifasi nima?

- A) Bolani ovqatlantirish
B) Bo'sh vaqtini to'ldirish
C) Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash
D) Yaxshi baho olish

35. O'yinning qanday turlari mavjud?

- A) Faqat didaktik
- B) Faqat sport
- C) Rol, didaktik, harakatli, ijodiy
- D) Faqat virtual

36. Rol o'yinlarining asosiy belgisi nima?

- A) Aniq harakatlar
- B) Boshqa shaxs obraziga kirish
- C) Sport faoliyati
- D) Rejaga amal qilish

37. Harakatli o'yinlar qayerda ko'proq o'tkaziladi?

- A) Kitobxonxonada
- B) Ochiq havoda
- C) Dars vaqtida
- D) Uyda faqat

38. Didaktik o'yinlar nima uchun zarur?

- A) O'yinchoq o'ynash uchun
- B) Tarbiyachining shakllanishi uchun
- C) Bolada mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun
- D) Uyquga tayyorlash uchun

39. O'yin texnologiyasi bu-?

- A) O'yinchoq ishlab chiqarish
- B) O'qitishda o'yindan foydalanish **texnologiyasi**
- C) Kompyuter texnologiyasi
- D) Ishlab chiqarish texnologiyasi

40. O'yinlarda qatnashish bolaning qanday sifatini rivojlantiradi?

- A) Uyquchanlik
- B) Qiziqish, tafakkur va ijtimoiylashuv
- C) Dangasalik
- D) Jismoniy o'tirish

41. O'yin orqali qanday motivatsiya hosil qilinadi?

- A) Majburiyat hissi
- B) Rag'batlantiruvchi va qiziqitiruvchi
- C) Qo'rqitish
- D) Jazolash

42. Kompyuter o'yinlari bolaga qanday ta'sir qilishi mumkin?

- A) Doim foydali
- B) Faqat zararli
- C) Ijobiy yoki salbiy
- D) Farqi yo'q

43. Intellektual o'yinlar qanday foyda keltiradi?

- A) Faqat xotirani rivojlantiradi
- B) Fikrlash, muammo yechish ko'nikmasini oshiradi

C) Jismoniy faollikni oshiradi

D) Harakatni chegaralaydi

44. "Didaktik o'yin" tushunchasi nimani anglatadi?

A) Oddiy o'yin

B) O'yin-kulgi

C) Ta'limiy maqsadga ega o'yin

D) Raqobatli sport

45. O'yinlarda qoidalar nima uchun kerak?

A) Tartibsizlik yo'qotish uchun

B) Qizitirish uchun

C) Intizom va adolatli ishtirokni ta'minlash uchun

D) O'yin uzoq vaqtga cho'zilishi uchun

46. O'yinlar bolaning qanday rivojlanishiga yordam beradi?

A) Biryozlama rivojlanish

B) Jismoniy rivojlanish

C) Har tomonlama – jismoniy, aqliy, ijtimoiy rivojlanish uchun

D) Faqat ijtimoiy rivojlanish uchun

47. Bolalar o'yinida takrorlash qanday vazifani o'ynaydi?

A) Charchatadi

B) Ko'nikmalarni mustahkamlaydi

C) Befoyda

D) Vaqt yo'qotadi

48. O'yin faoliyati bolaning necha yoshidan boshlab shakllanadi?

A) 10 yoshdan keyin

B) Tug'ilgandan keyin 6 oyda

C) 1 yoshdan boshlab asta-sekin

D) Maktabga chiqqach

49. O'yinlarda bolaning mustaqilligi qanday namoyon bo'ladi?

A) Buyruqlarni bajaradi

B) O'zi qoidalar o'ylab topadi

C) Kuzatib turadi

D) Tarbiyachining talabini bajaradi

50. Harakatli o'yinlar bolani qaysi tomonlama rivojlantiradi?

A) Til ko'nikmasi

B) Jismoniy faollik va muvofiqlikni

C) Musiqaviy didini

D) Matematik bilimlarini

51. O'yin bolaga qanday hissiy ta'sir ko'rsatadi?

A) Zerikish

B) Salbiy hissiyotlarni

C) Ijobiy hissiyotlar va quvonch uyg'otadi

D) Qo'rqinch

52. Qaysi o‘yin turida bolalar bir-biriga rollarni taqsimlashadi?

- A) Mantiqiy o‘yinlarda
- B) Harakatli o‘yinlarda
- C) Rol o‘yinlarda
- D) So‘zli o‘yinlarda

53. Pedagogik o‘yinlar qanday tashkil etiladi?

- A) Avtomatik tarzda
- B) Nazorat qilinmaydi
- C) Maqsadga yo‘naltirilgan, didaktik tarzda
- D) Ko‘ngil ochar tarzda

54. O‘yin yordamida qaysi faoliyatga o‘rgatish mumkin?

- A) Uyqu faoliyatiga
- B) Muloqot va fikrlash faoliyatiga
- C) Ovqatlanish faoliyatiga
- D) Yozuv faoliyatiga

55. Qaysi turdagi o‘yinlar fantaziya va tasavvurni rivojlantiradi?

- A) Harakatli o‘yinlar
- B) Sport o‘yinlari
- C) Ijodiy o‘yinlar
- D) Qoidali o‘yinlar

56. O‘yinlarda yutqazish bolada qaysi hissni shakllantiradi?

- A) Salbiy his-tuyg‘ularni
- B) Mag‘lubiyat hissini
- C) Tushkunlik hissini
- D) Bardoshlilik va sabrni

57. Didaktik o‘yinlarning ustuvorligi nimaa bo‘ladi?

- A) Faqat g‘oliblik
- B) Bilimni o‘zlashtirish
- C) Rag‘batlantirish
- D) O‘yinbozlikni

58. O‘yin bolaning nutq rivojiga qanday ta’sir qiladi?

- A) Nutqni to‘xtatib qo‘yadi
- B) Nutqiy faollikni kuchaytiradi
- C) Hech qanday ta’sir qilmaydi
- D) Nutqni orqaga qaytaradi

59. Ijodiy o‘yinlar qanday tarkibiga o‘yinlardir?

- A) Qoidali o‘yinlar
- B) Harakatli o‘yinlar
- C) Obraz yaratishga asoslangan o‘yinlar
- D) Kompyuterli o‘yinlar

60. O‘yinlar orqali bola qanday nazorat qilinadi?

- A) Uyqusi
- B) O‘yinchoqlari
- C) Rivojlanish darajasi
- D) Ovqatlanish tartibi

61. Harakatli o‘yinlar qanday qoidalar asosida tashkil etiladi?

- A) Har qanday
- B) Raqobatli va jamoaviy qoidalar
- C) Shaxsiy
- D) Asossiz

62. O'yin o'tkazishda eng muhim omil nima?

- A) O'yinchoqning sifati
- B) Bolaning yoshi, rivojlanish darajasi
- C) Sovrinlar soni
- D) Mashg'ulot muddati

63. O'yin qachon samarali bo'ladi?

- A) Majburan o'tkazilganda
- B) Qiziqarli va ongli tashkil etilganda
- C) Faqat mukofot bilan
- D) Juda qisqa bo'lsa

64. O'yin nima?

- A) Faqat bolalarni ko'nglini yozish vositasi
- B) Bolalar uchun mehnat turi
- C) Shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi faoliyat turi
- D) Vaqtni behuda o'tkazish shakli

65. Axloqiy o'yinlarning asosiy vazifasi nima?

- A) Bolalarni chalg'itish
- B) Ularni tinchlantirish
- C) Axloqiy tushunchalarni shakllantirish
- D) Yaxshi o'qishga undash

66. Quyidagilardan qaysi biri didaktik o'yinga xos emas?

- A) Maqsadga yo'naltirilganlik
- B) Bilimlarni mustahkamlash
- C) Tomoshaboplik
- D) O'yin qoidalarining mavjudligi

67. Bolalarning roli o'yinlari qachon boshlab shakllanadi?

- A) 1-2 yoshda
- B) 3-4 yoshda
- C) 5-6 yoshda
- D) 7-8 yoshda

68. O'yinning psixologik ahamiyati nimada?

- A) Bola bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazadi
- B) Bola ruhiy jihatdan tetiklashadi
- C) Bola tez charchaydi
- D) O'yindan hech qanday psixologik foyda yo'q

69. O'yin faoliyati qaysi sohalarni rivojlantiradi?

- A) Faqat jismoniy sohani
- B) Faqat aqliy sohani
- C) Faqat ijtimoiy sohani
- D) Har tomonlama: jismoniy, aqliy, ijtimoiy sohalarni

70. Dastlabki o‘yin faoliyati orqali shakllanish qanday o‘yinlar orqali boshlanadi?

- A) Sport o‘yinlari
- B) Harakatli o‘yinlar
- C) Rolli o‘yinlar
- D) Qonun-qoidali o‘yinlar

71. "Harakatli o‘yinlar" qaysi tomonlama rivojlanishiga yordam beradi?

- A) Faqat aqliy rivojlanish
- B) Faqat ruhiy rivojlanish
- C) Jismoniy va koordinatsion harakatlar
- D) Faqat ko‘rish faoliyati

72. Bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar qanday bo‘lishi kerak?

- A) Juda kichik va murakkab
- B) Bolaning yoshiga mos, xavfsiz, rivojlantiruvchi
- C) Faqat tovush chiqaruvchi
- D) Rang-barang va chiroyli

73. O‘yinning asosiy funksiyasi nima?

- A) Vaqtni mazmunli o‘tkazish
- B) Bolalarni ovqatlantirishga tayyorlash
- C) Bolani har tomonlama rivojlantirish
- D) Sportga tayyorlash

74. Harakatli o‘yinlarning asosiy xususiyati nima?

- A) O‘yinchoqlarsiz o‘tkaziladi
- B) Sport elementlariga boy bo‘ladi
- C) Jismoniy faollik va tezlikni rivojlantiradi
- D) Faqat guruhda o‘ynaladi

75. Quyidagilardan qaysi biri rol o‘yinga misol bo‘la oladi?

- A) Shaxmat o‘yini
- B) "Do‘kondor va xaridor" o‘yini
- C) Yugur-yugur o‘yini
- D) Labirintdan chiqish

76. Bolaning qaysi shaxsiy sifatlari o‘yin orqali qanday rivojlanadi?

- A) O‘yin ta'sir qilmaydi
- B) O‘yin faqat ko‘ngil yozadi
- C) Muloqot, mustaqillik, ijtimoiylashuv rivojlanadi
- D) Faqat jismoniy holat yaxshilanadi

77. Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanish nima uchun muhim?

- A) Bolani chalg‘itish uchun
- B) Mashg‘ulot vaqtini to‘ldirish uchun
- C) Bilimni mustahkamlash va mashg‘ulotga qiziqishni oshirish uchun

D) Tarbiyachi dam olishi uchun

78. Bolalarning yosh xususiyatlariga mos o'yinchoqlar qanday tanlanadi?

A) Rangiga qarab

B) Narxiga qarab

C) Bolaning yoshiga, xavfsizligiga, rivojlantiruvchi omilga ega ekanligiga

D) Raqamiga qarab

79. O'yinlardagi qoidalar nima uchun kerak?

A) O'yinni qiziqarli qilish uchun

B) Faqat tarbiyachi uchun

C) O'yin tartibini saqlash va intizomni oshirish uchun

D) O'yinchoqlarni ko'rsatish uchun

80. O'yin faoliyati pedagogik jarayonda qanday rol o'ynaydi?

A) Ortiqcha vaqtning samarali bo'lishi uchun

B) Ta'lim, tarbiya beruvchi va rivojlantirish vosita

C) Mashg'ulotdan keyingi qo'llaniluvchi vosita

D) Faqat sport bilan bog'liq faoliyat

81. Qanday o'yinlar bolalarning tafakkurini rivojlantiradi?

A) Sport o'yinlari

B) Rolli o'yinlar

C) Mantiqiy va didaktik o'yinlar

D) Harakatli o'yinlar

82. Harakatli o'yinlar qanday maqsadga xizmat qiladi?

A) Bolalarni chalg'itish uchun

B) Jismoniy rivojlanishni ta'minlash

C) Faqat sportchilarga

D) Ovqatlanishdan oldin

83. Harakatli o'yinlar bolalarning qaysi jihatini rivojlantiradi?

A) Faqat fikrlashni

B) Jismoniy faollikni va harakat koordinatsiyasini

C) Faqat eshitishni

D) Faqat diqqatni

84. Harakatli o'yinlar necha yoshdan boshlab qo'llaniladi?

A) 1 yoshdan

B) 3 yoshdan

C) 5 yoshdan

D) 7 yoshdan

85. Quyidagilardan qaysi biri harakatli o'yinga misol bo'ladi?

A) "Kim topqir"

B) "Qo'vlashmachoq"

C) "O'yinchoq tanlash"

D) "Ranglarni ayt"

86. Harakatli o'yinlar qaysi vaqt oralig'ida o'tkazilishi kerak?

A) Har doim

B) Mashg'ulotlardan keyin

C) Faqat nonushtadan oldin

D) Uyqu vaqtida

87. Bolalar uchun harakatli o'yinlarda ishtirokchilar soni qanday bo'lishi kerak?

A) 1-2 kishi

B) Guruh yoki jamoa bo'lib

C) Tarbiyachi bilan ikki kishi

D) Faqat bir bola

88. Harakatli o'yinlar o'tkazilganda xavfsizlik qoidalar...

A) Muhim emas

B) Doimo hisobga olinadi

C) Faqat sport zalida kerak

D) Faqat katta yoshdagilar uchun

89. Quyidagilardan qaysi biri harakatli o'yinning turlaridan biri emas?

A) Sakrash o'yinlari

B) Egilish o'yinlari

C) Mantiqiy muammolarni hal qilish

D) Yugurishli o'yinlar

90. "Kim tez?" o'yini qanday o'yin turiga kiradi?

A) Mantiqiy o'yinlar

B) Jismoniy-harakatli o'yinlar

C) Rolli o'yinlar

D) Sport o'yinlar

91. Harakatli o'yinlar mashg'ulot jarayonida qaysi vaqta o'rinli qo'llanilgan hisoblanadi?

A) Mashg'ulotning boshlanishida

B) Tanaffus yoki dam olish paytida

C) Mashg'ulotning oxirida

D) Uyga vazifa brish vaqtida

92. Harakatli o'yinlar orqali bolalarda qanday fazilatlar shakllanadi?

A) Passivlik

B) Jamoada ishlash, intizom, chaqqonlik

C) Ko'ngilsizlik

D) Yolg'izlik

93. Harakatli o'yinda bolaning faolligini oshirish uchun nima zarur?

A) O'yin qoidalarini yashirish

B) Rag'batlantirish, qiziqarli topshiriqlar brish

C) Yakkama-yakka raqobat

D) Jazo choralari

94. Harakatli o'yinlar bolalar uchun MTT da nima uchun muhim?

- A) Bolalarni charchatish uchun
- B) Jismoniy va ijtimoiy rivojlantirish uchun
- C) Faqat guruhni band qilish uchun
- D) Uyqudan oldin tinchlantirish uchun

95. Qaysi holatda harakatli o'yinni to'xtatish kerak?

- A) Bola xafa bo'lsa
- B) Qoidalar buzilsa
- C) Xavf tug'ilsa
- D) Guruh yetarli bo'lmasa

96. Harakatli o'yinlar qanday shaklda o'tkazilishi mumkin?

- A) Nazariy
- B) Faol jismoniy harakat bilan
- C) Stol ustida
- D) Rasm chizish orqali

97. O'yinlar orqali bolaning diqqatini qanday oshirish mumkin?

- A) O'yinni cho'zish orqali
- B) Qiziqarli harakatli topshiriq berish orqali
- C) Jazo berish orqali berish orqali
- D) Unga savol berish orqali

98. Harakatli o'yinlarda bolaning yoshi qanchalik inobatga olinadi?

- A) Inobatga olinmaydi
- B) Har doim e'tibor beriladi
- C) Faqat 5 yoshdan katta bolalar o'ynaydi
- D) 3 yoshdan kichiklar uchun emas

99. Harakatli o'yinlar orqali bolaning ijtimoiy faolligi qanday shakllanadi?

- A) Mustaqil bo'lishni o'rganadi
- B) Guruhda ishlash, hamkorlik qilishni o'rganadi
- C) Faqat o'z fikrini aytishni o'rganadi
- D) O'yin o'ynashni o'rganadi

100. Harakatli o'yinlar bolalar salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- A) Salbiy
- B) Salomatlikka foydali, immunitetni oshiradi

C) Ta'siri yo'q

D) Faqat chaqqonlikni oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni Qonunchilik palatasi 19-mayda yangi tahrir 2020-yil

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019-yil

6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

8. A.Musurmonova «Umumiy pedagogika» o'quv qo'llanma «O'zkitobsavdonashriyoti» T.: 2020-yil

9. B.M.Umarov va boshqalar «Pedagogika. Psixologiya» darslik T.: «IJOD-PRINT», 2019 –yil

10. J. Hasanboyeva va boshqalar «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020-yil

11. M.Mavlonova, O.To`rayeva, K.Xoliqberdiyev «Pedagogika» T.: «O`qituvchi» nashriyoti 2000-yil.

12. M.Maxnudova «Muloqot psixologiyasi» o`quv qo`llanma T.: «Turon-iqbol» nashriyoti 2006-yil

13. M. E. Axmedova «Pedagogika nazariyasi va tarixi» o`quv qo`llanma T.: 2011-yil

14. P.Ivanov va boshqalar «Umumiy psixologiya» darslik «O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» T.: 2008-yil

15. R.Mavlonova va boshqalar «Pedagogika» darslik «O`qituvchi» T.: 2008-yil

16. X. I. Ibragimov va boshqalar «Pedagogik psixologiya» o`quv qo`llanma «O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti T.: 2009-yil